

PIRIMQUL QODIROV

ERK

Qissa

1

Shahar chetidagi salqin chorborg‘dan birin-ketin beshta yengil mashina chiqdi-yu katta ko‘cha tomon burildi. Roziya ham shu chorborg‘dan chiqib, avtobus bekatiga qarab bormoqda edi. Mashinalar karvoni uni quvib o‘tganda, oldinda ketayotgan qora «Volga» birdan sekinladi. Orqadagilari ham tormozlarini g‘iyqillati6, uning ketidan to‘xtadi.

Bu mashinalarda moskvalik mehmonlar va ularni olib yurgan mezbonlar kelayotganini Roziya bilar edi. Shahar mehmonxonalarissiq bo‘lganligi uchun moskvalik mutaxassislar bog‘dan joy qilingan. Roziya hozir ularga kerakli ma’lumotlarni berib qaytmoqda edi. Endi ular hammasi nega to‘satdan to‘xtab qolganiga qiziqib mashinalarga ko‘z yogurtirdi.

Oldingi qora «Volga»dan tushgan novcha, o‘rta yashar mehmon Roziyaga bir gapi borday o‘girilib qaradi. Bu orada mezbonlardan ikki-uchtasi mashinalardan tushib, mehmonni o‘rab olishdi.

- Nima bo‘ldi? Mashinani nega to‘xtatdingiz, Maksimich?
- Ruxsat bersalaringiz, men shu yerda tushib qolsam.
- Bir o‘zingiz-a?
- Ha.
- Nega endi, Maksimich? Yo oradan biron gap o‘tdimi?
- Xammasi joyida, do‘sstar, men hech kimdan, hech narsadan xafa emasman. Faqat oddiy bir yo‘lovchi bo‘lib shahar kezmoqchiman, xolos.
- Yo‘g‘-e! Kun issiq, qiynalib qolasiz!
- Hechqisi yo‘q, men chiniqqan odamman!
- Axir, biz ham shaharni aylanmoqchi bo‘lib ketayotibmiz-ku, Maksimich! Metropoliten uchun mo‘ljallayotgan trassamizni yana bir ko‘rmoqchi edingiz-ku!
- Masala umuman hal bo‘lsin, keyin yana, albatta, ko‘ramiz. Hozir men shaharni yaxshilab bir tomosha qilmoqchiman.
- Bo‘lmasa, mashinalardan birini beraylik, odam qo‘shaylik! Adashib ketishingiz mumkin.
- Rahmat, do‘sstar, buning hojati yo‘q. Adresni, telefonni yozib olganman. O‘zim topib boraman. Mashinada o‘tirgan boshqa mehmonlar ham gapga aralashishdi:
- Maksimichning shunaqa odati bor. Mayli, majbur qilmaylik.
- Nihoyat, mashinalar karvoni jo‘nab ketdi. Yengil kulrang pidjagini yechib, bilagiga tashlab olgan Maksimich sersoya yo‘lkadan sekin o‘tib ketayotgan Roziyaga qarab yurdi.
- O‘rtoq gidrogeolog, bir minutga mumkinmi? Roziya to‘xtab, orqasiga o‘garildi. Shunday mo‘tabar mehmon, shunday salobatli odam nahotki Roziya tufayli beshta mashinani to‘xtatib, tushib qolgan bo‘lsa! Roziya bu taxminga ishongisi kelmay:
- Menmi? — dedi va bir qo‘lining uchini ko‘ksiga qo‘yib, beixtiyor o‘zini ko‘rsatdi. Uning ko‘zlarini hayratdan katta-katta ochilgan, lablari begona erkakdan cho‘chiganday qimtilgan edi.
- Ha, otingizni bilmaganim uchun kasbingizni aytib chaqirdim, kechirasiz.
- Marhamat. — Roziya mexmonga sergaklanib qarab turardi.
- Men mehmonlik hukuqimdan foydalanib qolmoqchiman. Sharqda «mehmon otangdek aziz» der ekanlar, to‘g‘rimi?
- Roziya mehmonning sochi oqarib qolgan chakkalariga ko‘z tashladi-yu: «Haqiqatan, otam tengi

odam ekan, nega cho‘chiyman?» deya ichida o‘zidan kuldilari.

— Umuman, to‘g‘ri, — dedi.

— Bo‘lmasa tanishib qo‘yaylik.

Roziya qizil sumka tutgan qo‘llarini orqasiga qilib turgan edi, qo‘l bermasdan shundoq o‘z nomini aytdi.

— Roziya! — mehmon uning nomini yoqtirib ruscha urg‘u bilan bir-ikki takrorlab qo‘ydi. — Chiroyli, qisqa nom. Mening nomim o‘zimga o‘xshagan uzun: Illarion Maksimilianovich. Esingizda qoldimi? Qani, ayting-chi?

Roziya yarmigacha to‘g‘ri aytdi. U ruschani yaxshi bilsa ham, naryog‘iga tili kelishmay adashdi. Bundan ikkovlari ham kulib yuborishdi. Shundan keyin Roziya ortiqcha tortinmay erkin gaplasha boshladi.

— Boya chorborg‘da sizni «Maksimich» deb chaqirganlarini eshitgan edim.

— Umuman, bu qisqartirish uncha to‘g‘ri emas. «Maksim» bilan «Maksimilian» ikki turli nomlar. Lekin, agar istasangiz, siz ham meni Maksimich deyaverishingiz mumkin. Men o‘rganib ketganman.

Roziya «Maksimich» desa o‘zini unga haddan tashqari yaqin oladiganday bo‘lar edi. Shuning uchun:

— Ko‘ray-chi, balki to‘liq aytishga ham kuchim yetar, — dedi.

Bu gaplar davomida ikkovi avtobus bekatiga yetib bordi. Uzoqda avtbus ko‘rindi.

— Siz nechanchiga? — dedi Roziya.

— Bilmayman. Shaharlaringizga birinchi kelishim, aylanib ko‘rmoqchiman. Agar ruxsat bersangiz, siz borgan joygacha birga ketsam. Naryog‘iga balki, yo‘lni tushuntirib qo‘yarsiz?

— Mayli, — deb Roziya darhol rozilik berdi-yu, ammo uning yuzida qandaydir taraddud ifodasi paydo bo‘ldi.

Bekatda turgan odamlar ularga qarab-qarab qo‘ymoqda edilar. Maksimichning oq yuzi qirmizi tusga kirgan, zangori ko‘zlarini ichgan odamning ko‘zlariday yonib turar, ammo qo‘lida olib yurgan pidjagi uning salqin shimoldan kelganini, issiqla o‘rganmaganligidan qizarib ketganini ko‘rsatar edi. Qorachadan kelgan qiyg‘och qoshli Roziya yigirma besh yoshlarga borgan bo‘lsa ham, hali onasi o‘pmagan qizday latofatli edi.

Uning baland qilib turmaklangan, qop-qora, mayin sochiga guldor durra bog‘lab qo‘yilgan, yengsiz kimono ko‘ylagi xipcha qomatiga juda yarashgan, tarang oyoqlaridagi hindcha zarrin sandalining uchidan ko‘rinayotgan tirnoqlari ham yaxshilab pedikyur qilingan. Shunday yoshgina janub qizi ellik yoshlarga borib qolgan shimollik odam bilan shahar bo‘ylab sayr qilib yurishi odamlarning e’tiborini tortishi tabiiy edi.

Roziyaning yuzida ko‘ringan taraddudning sababi shu ekanini Maksimich ham tushundi. U bekatda turgan qora qosh bir yigitning Roziyaga xo‘mrayib tikilganini ko‘rib qoldi. Bu xo‘mrayishda rashkka o‘xhash tuyg‘u bor edi. «Ie, hali yigitlarning rashkini keltiradigan darajada navqiron ekanmiz!» deb Maksimich o‘zicha jilmayib qo‘ydi. Xo‘mraygan yigitcha Roziyani puldor domlalar bilan yuradigan student qiz, deb o‘ylab g‘ashi kelmokda edi. Roziya buni sezib, battar uning jig‘iga tekkisi keldi. Maksimichni yengidan olib, avtobusga tomon tortdida:

— Qani, bo‘lmasa, yuring, birga ketdik! — dedi. Avtobusda eshikka yaqinroq o‘tirgan o‘smirlardan biri avval Roziyaga, so‘ng Maksimichga qarab olib mag‘rur yuz bilan o‘rnidan turdi va oldiga o‘tib ketdi. Bu uning joy bo‘shatgani edi. Roziya Maksimichni o‘tirishga taklif qildi.

— Yo‘q, yo‘q, siz meni jentlmenlik yoshidan o‘tgan deb o‘ylamang. Qani, o‘zingiz o‘tiring, Roziya, o‘tiring!

O‘rindiq juda zskirib, yumshoq bo‘lib qolgan ekan, Roziya ancha cho‘kib o‘tirdi. Modaga moslab kaltaroq qilingan etaklari orkaga ketib, tizzasi ochilib qoldi. Shunda u sekin sumkasini tizzalari ustiga yotqizib qo‘ydi.

Maksimich, bir qo‘lida pidjak, ikkinchi qo‘li bilan avtobusning tutqichidan olib, baland gavdasini

Roziyaning ustiga egib, ochiq derazadan shaharga qarar va qaerda nima borligini so‘rar edi. Roziya bir qismi bitgan, bir qismi hali qurilayotgan yangi uylar, yangi ko‘chalar va maydonlar haqida gapirar ekan, «shahrimiz chindan ham juda tez yangilanyapti!» deb qo‘ydi ichida. Bundan ikki yil burun zilzila xuruj qilgan paytda devorlari yorilib, xom g‘ishtlari ko‘rinib yotgan nochor uylar endi yo‘q. Og‘ir kunlarda kamqatnovroq ko‘chalarga behisob chodirlar qurilgan edi. Hozir katta ko‘cha qayta qurilayotgani uchun avtobus o‘sha kamqatnov ko‘chalardan biriga burildi. Roziya asfaltga qoqligani va boshigacha yerga botib, qolib ketgan temir qoziqlarni ko‘rdi. Mashina g‘ildiraklari tegaverib silliqlab ketgan 6u qoziqlarni Roziya Maksimichga ko‘rsatdi:

— Zilzila paytda bu qoziqlarning atrofi chodirlarga to‘lib ketgan edi. Hu anavi to‘rt qavatlari uylar bor-ku. Yangi qurilgan. O‘sha yerlarda ham chodir ko‘p edi.

Maksimichga Rozianing gapidan ham ko‘ra o‘zi maroqli tuyulardi. Uning lablarida tabiiy bir qizillik va lola bargini eslatuvchi nafislik bor. Yuzi goh sokin bir zavqdan, goh sirli bir ehtirosdan nurlanib ketadi. Maksimich uni gapga solib qo‘yib, husniga yaxshilab qarab olgisi keldi.

— Bundan ikki yilgina oldin mana shu yerlarda dahshatli zilzila bo‘lib o‘tganini hozir tasavvur qilish qiyin. O’shanda siz ham chodirda yashaganmidingiz?

— Yo‘q, bizga chodir yetmagan. O’shanda biz...

Roziya hovlida choyshab tutib yashaganlarini aytib bermoqchi edi. Avtobusga xaloyiq yopirilib kirdi-yu, Maksimichni oldinga surib ketdi. Avtobus shahar markaziga kirib kelgan sari yo‘lovchi ko‘payar, odamlar ichkariga sig‘may eshiklarda osilib borar, haydovchi eshikni yopolmay ustma-ust signal berar edi. Birovning yelkasi, birovning oyoq-qo‘llari, birovning boshi, yana birovning poxol shlyapasi Roziya bilan Maksimichning orasiga tushib, suhbatini davom etkazgani qo‘ymadi. Ular shu ahvolda hiyobonga kelib, avtobusdan tushishdi.

2

Maksimichning qo‘lidagi pidjagi g‘ijimlangan, o‘zi terlab, bug‘riqib ketgan edi.

— Yengil mashinada yayrab kelayotgan edingiz, avtobusga tushganingizdan afsus qilayotgandirsiz, Illarion Maksimilianovich?

Roziya xamrohining ko‘nglini ko‘targisi kelib, uning nomini ataylab to‘liq aytdi. Maksimich buni sezib, minnatdorona kulimsiradi.

— Agar yolg‘iz bo‘lsam, afsus qilishim mumkin edi, Roziya.

— Mashinadagi xamrohlaringiz yaxshi odamlar edi.

— To‘g‘ri, ular juda xam mehmondo‘st kishilar ekan. Bir daqiqa e’tiborsiz qoldirishmaydi. Nima istasangiz, muhayyo qilishadi. Mening bugungi istagim mezbonlarning ixtiyoridan chiqib, o‘z erkimcha shahar kezish edi. Hozir shu istagim ham amalga oshyapti.

Hiyobon atroflarida hali qurilish bormoqda edi. Samosvallar goh shag‘al, goh tuproq, goh qum ortib o‘tar, issiqda erigan asfalt hidiga chang-to‘zon aralashib, nafas olishni og‘irlashtirardi.

— Erkingiz o‘zingizda bo‘lgani, albatta, yaxshi, — dedi Roziya. — Ammo hozir avtobusdagiday azob tortmasmikansiz?

— Sizday hamrohim bo‘lsa, menga hech qanday azob pisand emas!

Roziya bu gapni hazilga burib lablari bilan kuldi-yu, ammo ko‘zlarida jiddiy bir tashvish ifodasi ko‘rindi. Aftidan, mehmon u bilan hali yana birga sayr qilishni istaydi. Ammo hozir Roziya uyga ketmoqchi. Bugun kechqurun uni ko‘pdan hayajonlantirib yurgan uchrashuv bo‘lishi kerak. Ungacha Roziya birpas dam olmoqchi, so‘ng yuvinib, kiyimlarini almashtirib chiqmoqchi. U Sattorni bundan bir hafta oldin ko‘rgan, ammo bir oy ko‘rmaganday sog‘ingan. Bugun kechqurun, yana bir necha soatdan keyin uni ko‘rishini o‘ylasa, ko‘nglida bor chigallarini uning qo‘li bilan yechib, bir umrga baxtiyor bo‘lishi mumkinligini go‘yo oldindan his qiladi-yu, yuzi sirli va olovli tuyg‘ulardan yashnab ketadi.

Shunday paytda Roziya Maksimichga behad chiroyli ko‘rinadi.

«Suluv suluv emas, suygan suluv» deganlariday, muhabbat Roziyaning qalbidagi hamma go‘zal tuyg‘ularini uyg‘otib yuborgan edi. Uyg‘ongan tuyg‘ular uning husnini alohida bir qizlik joziba chulg‘ab, shunday sehrli kilib ko‘rsatar ediki, uni ko‘rgan har qanday erkak kishi beixtiyor yana ko‘rgisi kelar edi. Maksimich hali buning sababini bilmasa ham Roziyaning latif yuzida, ehtirosli nigohida, har bir harakatida kishini o‘ziga tortuvchi alohida bir sehr borligini boyaga chorborg‘da birinchi marta his qilgan va bexosdan unga kiziqib kolgan edi. Roziya unga odam zotining orasida kam uchraydigan bir tabiat mo‘jizasiga o‘xshab ko‘rinar, Maksimich uni yaqinrokdan bilgisi kelar edi.

— Toshkent men kutgandan ham issiq ekan. Yuring, Roziya, bittadan suv ichaylik yoki siz morojenoe yeysizmi?

Roziya suv do‘koni yaqinroq ekanini ko‘rib:

— Yo‘q, mayli, suv, — dedi.

Maksimich ikki shisha suv olib kelguncha, Roziya yumaloq marmar stolchaning yoniga borib turdi. «Qiziq bo‘ldi-ku! — derdi u o‘zicha. — Nahotki, bu odam ishqibozlik qilmoqchi?»

Roziya chorborg‘dagi kengashda Maksimichga hamma alohida ehtirom bilan muomala kilganini eslab, bu taxminiga ishongisi kelmadi. Moskvalik mutaxassislar Toshkentda metropoliten qurilishiga oid murakkab muammolarni o‘rganishga kelishgan edi. Hali metro qurish haqida hukumat qarori chiqqan emas, hozir shunga tayyorgarlik borar edi. Moskvalik katta mutaxassislar — Maksimich ularning orasida eng nufuzlilaridan ekanini Roziya allaqachon payqagan edi — bular masalaning hal bo‘lish-bo‘lmasligiga katta ta’sir ko‘rsatishlari mumkin edi. Davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan bu katta ish qaerda-yu, o‘zidan ikki barobar yosh qizga ishqibozlik qilish qayoqda? Bu ikki narsa Roziyaning hayolida bir-biriga mutlaqo to‘g‘ri kelmas edi.

Maksimich stakanlarga suv quyayotib:

— Nimalarni o‘ylayapsiz, Roziya, bilsak mumkinmi? — dedi. Bu savol ko‘pdan beri tanish yoki qadrdon bir qizga qaratilganday nafis va sho‘x ohangda berilgani ham g‘alati edi.

— Mumkin, — Roziya sal qoshini chimirib, gapni ataylab ish mavzuiga burdi. — Metroni o‘ylayapman.

Uning gap ohangida «metroni o‘ylab siz bilan boshlashib yuribman-da!» degan bir ma’no bor edi. Maksimich buni tushunib, o‘zini Roziyaga bunchalik yaqin olishi o‘rinsizroq ekanini sezdi va ovoziga rasmiy ohang berib so‘radi:

— Chorbog‘da bergen axborotingizga qaraganda, siz ham Toshkent metrosi uchun jon kuydirib yurganga o‘xshaysiz?

— Bu rost. Lekin bundan qati nazar bizning axborotimiz...

— ...Yaxshi tuzilgan, Roziya, axborotingiz menga yoqdi. Toshkent tuprog‘i nam tegsa o‘tiradigan tuproq ekan. Siz chizib ko‘rsatgan yer osti suvlari... Ana shu suvlarning namiga to‘yib shibalangan qatlam bizni juda kiziqtiradi. Qachondir bir vaqt Toshkentda metro qurilsa, po‘lat izlar o‘scha qatlamning eng yuqori chizig‘i bo‘ylab o‘tishi kerak.

— Qachondir bir vaqt? Sizningcha, yaqin yillarda metro qurilishi boshlanmaydimi?

— Bilmadim. Qaror qabul qilinishidan oldin hamma jihatni yana bir yaxshilab tekshirilsa kerak.

Bu gaplar davomida ular kurantning tagiga borib qolishdi. Maksimich uch tomondan kelgan katta ko‘chaga tikilib qaradi. Kovlangan yoki buzilgan joylar ko‘p edi, behisob mashinalar o‘nkir-cho‘nqirlar oldida sekinlab va silkinib o‘tishardi.

Roziya uyga borish niyatini keyinga surib, Maksimichning metro hakidagi fikrini bilishga qiziqib qoldi.

— Men Toshkentni hali bilmayman, Roziya, — dedi Maksimich. — Lekin Moskvadan kelgan odamning ko‘ziga bir narsa juda tez tashlanadi. Har jihatdan sozlangan mukammal ko‘cha kam. Qarang, transport tez yurolmaydi, demak, yo‘lovchilarni tez tashiyolmaydi.

— Bu ham zilzilaning kasofati. Hamma joyda kuriish ketyapti. Qurilish bitmaguncha ko‘chalarni uzil-kesil sozlab bo‘lmas ekan. Bultur ahvol bundan besh badtar edi. Bu yil sal durust. Men

ishonamanki, endigi yil ko‘chalarimiz hoziridan yaxshiroq bo‘ladi. Bir-ikki yil o‘tkazib kelsangiz, Toshkentni tanimay qolasiz.

— Men ham bilaman, Toshkent juda tez qayta qurilyapti. Lekin, yer ostida metro qurishdan oddin yer ustidagi ko‘chalarni qurib, bitirib, har jihatdan sozlab olish kerak emasmi? Qani, siz ayting-chi, shahar transportidagi kiyinchilikni shu yo‘l bilan yo‘qotib bo‘lmay-dimi?

— Bu savolningizga Toshkentni mendan yaxshiroq biladigan boshliqlarimiz javob berishgandir?

— Albatta! Lekin men sizning fikringizni bilmoqchiman.

— Men nima, oddiy bir odam bo‘lsam.

— Bizda har bir oddiy odam davlat miqyosida fikrlashi kerak-ku, Roziya?

— Menga qolsa, ko‘chalarni ham tezroq sozlar edim, metroni ham to‘xtovsiz quraverar edim.

— Yo‘q, Roziya, siz avval muammoni tushuning. Gap shundaki, ko‘chalar chinakam sozlanib, transportning tezligi oshirilsa, ehtimol, metroning ham hojati bo‘lmas?

— Men bunga ishonmayman, Illarion Maksimilianovich.

— Nega endi? — Maksimich Roziyaning yuziga tikilib qaradi. Unga yana Roziyaning gapidan ko‘ra o‘zi maroqliroq tuyula boshladi.

Roziya kimdandir eshitgan dalilini yaxshiroq eslash uchun bir lahza to‘xtab oldi, so‘ng Alpomish, Go‘ro‘g‘li to‘g‘risida gapirib ketdi:

— Bular shunday ulkan pahlavonlar bo‘lganki, ularni jo‘n otlar ko‘tarib yurolmagan. Ularga faqat Boychibor, G’irot degan zo‘r tulporlarning kuchi yetgan.

— Tushundim. Demak, Toshkent hozir o‘shalarga o‘xshagan pahlavonga aylangan, uni endi faqat metro degan tulpor ko‘tarib yura oladi.

Roziya alohida bir jiddiyat bilan boshlangan gapni Maksimich birdan hazilga burgani ikki orada bahs chiqishiga sabab bo‘ldi.

— Kievda metro qurilganiga nima deysiz? — so‘radi Roziya. — Tbilisida ham qurilgan. Bokuda ham!

— Chunki bu shaharlarning taraqqiyoti shunga olib kelgan.

Maksimich zamonaviy shahar qurilishi Kiev va Tbilisilarda ancha oldin boshlanganini, juda sifatlari olib borilganini gapirar ekan, ular katta ko‘chani kesib o‘tib, narigi yo‘lkaga chiqdilar. Shu payt uzun ko‘k trolleybus tuyulishdan sekin burila boshladi. Birdan uning tepasidagi beso‘naqay po‘lat yoylari simidan chiqib ketdi, bir-biriga urilib, ko‘kish o‘t chaqnatdi-da, sapchib borib, terak shoxiga tegdi va yashil butqlardan bir qanchasini sindirib tushirdi.

— Ko‘rdingizmi? — dedi Maksimich Roziyaga. — Bu ko‘chaning tuyulishi bunday zamonaviy trolleybusga torlik qilyapti.

Boshka vaqt bo‘lsa Roziyaning o‘zi ham huda-behuda kovlab tashlangan ko‘chalardan, transport qiyinchiliklari-yu, buning sababchilaridan fig‘oni chiqib gapirgan bo‘lar edi. Ammo hozir Maksimich boshlagan bahs ta’sirida buning aksini qildi:

— Eni yuz metrlik ko‘chalarimiz ham ko‘payyapti, Illarion Maksimilianovich. Hozir iloji bo‘lsa sizni Do‘slik, Yangi O‘zbekiston ko‘chalariga olib borar edim. Lekin hozir u ko‘chalar bitgan emas, tramvay borolmaydi. Nima qilaylik? Zilzila shunday bir ofat ekanki, oqibatlari bir-ikki kunda tugamas ekan!

Maksimich Roziyaga tikilib turib kului:

— Siz shahar rahbarlari bilan til biriktirib olganga o‘xshaysiz.

— Ammo siz, — dedi Roziya ham kulimsirab, — bizdagi ba’zi bir «metro kerak emas» deb yurganlarning ta’siriga tushib qolganga o‘xshaysiz. Men eshitganman, toshkentliklar orasida ham shunday odamlar bor.

— Ko‘rmayapsizmi, men hech kimning ta’siriga tushmayin deb oddiy bir yo‘lovchi bo‘lib yuribman-ku.

Maksimichning shahar kezishdan maqsadi nima ekanligini Roziya endi tushunganday bo‘ldi.

Aftidan, boyan mashinada yurgan mezbonlar Maksimichning ko'nglini olishga haddan ortiq ko'p harakat qilganlar, bu uni sergaklantirib ko'ygan. U o'z oldida turgan mas'ul topshiriqni vijdonan bajarish uchun Toshkentni «ichdan» mustaqil ko'rgisi, uning transport muammosini astoydil his qilgisi kelgan. Roziya shuni o'ylab, atrofiga ko'z tashlab qo'ydi.

Ko'chalarda, bekatlarda daqqaq sayin odam ko'paymoqda edi.

— Ishdan keyingi dolzarb soatlar boshlanyapti, — dedi Roziya tiqilinchdan yuragi zirillab.

— Dolzarb soatlarda har qanday katta shaharda ham tiqilinch bo'ladi.

— Siz bizdagi tiqilinchni hali bilmaysiz.

— Bilish uchun nima qilish kerak?

Maksimich bu savolni «Qani, boshlang, ko'raylik!» degan ma'noda berdi. Roziya chapga o'girilib, kurant minorasidagi soatga qarab oldi. Sattorni ko'radigan vaqt ancha yaqin kelib qolgan edi. Buni his qilib, yuragi yoqimli bir orziqdi, «qaytaga, bu odam bilan bahslashib, vaqt tez o'tganini sezmabman» dedi ichida.

— Mayli, Illarion Maksimilianovich, — dedi u. — Men mehmondo'stlik burchimni oxiriga yetkazay. Agar siz tiqilinchrok marshrutni ko'rmoqchi bo'lsangiz, yuring, Chilonzorga ketdik!

— Juda soz!

Maksimichning zangori ko'zlaridagi tantanali shodlik unish Roziya bilan birga yurishni astoydil istaganidan dalolat berardi. Roziya buni ko'rdi-yu, ichida «tav-ba!» deb hayratlanib qo'ydi.

3

Muyulishda to'xtab qolgan trolleybusning oldingi eshigi ochiq turar, shim kiygan haydovchi kiz og'ir yoylarni arqonidan olib, tepadagi simga ulashga tirishar zdi. Trolleybuslarning ichi issiq va dim bo'lgani uchun eshik oldida siqilib turgan yo'lovchilardan uch-to'rttasi ko'cha sahniga tushdi. Roziya Maksimichga karab «paytdan foydalanib qolish kerak!» deganday imo qildi va trolleybusning ochiq turgan old eshigidan «lip» etib kirib ketdi. Maksimich hu naridagi bekatda yuzga yaqin odam to'planib turganini ko'rdi-yu, Roziyaning oson yo'l topganini tushunib, darhol uning ketidan ko'tarildi.

Ko'cha sahniga tushib o'zlarini yelpib turgan haligi yo'lovchilar bo'sh joy qo'ldan ketib qolishi mumkinligini sezishib, shosha-pisha trolleybusga qaytib kirishdi. Uzoqdagi bekatdan besh-o'nta yosh-yalanglar bu tomonga chopib kelmoqda edi.

Haydovchi qiz ishini bitirguncha ular ham ichkariga kirib, eshik oldi odamga to'lib ketdi. Haydovchi qiz kabinasiga zo'rg'a o'tdi.

Roziya ichkariroqqa surilaman deb novcha odamlarning orasiga tushib qoldi. Tig'iz boshlar orasida uning guldor durrali baland pricheskasi sal-pal ko'rinaridi. Maksimich uzun qo'llarini tepaga cho'zib, trolleybusning shiftiga panjasini tiradi. Trolleybus kuchanib, titrab qo'zg'aldi. Roziya boshlar va yelkalar orasidan Maksimichga qarab dedi:

— Har qalay, ishimiz o'ngidan keldi!

— Boshlanishi durust, — dedi Maksimich ham. U oldingi bekatlarda tirband turgan xaloyiqni o'ylardi. hozir ular ham bostirib kiradi-yu, nafas olish yana ham og'irlashadi.

Ammo trolleybus narigi bekatda xiyol sekinlab, to'xtamay o'tib ketdi — haydovchi qiz grafikka tushib olish uchun shoshilmoqda edi. Maksimich trolleybusning to'xtamay o'tganidan beixtiyor shodlanib, Roziyaga «Hayriyat!» deganday qilib qaradi. Roziya esa bekatda intizor turgan, trolleybus to'xtamay o'tganidan achchig'i kelayottani, uni nariroqda to'xtaydi deb o'ylab, ketidan zrgashib chopayotgan odamlarga ko'z yugurtirdi.

Trolleybus narigi bekatda bir lahzagina to'xtadi-yu, yana shitob bilan ko'zg'aldi. Uning sur'ati yo'l azobidan tezroq qutulishga intilayotgan yo'lovchilarga juda yoqib tushmoqda edi.

Temir yo'l boshqarmasidan beridagi chorrahadan o'ta boshslashdi. Uch tomondan kelib, bir-biri bilan chatishib ketgan tramvay izlarining «milki» ochilib o'nqir-cho'nqirlar ko'payib ketgan edi.

Trolleybus g‘ildiraklari goh izlarga urilib, goh chuqurliklardan sapchib o‘tar ekan, Maksimich «hozir yana yoyi chiqib ketadi!» deb o‘yladi.

Lekin yoyi chiqmadi-yu, undan badtari bo‘ldi. Qattiq silkinayotgan zo‘r trolleybusning zarbi bilan tepadagi simning tramvay simiga ulangan joyi uzilib ketdi. Yo‘g‘on jez simning uzilgan uchi orqadan kelayotgan yuk mashinasining yog‘och bortiga shartillab urildi-da, gajak bo‘lib asfaltta tushdi. Ichidan kuchli tok keladigan bu sim odamlarga ilonday xatarli ko‘tarinar edi — mashinalar va yo‘lovchilar uni iloji boricha uzoqdan aylanib o‘ta boshladilar.

Uzun trolleybus chorrahaning qoq o‘rtasida tramvay izlariga ko‘ndalang bo‘lganicha qoldi. Endi avariya mashinasi kelib simni ulamaguncha bu yerdan na trolleybus o‘tadi, na tramvay.

Pastga tushganlarida Maksimich Roziyaga hazilomuz ko‘z tashlab:

— Xo‘s, gap miqdorda ekanmi, sifatda? — dedi. U chorrahaning «sifati»ni, tepadagi simning puxta ulanmaganini, haydovchi qiz ham shoshilganini nazarda tutmoqda edi. Roziya buni tushunib turgan bo‘lsa ham, ataylab yengilroq gapga o‘tdi:

— Ko‘z tegdi. Aksiga oldi. Endi bir oz piyoda yuramiz.

Serchang, sershovqin ko‘chalarda odamlar daryoday oqib borar edi. Ular shu daryoga sho‘ng‘ib ketishdi-yu, bir vaqt Markaziy univermagning naryog‘idagi bekatdan chiqishdi. Bu yerda xaloyiq boyagidan bir necha barobar qalin.

Ko‘pchilik Chilonzorga intiladi. Avtobuslar liq to‘la, ayniqla eshiklarning oldida odam shu qadar ko‘pki, o‘ng tomoni yerga tekkuday mayishib, changli g‘ildiraklari tutab keladi. Avtobuslarning ko‘pchiligi yo to‘xtamay o‘tadi, yoki bekatdan uzoqda tushuvchilar uchun bir zum to‘xtab, yana jo‘nab qoladi.

Bu axvolga o‘rganib qolgan Roziya yana chaqqonlik kildi... Nariroqda to‘xtagan bir avtobusga sakrab chiqib oldi. Ammo Maksimich yetib borolmadi. Uning qolib kettanini ko‘rib, Roziya qaytib tushdi.

Kechki harorat benzin va asfalt hidiga qo‘silib, Maksimichni endi juda bezovta qila boshladi. Boya ular trolleybusda kelayotganlarida odamlar trolleybusga qanday ergashib chopgan bo‘lsalar, Roziya bilan Maksimich ham har bitta avtobusga ergashishar, to‘xtamay ketgan avtobuslardan cheksiz norozi bo‘lib qaytishar edi. Tiqilinchda bo‘lsa ham, har qalay, avtobusda ketayotganlar, Maksimichning havasini, hatto hasadini keltirayotgani zndi uning o‘ziga g‘alati tuyuldi. «Avtobus bizni olmay, to‘xtamay o‘tib ketayotgani, ehtimol, ichkaridagilarning ko‘pini xursand qilayotgandir? — o‘yladi u. — To‘g‘ri-da, biz chiqsak, ularga joy oz qoladi, noqulaylik ko‘payadi. Boya men o‘zim ham trolleybusda ketayotib xuddi shuni his qilmaganmidim? To‘xtamay o‘tganimizdan suyunmaganmidim? Buncha odam yerning tagidan qaynab chiqayotiptimi deyman?».

— Kiziq! — dedi u Roziyaga qarab — Yo‘lovchi ko‘paygan sari odam odamga xalaqit beradigan bir to‘singga o‘xshab ko‘rinadi-ya!

— Kim biladi! — deb Roziya aniq javob bermadi. Har holda uning betoqat bo‘layotgani bilinmas edi. «O‘rganib qolgan, bundan tashqari hali yosh-da, — o‘ylandi Maksimich. — Yoshlikda odam uncha-muncha noqulaylikni pisand qilmaydi».

— Roziya, siz boyaga shahringizda aholi ko‘pligini ta’kidlab, «uch yilda muncha oshdi» degan edingizmi? Biroq odamlarning katta shaharlarga bu qadar ko‘p to‘pla-nishib yashashi yaxshimikan? Xususan, Toshkentga o‘xshagan issiq iqlimli shaharda...

Roziya qandaydir jiddiy va ma'yus bir ohang bilan:

— Bu hammasi bizga bog‘liq emas-da, nima qilaylik, — dedi.

— Yo‘q, ayting-chi, nahotki bu masala hech o‘ylantirmaydi?

— Meni o‘ylantirganda ham... — deb Roziya bir zum to‘xtab oldi-da, gapni avvalgi mavzuga burdi: — Siz... umuman miqdorga unchalik ahamiyat bermagan edingiz-ku? Siz uchun sifat muhimroq emasmidi?

Maksimichning boyagi dalilini Roziya uning o‘ziga qarshi nozik yo‘l bilan ishlatgani allanechuk

zavqli tuyuldi. Maksimich kului-da, yo‘lga qaradi:

— E, qarang, ana u avtobus bo‘shroqqa o‘xshaydi!

— Chopdik! Endi siz oddin chiqing, jentlmenlikni qo‘ying, bo‘lmasa yana qolib ketasiz! Chiqing!

Nihoyat, avtobusga ham minishdi. Gavdalar bir-biriga iloji boricha tiralib, endi hech kancha bo‘sh joy qolmadi, deb turganlarida ikki-uchta baquvvat yigitlar chiqishdi, eshikning tutqichidan olib: «Qani surilinglar, o‘rta bo‘sh, o‘tinglar!» deb, odamlarni itara-itara, hammani bir-biriga rosa qalishtirib tashlashdi. Roziya yupqagina shohi ko‘ylagi orqali atrofidagi odamlarshshg terlagen, kizishgan tanalarini his qilar, faqat ko‘ksini himoya qilishga tirishib ikki ko‘lini sumkasi bilan birga ko‘kragiga qo‘yib turar edi. Narigi bekatga yaqinlashganlarida bilet sotiladigan temir quti oldidagi ikkita odam eshikka qarab intildi, Maksimichning pidjagi ularning orasiga tushib qisilib qoldi va haligilar bilan birga keta boshladi.

— O‘rtoqlar, pidjakni tashlab ketinglar! — kulib dedi Maksimich.

— Yoz kunida pidjak! — o‘shqirdi og‘zidan aroq hidi kelayotgan sariq bir kishi. — Bu qanaqa oliftalik!

Maksimich pidjagini torta-torta bir amallab olib qoldi. Bu orada Roziya bilet qutisining oldidagi joyga o‘tib olgan edi. Endi uni orqadan deraza, bir yonidan temir quti himoya qila boshladi. U bo‘shashgan qo‘li bi-lan sumkasini ochib tanga oldi.

— Shoshmang, men to‘layman! — deb Maksimich cho‘nta-gini kovlayottan edi, avtobusga bir talay odam chiqdi-yu, uni Roziyaga tomon surib keddi. Roziya bir qo‘lini sumkasini bilan ko‘ksiga qalqon qildi-da, ikkinchi qo‘li bilan biletga pul tashladi.

— Mehmonsiz, Illarion Maksimilianovich, Moskvaga borganda siz to‘larsiz.

Maksimich tepadagi tutqichdan malham ushlab, gavdasini Roziyadan uzoqroq tutishga tirishar edi. Shu payt avtobus katta bir chuqurga tushib qattiq silkindi-yu Maksimichning yuzi Roziyaning baland prichyoskasiga tegib ketdi. Mayin qora sochdanmi yoki unga bog‘langan durradanmi, yoqimli bir atirning hidi keddi. Bu hid Maksimichga birdan olovli yoshlik yillarini eslatdi.

Avtobus to Chilonzorga yetib borguncha necha qayta itar-itar, sur-surlar bo‘ldi. Necha joyda odamlar asabiylashib, bir-birlari bilan g‘ijillashib olishdi — bu endi Maksimichga unchalik ta’sir qilmas edi. U Roziyaning yaqinginada turganini his qilar, bu yaqinlik unga yoshligini qaytarib berayotganday bo‘lar edi.

Roziya bir necha marta ko‘cha soatlariga qarab-qarab qo‘ydi. Vaqt o‘tgan sari u atrofdagi narsalarni unutib, parishonxotir bo‘lib borar edi. Goho Maksimich bilan gaplashib turan paytda ham, hayoli boshqa yoqqa ketib qolayotgani sezilar edi. U shahar haqida gapiradi, savollarga javob beradi, ammo buning hammasini qalbining bir cheti bilan qiladi. Qalbining tubidagi muhabbat tuyg‘usi, yaqinlashayoggan visol hissi tobora kuchliroq, tobora go‘zalroq sado beradi. Roziya shu sadoga quloq solayotganday to‘satdan jim bo‘lib qoldi, tinqilinchni, changni, havoning dimligini mutlaqo sezmaydi.

Chilonzorga yetib avtobusdan tushganlarida Maksimich unga:

— Rosa hayolga cho‘mib ketdingiz-a? — dedi.

— Ha, — deb Roziya iymanib kulimsiradi-da, hushini yig‘ib oldi: — Xo‘sh, Illarion Maksimilianovich, fikringiz qalay?

Maksimich biri birini to‘sgan ko‘p qavatli uylarga, kinoteatr peshtoqida to‘pponcha o‘qtalib turgan yigitning kattakon rangdor suratiga, ichi - tashi odamga to‘lgan oynavand magazinga ko‘z yogurtirdi. So‘ng negadir qo‘lidagi pidjagiga qaradi. Pidjak kela-kelguncha g‘ijimlanib lattaga aylanib qolgan, ter va chang tegaverib bir-ikki soat ichida butunlay eskirib kettanga o‘xshar edi. Maksimich boshini ko‘tarib Roziyaga ko‘z tashladi va unga yoqadigan gap aytgisi keldi.

— Haqiqatan... og‘ir marshrut ekan.

— Aytmadimmi! Agar metro bo‘lsa, shu yo‘lni o‘n barobar tez, o‘n barobar oson bosib o‘tarmidik, yo‘qmi?

— Ehtimol, shundaydir. Ammo siz bir narsani unutmang, Roziya. Toshkentda metro bo‘lish-

bo‘lmasligini menga o‘xshagan bitta-ikkita odam hal qilolmaydi.

— To‘g‘ri-yu lekin men ishning sizga bog‘lik qismini aytmoqchiman-da.

Maksimich Roziya bilan ish to‘g‘rida gapirishga eqdi uncha hushi yo‘qday ko‘rindi.

— Menga bog‘liq qismi bo‘yicha hozir, albatta, ma’lum bir tasavvur hosil bo‘ldi, — dedi u loqayd tovush bilan. Roziya esa, aksincha, sho‘x tovush bilan gapirdi:

— Tasavvuringiz to‘liqroq bo‘lishi uchun yettinchi tramvayga yoki o‘ttiz sakkizinchи avtobusga tushib, Studentlar shaharchasiga ham borish kerak edi-ya!

Maksimich kulib qo‘llarini ko‘tardi:

— Men taslim bo‘ldim, Roziya. Agar vaqtingiz bo‘lsa, endi biror joyda dam olaylik.

Roziya tez soatiga qaradi, Sattor tayinlagan vaqt yaqinlashib qolganini ko‘rib, yuragi «shig» etib ketdi. Uning yuzi birdan o‘zgarganini ko‘rib, Maksimich shoshib so‘radi:

— Biror joyga bormoqchimidingiz? Kech qolyapsizmi?

— O’n besh minut bor. Ulguraman.

Roziyaning yuzida yana o‘sha o‘tli joziba barq urib ko‘rindi. Maksimich undagi boyagi o‘ychanlik va hozirgi o‘zgarishning sababini bilmoqchi bo‘lib:

— Nima, visol bormidi? — dedi.

Roziya yuzini cho‘g‘day qizdirgan ehtirosning taftini o‘zi ham sezdi-yu, uyalib yerga qaradi:

— Ha.

Maksimich tarvuzi qo‘ltig‘idan tushganday bir lahza xomush turib qoldi. Roziya unga mayin bir nigoh tashlab:

— Kechirasiz, endi, — dedi. — Bormasam bo‘lmaydi. Roziya bilan birga o‘tkazgan damlar Maksimichga endi butunlay boshqacha ko‘rinib ketdi. «Bu qiz nega muncha yoqimtoy desam, hammasi sevgining jozibasi ekan-da. Sevgan yigit uyg‘otgan go‘zallik meni o‘ziga tortgan bo‘lsa, men boshqa odam uchun yoqilgan gulxanda isinmoqchi bo‘ldimmi?».

— Ah! Siz meni kechiring, Roziya! — dedi Maksimich va Roziyaning tifilinchda ezg‘ilangan kiyimiga qaradi. Qizlar visolga maxsus kiyinib, bezanib borishi ko‘nglidan o‘tdi. Roziya mehmonning ko‘ngliga qarab, buning hammasidan mahrum bo‘lgani Maksimichni qattiq hijolatga soldi.

— Oddinroq aytsangiz bo‘lmasmidi, Roziya? Men tushunar edim-ku!

Roziya «Kerak bo‘lganda aytdim!» — deganday jilmayib turardi.

— O’n besh minut qolgan bo‘lsa, avtobusda ulgurolmassiz. Uzoqmi? Men hozir taksi topaman!

Chilonzorda kechki paytlarda markazga bo‘s sh qaytadigan taksilar uchrab turadi. Maksimich shulardan birini to‘xtatib, Roziyani chiqardi. So‘ng o‘zi ham minib:

— Sizni tashlab o‘tib ketaman! — dedi. Shundan keyin Maksimichdagi xijolatlik sal tarqadi. U o‘rindiqning narigi chetida yuzini shabadaga tutib borayotgan Roziyaga ko‘z qirini tashladi. «Yoshlik ajoyib-da! — deb qo‘ydi Maksimich o‘zicha. — Har qanday holatda odamning ohori to‘kilmaydi. Bu qiz hozir maxsus yasanib chiqishi shart emas, busiz ham visolga munosib nafaosati-yu, tarovati bor».

— Kim u baxtiyor yigit, Roziya, bilsak mumkinmi?

— U ham loyihachi muhandis.

— Loyihachi? Bizga hamkasb emasmi?

— Yer osti kommunikatsiyalari bo‘yicha ishlaydi. Metroni loyihalashga juda ishqiboz.

— O, shunaqami?

— Metroning dardi menga o‘sha kishidan yuqqan.

— Ana, xolos! Maslakdosh ekansizlar-da! Siz boyaga men bilan bahslashganingizda u yigit ham yoningizda turgan ekan-da!

— Bo‘lmasam-chi! — dedi Roziya sho‘x kulib, boyagi noqulayliklarga ham Roziya o‘sha yigit tufayli chidab yurganini Maksimich endi payqadi. «Ajabo! — o‘ylandi u. — Meni ham biror qiz shunday sevganmidi? Sevgan bo‘lsa ham yoshliqdagi muhabbat odamni bunchalik go‘zal ko‘rsatishini men endi bilyapman. Hayot g‘alati, yoshlikning qadrini yoshi anchaga borgan odamlargina biladi».

Shu payt ko'ksi allanechuk tortishib og'riyotganini sezdi-yu, hayoli boshqa yoqqa burildi.

«Yurak hunar ko'rsatmasa edi. Issiqda ko'p yurdim-da, o'rganmaganlikdan! — deb o'ziga tasalli berdi. — Borib dam olsam o'tib ketar».

Taksi Beshyog'och orqali o'tib, anhor bo'yiga kelganda Roziya uni to'xtatdi. Ko'priordan beriroqda yo'lga qarab turgan yolg'iz yigit mashinadan tushayotgan Roziyani ko'rdi-yu, quvonib unga qarab kela boshladi. Roziyaning yuzi ajib bir zavqdan nurlanib ketdi. Ko'zlarini hayajondan uchqunlandi. Shunday bo'lsa ham, u Maksimichning Sattorga qiziqib tikilayotganini sezib:

— Istanqiz tanishtirib qo'yaman, — dedi.

— Istayman! — deb Maksimich xam mashinadan tushdi. Taksichiga «ketmay turing!» ishorasini qildi-da, Roziya bilan birga Sattorga qarab yurdi.

Sattor yaqin kelganda Maksimich u bilan Roziyaning orasida qandaydir sirli bir munosiblik borligini, ikkovining yulduzi yulduziga chindan xam to'g'ri kelishini sezdi. Sattorning qaddi-qomatida, yuz-ko'zida barkamol yigitlarga xos alohida bir joziba bor edi. Uning qo'l berishidan, bosiq kulimsirashidan, goh Roziyaga, goh mehmonga yuzlanib gapireshi va gapga qulq solishidan yaxshi tarbiya ko'rgan ziyoli yigit ekani ham bilinib turardi. Maksimich unga tan bergenini aytgisi keldi.

— Agar men sizni Parijda uchratsam, manaman degan frantsuz yigitlaridan farq qilolmas edim!

Sattor gapni hazilga burib kului:

— Maqtovingiz uchun rahmat. Biroq Parij bizga juda uzoq. Biz hozir mana shu Toshkentda munosib bo'lish harakatidamiz.

Maksimich ham kulib, Roziyaga ma'noli ko'z tashlab oldi.

— Ha, Toshkentga oid harakatlaringizdan xabardormiz.

Sattor Roziyaga savol nazari bilan qaradi. Shunda Roziya Maksimichning Toshkentga nima ish bilan kelganini, hozir nima maqsadda shahar aylanganlarini goh jiddiy turib, goh kulib hikoya qila boshladi.

Bu orada taksi sabrsizlanib bir-ikki marta dudutladi.

— Mashinaga javob beraylik, biz bilan birga dam oling, — dedi Sattor Maksimichga. Ammo u ham, Roziya ham, bu Anhor bo'yiga faqat bir-birlarini deb kelganliklari, ikkovining faqat bir-biriga atalgan rozlari borligi shundoqqina bilinib turardi.

— Jonim bilan edi-yu, — deb, Maksimich chap ko'kragini ushlab qo'ydi: — Lekin yurak sanchyapti. Bugun ko'p yurdim. Yosh ham anchaga borib qolgan-da. Endi borib yotib dam olishim kerak. Roziya, men sizdan juda minnatdorman. Mana, bizning adres, agar Moskvaga yo'llaringiz tushsa, marhamat!

Maksimich cho'ntagidan bir tomoniga ruscha, ikkinchi tomoniga inglizcha yozilgan vizit kartochkasini oldi. U chet ellarga ham borib ishlagan, Moskvada ham chet elliklarni ko'p qabul qiladigan mutaxassislardan edi. Vizit kartochkasi ajnabiylarga mo'ljalab bostirilgan bo'lsa-da, Maksimich uni qulayligi uchun o'z odamlarimiz orasida ham ishlata eddi. U kartochkasini Roziyaga uzatmoqchi bo'lganda bir narsani sezib qoldi: Roziya astoydil xursand bo'lishi uchun buni yigitga berishi kerak edi.

— Marhamat, kollega, — deb Maksimich kartochkani Sattorga berdi. — Ikkovlaringiz uchun mening eshigim hamisha ochiq.

Maksimich xayrashib, taksiga chiqdi.

Oqshom g'ira-shirasida Sattor bilan Roziya anhor qirg'og'i bo'ylab yuqoriga qarab o'tishdi. O'ngdan suv salqini ufurib turardi. Chapdag'i stadiondan o'n minglab tomoshabinning afsonaviy alplarday na'ra tortishi, goho yaxlit bir ovoz bilan «u-o'-o-a-ah!» deb, oh urishi eshitilardi.

Suv bo'yida sayr qilib yurgan odamlar behisob. Ammo Sattor bilan Roziya uchun olamda go'yo

ikkovidan boshka hech kim yo‘q. Ko‘zlari faqat bir-birlarini ko‘radi. Qulqlariga faqat bir-birlarining gapigina kiradi. Roziya taksida notanish odam bilan boshlashib kelganda hiyla taajjublangan Sattor voqeanning tafsilotlarini eshitgach, gap nimadaligini fahmladi. Roziyaday qiz unga shu qadar mehr qo‘ysa, uning o‘zinigina emas, yaxshi ko‘rgan ishini ham shunchalik sevsasi, e’zozlasa, bundan ortiq nima bo‘lishi mumkin? Sattor Roziyaning yelkasidan quchib, hiyol egildi. Yuzini Roziyaning yuziga bosib, uni sekin silkitib qo‘ydi.

— Dunyoda qizlarning yaxshisidan yaxshiroq zot bo‘lmas ekan-da, men buni endi bilyapman, Roziya.

Roziyaning yelkasidan quchgan zalvorli qo‘l ham, uning yuziga tegingan erkakcha yuz ham xuddi gulga yoki bolaga teginganday ehtiyyotkor edi. Sattorning qandaydir dard aralash zavq bilan aytgan so‘zlarida, shirali, yo‘g‘on ovozida, soqoli yaqinda olingan marmarday yonog‘ida Roziya mardona nafislik va soflik sezdi. Sattorni astoydil quvontirolgani buning ustiga qo‘shilib, Roziyaning qalbidagi baxtiyorlik tuyg‘usini juda oshirib yubordi. Bu tuyg‘u haddan tashqari shirin edi. Roziyaning e’tiroz qilgisi keldi.

— Qizlarning yaxshisidan yaxshiroq zot yo‘q dedingizmi?

— Ha.

— Menimcha bor.

— Kim?

— Buni tan olgan yigitlar!

Roziya Sattorning zavq qilib kulishini kutgan edi. Biroq Satgor juda baland bir cho‘qqiga chiqib qolib, yiqlib ketishdan xavotirlangan odamday og‘ir entikdi-da:

— Qani endi shunday bo‘lsa! — dedi.

Shu payt qirg‘oq chiroqlari yondi. Anqorda hali ham cho‘milib yurgan odamlar bor edi. Semiz bir kishi suvni shapillatib, Sattorning oldidan qirg‘oqqa chiqdi. Sattorning hayoliga xam shunga o‘xshash kutilmagan bir narsa keldi shekilli, u darrov qo‘lini Roziyaning yelkasidan oldi.

— Yuring, tinchroq joy topaylik.

Stadion tomondan kelayotgan shovqin Roziyaga endi eshitildi. Baland machtalarga marvaridday terilgan shoda-shoda projektorlar o‘tkir nurlarini pastga sanchib turardi. Tomoshabinlar esa osmonni boshiga ko‘tarib qiyqirar, hushtak chalar edi. Bu galgi na’ra juda uzoq davom etganiga qaraganda, to‘p darvozaga kirgan edi.

Roziya Sattorga ma’noli jilmayib qaradi. U Sattorning futbolga nihoyatda ishqiboz ekanini bilar edi. Ammo Sattor yonginasida bo‘layotgan hayajonli o‘yin shovqinini hamon eshitmas, Roziyaning nozik barmoqlarini baquvvat panjasib bilan avaylab ushlaganicha qirg‘oq bo‘ylab yuqorilab borar edi.

Chiroqlar uzoqda qoldi. Tepada oy borligi bilindi. Bu yerda baland qirg‘oqning ba’zi joylari jarga aylanib qolgan. Jimjit daraxtlar orasiga qorong‘ida odam kam keladi. Roziya u yoqqa borgisi kelmay to‘xtadi. Bundan ikki oy oldin yuz bergen bir voqea esiga tushdi.

O’shanda kino ko‘rish uchun chiqqan Roziya hali seans boshlanishiga ancha vaqt borligi uchun tashqaridagi ko‘kalam maydonchada dugonasi bilan aylanib yurgan edi. Bir payt telbalanib kelayottan ikkita mast yigit to‘satdan Roziya bilan uning dugonasiga yopishdi. Qizlar ularni itarib tashlab, qochib ketishga urinishdi, Roziyaning dugonasi baland bo‘yli baquvvat qiz edi, qochib qutulishga muvaffaq bo‘ldi... Ammo Roziyaga, osilgan ho‘kiz taxlit bir yigit:

— Sen mening sevgan qizimsan-ku, nega o‘ptirmaysan! — deb uni mahkam quchoqlab oldi.

— Men seni birinchi ko‘rishim! Qo‘yvor!

— E, hali tanimaydigan bo‘ldingmi?

— Qo‘yvor! Hayvon!

Xamma yoq odam. Birpasda tomoshabin to‘plandi. Birovlar mast yigitga yo‘lashni istamaydi, birovlar «qiz ham shu yigit bilan yurgandir-da, bo‘lmasa birdan quchoqlab o‘pishga tusharmidi?» — deydi. Allakim uzoqdan turib:

— Hay yigit, qizing bo‘lsa, ko‘chada muncha xor qilma! — dedi.

Roziyani hammadan ortiq dahshatga kelgirgan narsa — odamlar uni shu maxluq bilan yurgan deb o‘layotgani edi. Buning tuhmat ekanini isbot qilib bo‘lmash edi. Roziya nuqla:

— Yolg‘on! Qo‘yvor! Qo‘yvor! — deb uning temirday qo‘lidan chiqib ketmoqchi bo‘lib talpinar, boshini orqaga tashlab, yuzini bezorining sassiq og‘zidan olib qochar edi.

Ikkita o‘rtog‘i bilan matchni ko‘rib kelayotgan Sattor ham shu mojaroning ustidan chikdi. Gulday bir qiz bu jirkanch mahluq bilan yurishi mumkin emasligini, bezorilik ustiga qabih bir tuhmat bo‘layotganini sezish uncha qiyin emas edi. Sattor ham ho‘kiz taxlit yigitga qo‘l tegizishdan hazar qilar edi-yu, ammo qizning ahvoliga qarab chidab turish mumkin bo‘lmay qoldi. Sattor ularning oldiga qanday borib qolganini o‘zi yaxshi eslolmaydi. U bezorining bilagidan ushlab:

— Oshna, qizga rahming kelsin, qo‘yvor! — dedi.

— Sen aralashma, bu mening qizim!

Futbolga ichib kirgan, o‘yin paytida yana ichib jinnisi chiqib qaytayotgan bezori hozir Roziyani chini bilan «o‘ziniki deb» o‘layotgan bo‘lishi mumkin edi. Roziya yosh to‘la ko‘zlarini Sattorga umid bilan tikib:

— Yolg‘on! Men uni umrimda ko‘rgan emasman! — dedi. Sattor endi yigitning bo‘ynidan tortdi:

— Seni futbolning jazavasi tutibdi, oshna, adashibsan. Bu boshqa qiz. Qo‘yvor.

— Toshingni ter, qanqiq! — deb bezori Sattorni tepmoqchi bo‘lib oyog‘ini siltadi.

Shunda Sattor uning biqiniga musht tushirdi. Bezorining ko‘ngli ozib, gavdasi sal bo‘shashganda, Sattor uni o‘sinq sochidan siltab tortib, Roziyadan uzib oldi.

Qiz chetlanishi bilan bezorining sherigi Sattorga hamla qildi. Mushtlashuv boshlandi.

To militsiya yetib kelguncha ho‘kiz taxlit yigit o‘zini o‘nglab, Sattorga pichoq urib qochdi. Changli asfaltta tomgan qon — Sattorning qoni! — hozir yana Roziyaning ko‘z oldiga keldi-yu, qattiq uvushdi. U qo‘lini sekin Sattorning qo‘lidan bo‘shatib oldi. Sattorning o‘ng biqinidagi chandiqni yupqa ko‘ylagi ustidan silab topdi:

— Og‘rimaydimi?

Nozik barmoqlar o‘sha pichoqning jarohatidan qolgan chandiqni o‘payotganday yoqimli tegdi.

— Yo‘q. Bitib ketgan.

Roziyaning hayolidan o‘tgan voqeа Sattorning ham esiga tushdi-yu, stadion tomondan kelayotgan shovqin qulog‘iga endi eshitildi. Roziya mast bezorilar yana uchrab qolishidan xavotirlanib to‘xtagan edi. Sattor buni sezdi. Yara izini silab topgan nafis barmoqlarni xuddi ko‘kragiga qo‘ngan ma’sum qushcha kabi avaylab kaftiga oldi.

— Bugun match kech boshlangan, — dedi, — futbol jinnilari hali-beri ko‘chaga chiqmaydi.

— Chiqqanda ham, siz yonimda yursangiz, men hech kimdan qo‘rqlayman.

Zavqli va ehtirosli tovush bilan aytilgan bu so‘zlarda alohida bir ishonch bor edi. Sattor Roziyaning qo‘lidan ushlaganicha sekin to‘xtatdi, uni bag‘riga bosgisi, erkalab o‘pgisi keldi. Ammo ko‘z ko‘zga tushganda bunga jur’at etolmay, qizni sekin oldinga boshladi.

— Mening o‘zimdan ko‘rqlaysizmi, Roziya?

Roziya Sattorning sezilar-sezilmas harakatiga ham bo‘ysunib, u qayoqqa boshlasa, izmiga so‘zsiz itoat etib ketayotganini endi sezdi. Sattor hozir istasa, Roziyani qo‘llarida chirpirak qilib ko‘tarib keta oladi. Agar Sattor o‘zini qo‘yib bersa, Roziyani olovli o‘pichlarga ko‘mib tashlay oladi, nafasini kaytarguday quchib erkalay oladi. Roziya bunga monelik qilolmasligini biladi, chunki qachondir bir vaqt shunday bo‘lishini u ham istaydi. U Sattorning sevgisidan o‘zini baxtiyor his qilgan sari ixtiyorli qo‘lidan ketayotganini payqadi, qalbida uyg‘ongan istak olovidan o‘zini olib qochishga intildi:

— Sizdan emas... o‘zimdan qo‘rqlayman!

— Nega endi?

— Bilmayman... — dedi Roziya erib yumshagan tovush bilan. — Ixtiyorim qo‘limdan ketib qolyapti.

Bu — qizning muhabbat izhori edi.

Sattorning ovozi shodlik tug‘yonidan tovlanib eshitildi.

— Agar ixtiyoringaz mening qo‘limda bo‘lsa, men uni ko‘z qorachig‘imday asrayman. Faqat... Qani edi...

Sattor so‘nggi so‘zлами dardli tovush bilan aytdi-yu, bir lahma jим turib qoldi. Roziya to‘xtab, uning yuziga intizor ko‘zlar bilan qisqa bir nazar tashladi-da, yana yerga ko‘z tikdi. U Sattorning muhabbat haqida, balki to‘y va uylanish haqida ochiqroq gapirishini kutdi. Bu juda mushkul bo‘lganligi uchun «Sattor qanday gap ochishni bilmay qiyalyapti!» deb o‘yladi. U Sattorning ovozidagi dardli ohangga javoban «dardingizni ayta qoling, davosi topiladi!» deganday kulimsirab ham qo‘ydi.

5

Biroq Sattorni ezayotgan dard Roziya o‘ylagandan butunlay boshqacha, Sattor bundan besh yil burun hali institutda o‘qib yurgan kezlarida qishloqdagi ota-onasining qistovlariga bo‘ysunib uylanib qo‘ygan. Uning yoshgina xotini, to‘rt yashar o‘g‘ilchasi bilan hali ham qishloqda yashaydi, Sattorning keksa onasiga dalda berib, qishin-yozin shahardagi zrining yo‘liga ko‘z tikadi. Sattorning Toshkentda uy-joyi yo‘q, o‘zi yotoqxonada turadi. Ishxonalaridan uy bermagunlaricha xotini bilan o‘g‘lini ko‘chirib kelishni istamaydi.

Uylangan yillari Sattor qishloqqa tez-tez borar edi. Ammo, shaharda o‘tgan so‘nggi yillar uni juda o‘zgartirib yubordimi, har qalay u hozir qishloqqa faqat og‘ir majburiyat yuzasidan oyda-yilda bir boradi. Har borganda ko‘r-ko‘rona uylanganidan ko‘ngli cho‘kib qaytadi.

Uning nazarida, bir-biridan ko‘hlik kizlar, ayniqsa, so‘ngga yillarda juda ko‘payib ketyapti. Sattor ko‘zga yaqin yigit, Toshkentda ularning ba’zilari bilan tanishib, bilishib ham ko‘rgan. Ammo haqiqiy joziba va haqiqiy mehr qanaqa bo‘lishini Sattor mana endi, Roziyaga qarab bilmoxda edi. Uni hali hech bir odam Roziyachalik e’zozlay olmagan, hech bir qiz hali uning qadr-qimmatini bunchalik baland ko‘tarmagan, unga Roziyachalik ta’sir ko‘rsata olmagan. Sattor Roziyadan juda katta bir yaxshilik ko‘rayotganday bo‘ladi, undan ajralib qolishdan qo‘rqadi. Ayni vaqtida, oilasi borligini aytmasa, igunday pok qizning muhabbatini nopolok qo‘l bilan o‘g‘irlab olayogganday bo‘ladi. Bu o‘g‘rilikning bir kun emas, bir kun fosh bo‘lish xavfi qalbiga muttasil tahlika soladi, eng shirin damlariga ham og‘u qo‘shadi. Shuning uchun Sattor bugun Roziyaga haqiqatni aytmoqchi bo‘lib kelgan. Aytganda ham, Roziyani cho‘chitadigan tarzda emas, aksincha, qizni unga hamdard qiladigan yo‘sinda aytishni istaydi. Satgor hozir mana shu istak bilan Roziyaga yuzlandi.

Oydinda Roziyaning qoshlari kumushning qorasiday hiyol tovlanib ko‘rindi. Mayin kulimsirayotgan lablar hozirgi onlardan fakat quvonch va shodlik kutadi. Roziya uning uylangan bo‘lishi mumkinligini hayoliga ham keltirmayapti! Uni o‘zi tengli bo‘ydoq yigit deb o‘ylayotgani shundoqqina bilinib turibdi. Sattor hozir aytsa gul ustiga do‘l yog‘dirganday bo‘lishini sezdi.

«Axir men ham bir vaqlar uylanmagan yigit edim-ku. Nahotki, bir soat-yarim soat o‘sha damlarga qaytib yashay olmasam? Roziyaning yonida, uning shodlanishini ko‘rib o‘zim ham birpas yayrab yurishga haqqim yo‘qmi? Baribir men Roziyani aldab boshi berk ko‘chaga olib kirolmayman. Aytaman! Payti keldi. Balki o‘zi so‘rab qolar...».

Sattor Roziyaning ko‘lini sekin qo‘yib yubordi.

— Qani edi, — dedi Sattor boyagi dardli so‘zlarini takrorlab, — odamlarga baxt ulashish mening qo‘limda bo‘lsa... Men baxtni sandig‘i bilan sizga keltirib berar edim. Istaganingizni oling edi.

— Men... avval «o‘zingiz oling» desam-chi?

— Baxt ulashadigan odamning avval olishga haqqi bo‘lmasa kerak.

— Nima uchun?

— Chunki... qoidaga binoan bo‘zchi belboqqa yolchimaydi.

- Xo‘p, agar o‘sha sandiqda men istagan baxt bo‘lmasa-chi?
- Qayoqda bo‘lishi mumkin, Roziya?
- Buni baxt ulashadigan odamdan so‘rash kerak.
- Endi, u odam ham xom sut emgan banda, bilmasligi mumkin...
- Men ham hali bilmayman.

— Unda men yoningizga tushib, baxtingizni birga qidiraymi?

Sirli bir nafosatga to‘lgan, goh sho‘x, goh ma’yus tuyg‘ularga yo‘g‘rilgan bu savol-javob davomida Roziya ancha o‘zini bosib oldi. Boya uni bo‘shashtirib, ixtiyorini Sattorga berib qo‘yan qo‘rqinchli istak o‘rnini kuvonchli bir erk tuyg‘usi egalladi. Roziya endi Sattorni o‘z izmiga bo‘ysundirgisi keldi:

— Mayli, yuring!

Sattor ham uning izmi bilan dunyoning narigi chetigacha borishga tayyordek:

— Yuring! — dedi.

Roziya Sattorning bilagidan oldi. Ikkovi anhorning piyodalar ko‘prigiga karab ketishdi.

Shu vaqtgacha tovush chiqarmay jim oqayotgan anhor ko‘prikan berida allaqanday nishablikka duch kelib, tog‘ daryosiday shovillab o‘tayotgani bilindi. Sattor qarama-qarshi tomonga ketayottan shiddatli to‘lqinlarga qaradi. Ularning har biri osmondagи oydan bir bo‘lak sindirib olib, o‘zi bilan oqizib ketmoqchi bo‘lardi. Ammo oyning suv yuziga sochilgan aksi to‘lqindan-to‘lqinga o‘tib, Sattorlardan ajralmasdan oqimga qarshi suzib borardi. Sattorning qalbidagi ziddiyat ham mana shu to‘lqinlarga o‘xshar, Roziyadan tushayotgan sehrli nurni oy nuri kabi chil-chil sindirib oqizib ketmoqchi bo‘lardi. To‘lqinlarga bo‘ysunmayotgan bu nur esa go‘yo, Sattorning o‘zini oqimga qarshi boshlab borar, Roziyadan boshqa hamma narsani unutishga, nurday erkin bo‘lishga undardi. Roziya stadion tomonidan ustma-ust eshitilib turgan qiyqiriqqa boshi bilan ishora qilib kuldi:

— Futbol ishqibozlari rosa baqiryapti-ku!

Roziya stadionda baqirayottan odamlarni emas, Sattor hozir yonginasida bo‘layotgan o‘yin shovqinini eshitmayotganligidan zavqlanib kulmoqda edi. Sattor buni go‘yo tan oldi va Roziyaning haziliga yarasha sho‘xroq javob qildi:

— Lekin baqirayotganlar boshqa, Roziya. Haqiqiy ishqibozlar baqirmaydi. Rustam-dostonga o‘xshab na’ra tortishadi.

Minglab ishqibozlarning bir ovozdan «u-u-o-a-ahh!» deb nido qilgani yana eshitildi. Roziya quvnoq tovush bilan:

— Shumi? — deb so‘radi.

— Bu hali na’ra emas. Lekin «oh» ursa osmon larzaga keladi degani shu. Qarang, Alpomishga o‘xshaydimi, yo‘qmi?

Sattor Alpomishni ko‘rgan odamga o‘xhab gapirgani ham Roziyaning zavqini keltirdi. Roziya jo‘rttaga unga taqlid qildi:

— Alpomishgami? O‘xshaydi! Metro Boychibar bo‘ladi-yu, unga mana shu Alpomishingiz minadi...

— Minsa juda yarashadi!

— Boya men shu gapingizni moskvalik mehmonga aytib kulgiga qoldim.

Roziyaning so‘nggi gapida noz aralash erkalik bor edi. Uning bu erkaligi ham Sattorga juda yoqimli tuyuldi:

— Mening gapim fakat eng yoqimli kulgiga sabab bo‘lishi mumkin, — dedi u Roziyaning so‘zidan ham oldin, erkaligiga javob berib.

— Gapingizning obro‘sni muncha baland? — deb Roziya yana tegishdi.

Bu orada ular ko‘priqdan o‘tib maydonga qarab ketdilar. Yo‘llarida uchragan odamlar ikkoviga qiziqib qarayotganlarini Roziya endi sezdi. Chiroqlar tagida qo‘ltiqlashib kelayottan chiroylı-chiroylı uchta qiz goh Sattorga, goh Roziyaga havas bilan tikilib o‘tishdi. Shu payt Roziya o‘zidan ham, Sattordan ham faxlanib jil-maydi. Sattor zsa bu iftixorga haqqi yo‘qligini eslab, boshini egdi. Ovozi

birdan pasayib, tutilib-tutilib gapira boshladi:

— Gapimning obro'si baland emas, lekin bu... stadiondagi... behisob odamni jo'n transport eplay oladimi? Metroning katta bir stantsiyasi mana shu atrofda qurilishi kerak.

Sattorga hozir ish to'g'risida o'yash va gapishtirish osonroq edi. U metroning xomaki loyihasiga yana ko'p aniqliklar kiritilganini, tunnel mana shu atrofda anhorning tagidan o'tib, maydonning osti bilan xiyobonga qarab ketishi kerakligini so'zlay boshladi.

Bir qarashda zerikarli tuyuladigan bu mavzu ham Roziyaga o'zining eng maroqli tomoni bilan ko'rinar edi. Hali qancha odam Toshkentda metro bo'lishini tasavvur ham qilolmaydi. Sattor bilan Roziya esa bu katta ishning ilk rejalar uchun jon kuydirib yurishibdi. Buni o'yagan sari Roziyaning ko'ngli tog'day ko'tariladi. Biri ustiga biri qo'shilayotgan zavq, quvonch, iftixor tuyg'ulari benihoya yoqimli edi. Roziya yana Sattorga erkalanib:

— Bu hammasi hali xomxayol! — dedi.

— Lekin qachondir bir vaqt metro, albatta, quriladi, men bunga ishonaman, Roziya. Hozir respublikamizning eng katta rahbarlari ham metroga astoydil e'tibor berishyapti. Moskvalik mehmonlar kelgandan beri biz kechalari ham qolib ishlayapmiz. Hali Maksimichdan umid katta edi. Siz unga voqeani tushuntirib juda yaxshi qilibsiz-da, lekin!

Sattor Roziyani o'ng qo'li bilan yelkasidan olib, boyagiday erkalab silkitdi. Ko'li kiftigacha ochiq ko'ylak kiygan Roziya yelkasining yalang'och joyi bilan Sattorning biqinidagi chandiqni yana his qildi.

O'sha mudhish voqeanning to'polonida u Sattorni yo'qotib qo'ygani, hatto uning kimligini, oti nimaligini bilmay qolgani zsiga tushdi. Keyin Roziya metroning tayyorgarlik ishlariga jalgan, shu ish ustida Sattorni topib olgani, bugun u bilan uchinchi marta uchrashayotgani hayolidan o'tdi. Hozir u buning quvonchini metro haqidagi gapga o'shib aytdi:

— Toshkentimiz Osiyo qit'asida birinchi bo'lib metro qursa-ya! Ajoyib bo'lar edi-da!

— Ha, Yaponiya orol ekani hisobga olinsa, Osipyoday ulug' materikda hali bitta ham metro yo'q.

— Loyihalaringiz tasdiqlanarmikan-a?

— Loyihalarimiz, deng. Yer osti qatlamlari aniqlanmaganda loyihalar havoga chizilarvardi?

Roziya shunday aniq, shunday buyuk ish ikkovini birlashtirib turganini yana bir marta shodlanib his qildi.

— Xo'p, Sattor, loyihalarimiz.

— Hali loyihalarning xomakisini ishlayapmiz, xolos. Lekin, mana bu maydonga bir qarang...

Ular maydonning g'arbidagi balandlikda to'xtashdi. Maydonning anhor qirg'og'iga chiqadigan tomoni hali bitmagan. Chetlari tosh va chim bilan ishlanayottan yo'lkalarning bir qismigina tayyor bo'lgan, xolos. Maydonning narigi tomonida ham qurilish davom etyapti. Ko'targich kranlar osmonga nayzalarini sanchib turibdi. Ammo maydonning asosiy sahni allaqachon bitgan va o'zining ko'r kamligi, bag'ri kengligi bilan butun shaharga husn kiritgan edi.

— Ilgari bu yerda nimalar borligini eslaysizmi? — so'radi Sattor.

Roziya eslay boshladi:

— Hu ana u yerdan tramvay chinqirib burilar edi. Iflos suvli bir ariq bor edi. Xom g'ishtdan qurilgan uylar... Qandaydir bir ombor...

— Anhorning bo'yida-chi? Xuddi tovuqning kattagiga o'xshagan uychalar betartib qalashib turmasmidi?

— Maydonga o'tiladigan yo'l ham juda tor edi-ya.

— Mana endi ko'ring! Hozir bu maydonni har bir toshkentlik butun jahonga faxrlanib ko'rsatishi mumkinmi, yo'qmi?

— Mumkin!

— Gap shundaki, Roziya, mana shu maydonning loyihasi ham hozirgi metroning loyihasiga o'xshab ko'p munozaralarga sabab bo'lgan. Men bu loyihaning chet yoqasiga sal-pal ishtirok

qilganman, bilaman. Hali zilzila davom etib turgan paytlar edi. «Maydonni bunchalik qilish kerak emas, nima, aerodrom quramizmi?» deganlar bor edi. «Bu maydon butun kuch bilan mablag‘ni olib qo‘yadi, undan ko‘ra uy-joy qurilishiga zo‘r beraylik» deganlar bor edi. Lekin Toshkentning markazida shunday bir ko‘rkam maydon bo‘limguncha shaharning chiroyi ochilmasligini astoydil sezib yurganlar ko‘pchilik edi. Oxiri mana...

Roziya Sattorning yuziga o‘tli bir ehtirom bilan tikildi.

— Shu ko‘pchilikning orasida siz ham...

Sattor maqtanchoq ko‘rinishdan ko‘rqib uning so‘zini bo‘ldi:

— Men minglarning biri edim, xolos. Juda kichkina bir loyihachi edim. Lekin maydonning mana shunday qurilishi uchun jon kuydirib yurganim rost.

— O’shanda men oxirgi kursda edim, — dedi Roziya. — Buzilgan imoratlarning o‘rnini tozalashga chiqar edik. Esingizdam? Eski tanklar binolarni qulatib berar edi. Mana shu maydonning o‘rnini tozalash uchun ham bir necha marta shanbalikka chiqib, rosa changga botib ishlaganmiz.

— Ajabo! Men aytgan minglarning biri o‘zingiz ekansiz-ku!

Roziya bilan Sattorning orasiga yana bitta yaqinlik ipi tortilganday bo‘ldi. Go‘yo, mana shu maydonning o‘tmishi ham ularni birlashtirdi.

— Yana besh-olti yil o‘tib, metro ham qurilsa, bugungi gaplarimizni qanaqa qilib eslarkimiz, Roziya?

Bu gap Roziyaga «kelajagimiz ham bir!» deganday eshitildi.

— Kuvonib, yayrab eslardik-da!

Roziya Sattor bilan nima to‘g‘risida so‘zlashmasin, — o‘tmishdan ham, kelajakdan ham, ko‘z o‘ngidagi maydonidan ham, atrofidagi narsalardan ham o‘z baxtini topayotganday quvonadi. Uning tolei go‘yo butun borliqqa sochilgan-u, Sattor birga yurib, unga hamma joydan baxt terib beryapti.

Shu tariqa yashnab-yayrab maydonni kesib o‘tishdi.

Odam siyrak. Toshkentliklar hali 6u yerga ko‘p kelib o‘rganishmagan. Narigi yoqdagi go‘zal favvoralar qurilishi endi boshlangan. Namoyishlar xiyobonining o‘rtasiga — oyoq ostiga marjonday tizib qo‘yilgan qator yer-chiroqlar hali yondirilgan emas. Shunday bo‘lsa ham, maydon go‘zal edi. Roziya to‘xtab osmonga qaradi. Uning nazarida yulduzlar hozir mashshoqlarga aylanib, Sattor ikkovlari uchun g‘alati bir kuy chalmoqda edi. Roziya shu kuy ostida Sattor bilan o‘yinga tushgisi keldi.

— Sattor, eshityapsizmi? — so‘radi u sirli tovush bilan.

— Nimani?

— Yulduzlar kuy chalyapti.

— Ha!

Roziya sumkasini bilagiga solib, chap qo‘lini Sattorning yelkasiga qo‘ydi. Sattor Roziyaning istagini tushunib, o‘ng qo‘li bilan belidan oldi.

— Tangomi? — dedi.

— Yo‘q, vals!

Sattor Roziyani ohista quhib, «O’zbek vals»ini og‘zida chalib, nim qorong‘i maydonda uni gir-gir aylantirar ekan, o‘zini dunyoda eng tolei baland bir kishidek his qildi. Vujudida ulkan maydonni u boshidan bu boshigacha shu holatda o‘nlab marta aylanib chiqishga yetadigan bir kuch sezdi.

Uning uchun olamda faqat Roziya bor edi. Boyagi chigal dard goho ko‘ngliga tikanday qadalib qo‘ysa ham, endi bu tikanni Roziyaning qo‘li bilan olib tashlash mumkinga o‘xshardi. Ichki bir ovoz Sattorga shivirlardi: «Shunday aqli qiz nahotki seni tushunmasa, sening mushkulingni oson qilmasa? Roziyaga ishon, u sening o‘zingni hamma dardu g‘amlaringdan baland qo‘ya oladi, har qanday holatda ham seni deydi!». Sattor bu ichki ovozning zavqiga berilib, vaqt qanday o‘tganini, qancha masofalar ortda qolganini sezmas edi.

Bir payt ular Xadicha Sulaymonova ko'chasidan aylanib o'tib, o'quvchilar saroyining qarshisidagi ochiq kafega keldilar. Roziya qachonlardan beri dam olmay piyoda yurgan bo'lsaam, charchoqlik sezmas edi. Sattor uning quruqshab turgan lablariga qarab:

— Cho'llabsiz-a! — dedi. — Hali ovqat ham yemagandirsiz? Restoranga bora qolaylik.

— Men och qolganim yo'q. Shu yer yaxshi emasmi? Ochiq havo.

Sattor Roziyani chetroqda turgan stolga boshladi. Xizmat har kimning o'zidan ekan. Sattor yaltiroq ma'dan vazachalarda morojenoe keltirib qo'ydi.

— Hozir, — deb kulib qaytib ketdi. U ikki qo'lida ikki fujer to'la shaman vinosi bilan Roziyaga qarab kelayotgan edi, o'ng tomondagi stollar yonidan kimdir uni chaqirdi. Sattor yurib ketayotgan bo'yicha o'girilib qaradi. Chaqirgan odam uning hamkasbi Nodir Inoyatov edi. Nodirning yonida ishxonalarining boshlig'i Fayzulla Beknazarov ham shaman ichib salqinlab o'tirgan ekan. Ular ikkovi Sattorga sinovchan nazar bilan tikilib turar edi. Sattor to'xtab ularga tomon bir-ikki qadam tashladi.

— Uch marta o'tib bizga qayrilib qaramading-a! — dedi Nodir. Uning yupqa lablari va kisiq ko'zlarida gina aralash kinoya bor edi.

— Men ko'rmay qolibman! — Sattor Fayzulla Beknazarovga uzr so'raganday qilib qaradi.

— Ha, ko'zing qamashib ketganga o'xshaydi, — dedi yana Nodir. U boshliqning nomidan ham kinoya qilayotganga o'xshardi. Beknazarov indamas, ammo Sattorning yashnab turgan yuziga, uning ikki qo'lida bijillab o'ynayotgan ikki fujer shaman vinosiga xiyol hayratlanib qarar edi. «Xotinin, o'g'lim borligini, ularni olib kelaman deb uy so'rab ariza berganimni eslayotgan bo'lsa kerak!» degan o'y Sattorning qalbini muzlatib o'tdi.

U o'ng'aysiz holatdan qutulish uchun gapni hazilga burdi.

— Ko'z qamashgan yo'q-ku... lekin ko'rib turibsizlar, hozir atrofga alanglaydigan paytim emas.

— Yoningda shunday qiz yurgandan keyin atrofga alanglarmiding. Ammo balosan! — dedi Nodir va sersoch boshini Roziya o'tirgan tomonga silkitib davom etdi:

— Bu ho' o'sha... sen qutqargan qiz-ku. O'ziyam juda ochilib ketibdi. — Nodir Fayzulla Beknazarovga izoh berdi — Sattor mana shu qizni deb pichoq yegan edi-da. O'shanda men ham stadiondan chiqib kelayotuvdim. Ammo, unda menga bunchalik go'zal ko'rinnagan edi. Hozir juda...

Sattor gapni tezroq tamomlagisi kelib Nodirning so'zini bo'ldi:

— Qani, Fayzulla aka, yuringlar, birga chanqoq bosdi qilaylik...

— Yo'q, mayli, siz boring, — dedi Beknazarov. — Lekin endi... pichoq-michoqdan ehtiyyot bo'ling. Bizga ham keraksiz.

Sattor kulib, xayrlashib ketayotgan edi, Nodir uning ketidan gap otdi:

— Ha, sen bizga eng rostgo'y, eng vijdonli odam bo'lganining uchun keraksan. Buni u qizga ham bildirib qo'y, do'stim.

Nodir Sattorning oilasi borligini eslab va Roziya hali buni bilmasligini sezib istehzo qilmoqda edi. Xotin-qizlar bilan munosabatda vijdanni ham, insofni ham tan olmaydigan Nodirning istehzosi Sattorga o'qday tegdi. U achchiq bir javob aytgasi kelib keskin o'girildi. Shu payt qo'lidagi vino chayqalib, ozginasi to'kildi. Bu Sattorning shahdini qaytardi. U istehzoli iljayib:

— Nasihatlar uchun rahmat! — deya oldi, xolos. Sattor Roziyaning oldiga qaytganida rangidan qoni qochib, yuzi bo'zarib qolgan edi. Ammo o'zini xushhol ko'rsatishga tirishib:

— Qani, oldik, Roziya, — dedi. — Kechirasiz. Hamkasblar uchrab gapga tutib qolishdi. Qani, oling!

Roziya vinosi hamon o'ynab turgan qadahni sekin qo'liga oldi va Sattorga boyagiday mehrli ko'zlar bilan qaradi. U Sattor bilan birinchi marta urishtirib ichadigan qadahi umrbod esda qoladigan damlardan nishona bo'lishini istardi.

Ammo Sattorda boyagi ufurib turgan bayram kayfiyati endi yo'q. Roziyaning nazarida, uning

yelkalari ham allanechuk pasayib, o‘zi bir oz cho‘kib qolganday ko‘rinadi. «Oling, oling» deyishlari ham anchayin bir mehmonga qilinadigan yuzaki manziratni eslatadi.

— Hamkasblaringiz biron... noxush xabar aytishdimi? — dedi Roziya.

— He, yo‘q, shunchaki gap...

Sattor Fayzulla Beknazarovning «Pichoq-michoqdan ehtiyot bo‘ling!» degan tagdor gapini eslatdi. «Roziya bilan to‘g‘rilikcha yuribman-ku, nega boshliqning gapini darrov o‘zimga olaman!» deb Sattor ichida o‘zidan ranjidi. Ammo Nodirning «balosan!» degani buning aksini isbotlayotganga o‘xshadi. «Shunday qizni qo‘lga tushiribsan, o‘shanda buni qutqarganiningning haqini ol, bo‘sh kelma, xotining borligini bildirmay yuraver, maza qil!» demoqchi edi Nodir unga. Nodir uchun chirolyi qizlar bilan lazzatlanib yurish — ovga chiqib, qarmoq tashlab, katta o‘lja olishday gap edi. Bunaqa «ovni» Sattor ham bir vaqtlar bilar edi. Ammo hozir Roziyani o‘tkinchi bir «ov» deb o‘ylasa o‘zidan jirkanardi. Nodirning so‘zlaridagi «ovchilik» ma’nosи esa Sattorning qalbidagi eng pok, eng aziz tuyg‘ulariga iflos bir qo‘l kabi tegib, chirkin iz qoldirdi.

Hozir Sattorni ezayotgan yana bir narsa shuki, Nodir uni o‘ziga o‘xshatib «Balosan!» deganda, so‘ng uning rostgo‘yligini masxara qilganda, Sattor javob topolmadi, «Nasihatlar uchun rahmat!» deb pisillab qo‘ya qoldi. Chunki, uning tili qisiq edi!

Sattor qadahni qo‘lga oldi. Roziya uning bir narsa deyishini kutmoqda edi. Qizning mehr to‘la ko‘zları Sattorga yordam berishga, uning har qanday mushkulini oson qilishga tayyor ekanini bildirardi. Roziya uni boyagiday beg‘am va shod qiyofada ko‘rishni istardi.

— Kechirasiz, Roziya... Mening hayolim bo‘lindi. Iching! Mana shu birinchi qadahimiz... oxirgi qadah bo‘lmasin. Dunyoda hech kim, hech narsa bizni bir-birimizdan... — «ajrata olmasin» deyishga Satgor jur’at etmadi... — bizni bir-birimizga qarshi qo‘yolmasin!

— Yaxshi!

Shampan ichib, morojenoe yeb o‘tirganlarida Roziyaning husni yana ham ochilib ketdi. Uning qizlik jozibasi atrofdagi hamma odamlarning e’tiborini tortmoqda edi.

Biroq Roziyaning odamlarga bu qadar sehrli ko‘rinayotgan husni Sattor tufayli ochilib ketgani qizning har bir harakatidan, har bir nigohidan bilinib turardi. Sattor o‘ziga havas bilan qarayotgan ko‘zlarni ko‘rib, yuragi allanechuk uvushdi. U muhabbat tuyg‘usining tobora baland cho‘qkisiga chiqib borayotganini sezar, bu cho‘qqidan yiqilib ketsa chilparchin bo‘lishini o‘ylab, qalbini vahima bosar edi. U Roziyadan hali zamon mahrum bo‘lib qolishini oldindan sezayotganday iztirob chekar, Roziyaga termilib-termilib qarar edi.

Roziya esa Sattordagi bu holatlarga muhabbat izhoridan oldin bo‘ladigan taraddud va tashvish sabab bo‘lyapti, deb o‘ylardi. Bugun hal qiluvchi bir gap bo‘linini o‘ylaganda, Roziyaning yuragi ham taka-puka bo‘lib qo‘yardi. Ammo Sattorning iztirobi unikidan kuchliroq ekani qizga dalda berar, shampan ham tasir qilib, olam uning ko‘ziga behad go‘zal ko‘rinardi.

Ular kafedan chikib yana anhor tomonga qarab ketayotganlarida Sattor og‘ir tin olib:

— Roziya, — dedi. — Sizdan boshqa kiz bo‘lsa, men ko‘nglimdagи sirlarimni aytib o‘tiras edim. Lekin siz men uchun shunchaki bir qiz emassiz, topilmaydigan bir insonsiz. Men bu dunyoda faqat siz bilan baxtiyor bo‘la olishimni sezib turibman.

Muhabbat izohini kutayotgan Roziya «boshlandi!» — deb shirin bir ehtirosdan entikdi. Sattor ovozi bo‘g‘ilib gapirdi:

— Lekin men... siz bilan o‘tayotgan mana shu mas’ud damlarga haqqim bormi, yo‘qmi, bilmayman.

— Nega endi?

— Men hozir sizga munosib emasman, deb qo‘rqaman! Roziya bu gapni kamtarlik deb o‘ylab zavqi keldi.

Bugun Sattordan faxrlangan paytlarini eslab kuldi-yu:

— Siz hali o‘zingizni bilmas ekansiz, — dedi.

— Yo‘q, Roziya, siz bilmaysiz!

— Nimani?

— Hozir sizning ko‘nglingiz mening qarshimda nozik bir oynaga o‘xshab turibdi. Men shu oynaga tosh tegmasin deyman.

— Kanaqa tosh, Sattor? — deb Roziya endi sergaklandi.

— Balki tosh emasdир. Balki buning siz uchun ahamiyati ham yo‘qdir. Gap shundaki, men yoshlik qilib bekordan-bekorga erkimni qo‘ldan berib qo‘yanman!

Roziya shu paytgacha zavq va quvonch to‘lqinlari orasida chappar urib suzib kelayotganga o‘xshardi. Ipakdek mayin to‘lqinlar endi birdan g‘adir-budur toshga aylanib ketayotganday bo‘ldi. Roziya seskanib so‘radi:

— Uylanganmisiz?

— Besh yil oldin uchrashmaganimiz menga alam qiladi!

Toshga aylanayotgan to‘lqinlar Roziyani iskanjaga olib suyaklarigacha zirqiratib qisganday bo‘ldi. Uning vuju-di qaqqashab:

— Besh yil? — dedi. — Bolalaringiz ham bordir?

— To‘rt yashar o‘g‘ilcha bor.

Roziya shafqatsiz tosh-to‘lqinlar orasidan chiqib ketmoqchi bo‘lib talpina boshladи:

— Men nima!.. Men sizning oilangizga... yaxshilik istayman. Siz menga yomonlik qilganingiz yo‘q... Ko‘sha qaringlar!

Sattor Roziyani tirsagidan ushlab o‘ziga qaratdi:

— Nega mucha o‘zgarib ketdingiz, Roziya? «Qo‘sha qaringlar» degan gapingiz menga kinoyaday eshitilyapti!

— Boshqa nima ham deyishim mumkin?

— Agar men u bilan qo‘sha qarishni istaganimda sizga bunchalik armon qilib gapirmas edim!

Roziyaning ko‘zi oldida Sattor boyagidan butunlay boshqacha — go‘yo u birpasda besh-o‘n yosh ulg‘ayib, uvali-juvali kishi bo‘lib qoldi. Butun uchrashuv davomida Sattor o‘zini tutib, Roziyani avaylab kelayotgani, armon aralash aytgan gaplari, hamkasblarini uchratib xomush bo‘lib qolgani, — hammasining ichki sababini Roziya endi bildi. U Sattordan butunlay boshqa narsalar kutib aldangani ko‘nglini ezdi. Uning o‘ziga ham, Sattorga ham rahmi kelib, ko‘zlarida birdan yosh g‘iltilladi.

— Men o‘zim ham farosatsizlik qilibman... Avvalroq sezishim kerak zdi... Meni kechiring, Sattor, oilangiz borligi menga bunday ta’sir qilmasligi kerak edi. Lekin men nima qilay... umidim boshqacha bo‘lganini yashirolmayapman. O‘zimni qo‘lga ololmayapman. O‘zim-o‘zimga bunchalik ayanchli ko‘rinaman deb hech o‘ylamagan edim!

— Siz o‘zingizni ayblamang, Roziya. Siz samimiysiz, oqko‘ngilsiz. Sizni men qiyab qo‘ydim. Ko‘zingizdagи yoshdan mening yurak-bag‘rim o‘rtanib ketyapti. Yig‘lamang, iltimos qilaman!

Sattor Roziyaning ko‘z yoshini qo‘li bilan sekin artib oldi. Roziya atrofiga qaradi. Hamma narsa tutun aralash tuman orasida yotganday xira ko‘rinardi. Ular Navoiy kutubxonasidan nariroqda, daraxt pana qilib turgan yo‘lka chetida turib gaplashmoqda edilar. Roziya ko‘zini qoplagan tuman ichidan chiroqlarini yoqib o‘tayotgan uzokdagи tramvayni ko‘rdi. U qalbini ham tutunday qoplаб olgan achchiq tuyg‘udan tezrok qutulgisi keldi. Tramvaya tomon intilib:

— Men ketaman! — dedi.

Sattor u bilan vidolashayotganday mung‘ayib:

— O‘zingiz bilasiz, — dedi. — Men sizni «qoling» deyishga haqqim yo‘q! Bu yog‘ini endi faqat siz hal qilasiz.

Roziya Sattorni shu ahvolda tashlab ketolmasligini sezdi. Bundan bir soatgina oldin ikkovi qanday unutilmas damlarni boshdan kechirganlari esiga tushdi. Undan oldin bu yigit Roziyani yomon bir falokatdan qutqaraman deb pichoq yegani ko‘z oldiga keldi. Bugun ham Sattor oljanob, sofildi bir yigitdek muomala qilayotgani Roziyaning ongiga endi borib yetdi. Sattor shunchalik mung‘ayib,

mushkul ahvolga tushib qolganda hech kim unga yordam berolmasligi Roziyaning yuragini ezib, ko‘zini yana yoshga to‘ldirdi.

— Sattor, menga hali umrimda sizday yaxshi yigit uchragan emas edi. Bundan yarim soat oldin men siz bilan yurganimdan baxtiyor edim. Endi, bilsam, bunga hakqim yo‘q ekan... Men boshqa birovni shunchalik seva olamanmi, yo‘qmi, bilmayman. Lekin sizni... sizning menga qilgan yaxshiligingizni umrbod unutmayman. Xayr!

— Endi shoshmang, Roziya... men ham sizni butun vujudim bilan sevaman, boshqa hech kimni bunchalik sevgan emasman, sevolmayman. Biz shuni bila turib, nega ajrashib ketishimiz kerak? Nega darrov taslim bo‘lyapmiz?

— Sababini o‘zingiz aytdingiz!

— Yo‘q, men erkim o‘zimda emasligini aytdim. Lekin mening ko‘nglim sizda, kelajagim o‘zimga bog‘liq. Mana siz yonimda bo‘lsangiz, erkim ham o‘zimga qaytadi, Roziya, bunga ishoning!

Roziya Sattorga bir lahma jim tikilib turdi. U Sattorning oilaviy hayotini ko‘z oldiga keltira boshladi. Mana shu keng yelkalar, mana shu iztirobli yuz, mana shu olovli ko‘zlar, mana shu yoqimli ovoz, Roziya sevib qolgan mana shu ko‘hlik yigit besh yildan beri boshqa ayol bilan yashayotgani, orada ikkovidan bino bo‘lgan far-zand borligi Roziyaning tasavvurida shunday gavdalandiki, rashk, alam, armon hammasi birgaliqda uning Sattorga bo‘lgan mehrini go‘yo toshbo‘ron kila boshladi. Roziya butun borlig‘i qaqqash:

— Yo‘q, — dedi. — Yo‘q! Men istamayman!

— Nimani? — qo‘rqib so‘radi Sattor.

— Siz birovning otasisiz. Birovning erisiz!

— Lekin men birovning shaxsiy buyumi emasman, Roziya! Muhabbat nimaligini bilmay adashib uylangan bo‘lsam, umrbod baxtsiz o‘tishim kerakmi? Men bu ahvolda oilamga nima baxt bera olaman? Ular qishloqda. Oyda-yilda bir borar edim. Hozir borgim ham kelmay qolgan.

«Hozir» degan so‘z Roziyaga «Siz uchrugandan beri» deganday eshitildi va juda noxush tuyuldi. U o‘zini Sattorning xotinidan keyingi navbatdagi ayolday sezdi. Qattiq ozorlanib dedi:

— Men ham nima qilay? Mening orzularim butunlay boshqa edi.

— Bilaman. Men shu sirni aytmaganimda orzularingiz bari o‘z o‘rnida turar edi. Lekin men sizning ko‘nglingizda nima borligini sezib turib, uylanganligimni yashirsam, sizni aldab qo‘lga tushirganday bo‘lar edim. Bunga mening vijdonim yo‘l bermaydi. Men sizni tushunasiz deb aytdim.

— Tushunganim bilan nima ham qila olaman?

— Ista sangiz meni baxtiyor qila olasiz!

— Siz boshqalarni baxtsiz qilib kanday baxtiyor bo‘la olasiz?

— Boshqalar ham o‘z shaxsiy baxti uchun kurashishi kerak. Hozir yigirmanchi asr. Bu haqda qancha kitoblar yozilgan, qancha filmlar olingan. Bu bosqichlardan allaqachon o‘tib ketganlar juda ko‘p.

Roziyaning o‘zi ham muhabbatda erkni juda baland qo‘yar, buni tushunmagan yoki tan olmaganlar uning ko‘ziga taraqqiyot bosqichlarining eng past zinalarida turganday ko‘rinar edi. Agar hozir o‘zining boshida tushayotgan savdoni birorta kitobda o‘qisa yoki filmda ko‘rsa, Roziya hech ikkilanmay Sattorning gapini ma‘qullagan bo‘lardi. Shunday qilmay har xil andishalarga berilib «yo‘q!» deydigan qiz Roziyaning ko‘ziga chetdan juda qoloq ko‘rinar edi. Ammo, hozir o‘zi Sattorni oilasidan kechtirib, uning o‘g‘lini otasiz qoldirib turmush qurishni o‘ylasa, keljak Roziyaga juda ishkak, juda g‘uborli ko‘rinardi. Roziya o‘ziga bunday keljakni ravo ko‘ra olmasligini endi bilyapti. U yigirma besh yoshga kirkuncha ko‘pgina to‘ylarni ko‘rgan, ko‘pgina qarindoshlari va dugonalarining turmushlarini kuzatgan. O‘zları ham mehr-muhabbat bilan topishgan, ota-onalar va qarindoshurug‘larining ham ko‘nglini olib, mahalla-ko‘yning ham olqishiga sazovor bo‘lib turmush qurgan yigit-qizlar Roziyaning havasini keltiradi. U ko‘pchilikning ta’na va dashnomiga uchraydigan ishkak bir keljakka emas, aksincha, hammaning tahsiniga sazovor bo‘ladigan, teng-tushlarining havasini

keltiradigan bir keljakka intilib, o‘rganib qolgan. Shuning uchun hozir Sattorga yon bosolmaydi. Biroq u o‘z kelajagini Sattorsiz ham tasavvur etolmaydi. Sattorsiz keljak unga huwillagan sovuq bir bo‘shliq bo‘lib ko‘rinadi.

Roziya nima qilishini bilmay atrofga alangladi. Sattor uning javobiga muntazir edi. Uzoq jimlikdan so‘ng Roziya yana:

— Men ketaman, — dedi.

Sattor uni tramvay bekatiga boshlab borayotganda ko‘chada birdan odam ko‘payib ketdi. Tungi chiroqlar yorug‘ida yuqorida yopirilib tushib kelayotgan behisob odamlarning aksariyati yigitlar, erkaklar edi. Sattor bularning futboldan chiqib kelayotgan tomoshabinlar ekanini payqadi. Sershovqin, serharakat xaloyiq daryosi hozir Roziyani oqizib ketishidan xavotirlanib, uning bilagidan oldi.

— Roziya, menga qarang. Yana qachon uchrashamiz?

— Men sizdan minnatdorman, Sattor, lekin endi...

— Hozir javob bermang! Shoshilmang!

— ... Men sizning sofдilligingizni unutmayman...

— Vidolashmang, iltimos qilaman, ko‘nglingizni yaxshilab sinang. Men kutaman!

— Siz menga shuncha yaxshilik qildingiz, bas.

— Biroq siz meni do‘zax azobiga solmang, Roziya. Bugungi joyda har kuni kechqurun ishdan keyin sizni kutaman.

— Har kuni? Yo‘q-yo‘q!

— Uch kungacha kutaman, Roziya!

— Kutmang!

— Yo‘q, bir haftagacha kutaman... Har kuni!

Roziya yana bir lahza tursa «xo‘p, kelaman!» deb qo‘yishini sezdi-yu:

— Yo‘q! — dedi. Ammo Sattorga bu so‘z juda og‘ir tuyulganini sezib, Roziya oyoq uchiga ko‘tarildi, Sattorning yuzidan tezgina o‘pdi, shu bilan «endi ko‘risholmas-miz» demoqchi bo‘ldi va ko‘chani to‘ddirib o‘tayotgan xaloyiqning orasiga o‘zini urdi.

Futboldan hayajonlanib chikqan izdihom orasida ichib olgan bezorilar ham bor. Ammo hozir Roziyaning ko‘ziga hech qanday xavf-xatar ko‘rinmaydi. Sattor bilan ajrashish azobi oldida hamma xatarlar jo‘n tuyuladi. Butun vujudi Sattor bilan yana uchrashishni istab turganda, bu istakni egib, bukib o‘tish har qanday tashqi noqulaylikni ahamiyatsiz qilib qo‘yan.

Sattor uni tramvaygacha uzoqdan kuzatib bordi. Xaloyiq yo‘lkalarga va bekatlarga sig‘may ketgan. Vagonlarii to‘ldirib jo‘nayotgan odamlar orasida Roziya goh ko‘rinib, goh ko‘rinmay boryapti.

Nihoyat, u ham tramvayga chiqdi. Ichkariga sig‘magan yosh-yalanglar vagonlarning eshiklariga va orqalariga osilib olgan. Tramvay to‘s-to‘polonda arang joyidan jildi-yu, nariroqqa borib tezlab ketdi.

Sattor bilan Roziyaning topishishiga sabab bo‘lgan izdihom daryosi hozir go‘yo Roziyani uning bag‘ridan yulib oldi-yu, tungi shaharning allaqayoqlariga olib ketdi.

7

Sattor ertasi kuni ishga borganida xuddi boshqa bir olamga kelib qolganday o‘z kasb-koriga xiyol taajjublanib qarayotganini sezdi. Uning butun borlig‘i hamon Roziya qo‘zg‘atgan tuyg‘ular bilan to‘lib turibdi. Kechagi uchrashuvning turli-tuman tafsilotlari hayolida muttasil charx uradi. Oradagi chigal muammo ko‘nglining bir chetini kuydirib, zirqiratib turgan bo‘lsa ham, bundan qat‘i nazar, Roziyaday qizning sevgisini qozongani uning ruhini ko‘taradi, issiq lablarning tafti hali ham yuzidan ketmay turadi, ikki orada yongan muhabbat olovi butun vujudini ilitib, hayollarini ravshanlashtiradi.

Shu olovning yorug‘ida Sattorga ilgari uncha ko‘rinmaydigan narsalar ham hozir favqulodda bir aniqlik bilan namoyon bo‘ladi. U o‘zi ishlaydigan xonada naqadar qog‘oz ko‘pligini go‘yo endi payqayotibdi. Olti loyiha chiqishini injener bir xonada ishlaydi. Har birining stoli va chizmakashlik asboblari

bor. Hamma stollarning ichi-yu usti turli-tuman loyihalar, qo'llanmalar, iltimosnomalar, ko'rsatmalar bilan to'lib ketgan. Ora-oraga qo'yilgan javonlarda ham, tumbochkalarda ham muqovalangan, buklangan, taxlangan qog'ozlar, polda ham qog'oz qiyqimlari, chiqindi uchun qo'yilgan savatchalarda ham g'ijimlangan qog'oz. Keng derazalardan yoz oftobining ayovsiz seli oqib kirib turibdi. Xonadagi havodan ham chash aralash qog'oz hidi keladi.

Bugungi taraqqiyot qog'ozni bu qadar ko'p ishlatishi, har bir qurilish alohida g'ishtigacha avval qoyuzda chizilib xilma-xil yozuvlar bilan asoslanib, shundan keyingina amalga oshishi Sattorga hozir qandaydir boshqacha — yaxlit va yangi bir narsaday tuyuladi.

Qog'oz ummonida har qanday tuyg'u g'arq bo'lib ketishi, odam hissiz bir mashinaga o'xshab, nima ish buyurilsa befarq bajaraverishi juda oson. Bu ummonda g'arq bo'lmaslik uchun har kim o'ziga ma'qul bir usul bilan suzishni o'rgangan.

— Sattor, Baytqo'rg'onda bitta osh bo'ladigan! — deb Nodir xomaki bir loyihani stol ustiga yoyib qo'ydi. Nodirga ergashib kelgan o'rta yoshli tepakal kishi yangi charm papkasini ko'ltig'iga qisib va shirin jilmayib:

— Mashinamiz ham bor, olib borib-olib kelib qo'yishi o'zimizdan, — dedi. — **Kggmiz** tashkil qilamiz.

Sattor bu odamning allaqaysi korxonadan kelgan vakil ekanini bilardi. Loyihaga qarab turib, ziyofatning sababini ham tushundi.

Bu korxona yangi uy-joy mavzeida o'z odamlari uchun bir nechta ko'p qavatlari uy qurgan. Xuddi shu mavzeda boshqa-boshqa ministriklarga qaraydigan yana ikkita katta tashkilot ham shunga o'xshash turar joylar quryapti. Suv, gaz, elektr kabi narsalar mavzedagi yangi uylarning hammasi uchun yaxlit loyiha bilan birvarakayiga olib borilgani yaxshi. Ammo narigi ikki tashkilotning qurilishi kech boshlangan, sust boryapti, hali-beri bitadigan emas. Uylari bitib qolgan korxona ularni kutib o'tirishni istamaydi. Shuning uchun mana bu maxsus loyi-hani tasdikdan o'tkazib, yer osti kommunikatsiyalarini ham o'zlarini uchun alohida qurishmokchi. Ammo har uchala tashkilotning kuvurlari bir ko'chadan o'tadi. Agar har biri alohida loyiha bilan o'z bilganicha kuvur yotqizsa, bu ko'cha uch kayta kovlanadi. O'zi yuz xil iltimos bilan yaqindagina asfalt bo'lgan ko'cha edi. Ertaga borib bular bir buzsa, uch oydan keyin boshqa tashkilot kelib kaytadan kovlasa, olti oydan so'ng yana buzilsa!..

Sattor shuni ayta boshlagan edi, vakil gapni ilib ketdi:

— Bilaman, o'rtoq injener, hammamiz ham ko'chalarning ustma-ust kovlanaverishidan bezor bo'lgnamiz. Agar uch tashkilot bosh qo'shib shu ishni birga qilsa, biz jon der edik. Lekin boshqalar hali yer osti kommunikatsiyalarini o'ylayotgani ham yo'q. Bizning uylar bitgan, odamlar «qachon ko'chib kiramiz!» deb kuloq-miyani yevoryapti.

— Zilziladan keyingi uy-joy tanqisligi ma'lum-ku, — deb Nodir vakilga yon bosdi. — Necha yuz odam uy-joysiz azoblanib yurgandan ko'ra ko'chaning bir-ikki marta ortiqroq kovlangani afzalroq emasmi?

— Xo'sh, taklifing nima?

— Nima bo'lar edi? Yozuv-chizuvsalarini biz ikkovimiz to'g'rilab beraylik. Fayzulla akaga tushuntirib aystsak, tasdiqdan o'tkazadi. Buning qonunga xilof joyi yo'q.

— Maksading bitta oshmi?

— Osh bo'lsa-chi? O'zing ham bo'sh kelmaysan-ku! Kecha ko'rdik.

Nodir Sattorga «Balosan! — deganday kulib qaradi. — Haligi qizga qilgan yaxshililingni hissasini chiqarganing bilinib turibdi. Albatta, oilang borligi-ni yashirgansan, yo'lini topib maza qilgansan, shuning uchun bugun g'olibga o'xshab yuribsan!» Nodir Sattorni yumshatish uchun gapini tekislashga tirishdi.

— Shu bahona bilan kechagi g'alabangni ham yuvamiz! Sattorning qalbida yonib turgan musaffo olovga Nodir chirkin bir suv sochganday bo'ddi. Sattorning qahri kelib:

— Sen bu yuvg‘uvchililingga hammani aralashtiraverma! — dedi.

— O’rtoq muhandis, siz gruppa boshlig‘i ekansiz, bizning ishimiz sизsiz bitmaydi, — deb papka qo‘ltiqlagan amaki Sattorga yalina boshladi.

— Xo‘p, siz osh qilib beraman deysiz. Lekin bu osh qanchalik qimmatga tushishini bir o‘ylab ko‘ring-a. Agar uch tashkilotning har biri o‘z boshiga loyiha tuzib alohida kommunikatsiya o‘tkazsa, bunga uch barobar ortiq kuch ishlatalidi, uch barobar ortiq pul sarflanadi, ko‘cha uch marta kovlanishidan aholi ham oylab-yillab azob tortadi!

— Sen ham osmondan kelasan-da, Sattor. Nima, bular tayyor bo‘lgan uylarni qulflab qo‘yib, narigi binolarning bitishini kutib o‘tirsinmi?

— Kutib o‘tirgilari kelmasa, narigi tashkilotlar bilan til topishishsin. Erta-indin ular ham yer osti kommunikatsiyalarining tashvishiga tushadi. Undan ko‘ra hozir mana bular bilan birga shu tashvishdan qutulib olishsin. Baribir, suv ham, gaz ham o‘sha mavzedagi hamma uylarga bitta trassadan boradi.

— Men ular bilan to‘rt marta gaplashdim. Uni-buni bahona qilib bosh qo‘shishmayapti.

— Lekin siz yo‘lini toping. Juda bo‘lmasa, bizga qilib bermoqchi bo‘lgan oshingizni o‘shalarga qilib bering!

Papka qo‘ltiqlagan amaki so‘nggi gapdan juda norozi bo‘ldi:

— Men ularga nega osh qilib berar ekanman? Ularga biron qaramlik joyim bormi? Biz ham mustaqil tashkilotmiz!

— Lekin siz mana bu masalani mustaqil hal kilomaysiz, — dedi Sattor, — uchta tashkilotdan bittasining bizga ishi tushib turibdi. Fayzulla akaning qo‘lida ularning boshqa bir loyihasi bor. Tasdiqlatishga kelganda mahkam ushlaymiz. Mana bu ishga bosh qo‘shmaguncha o‘tkazmay turib olamiz!

— Ana 6u boshqa gap! — deb papkali amaki quvonib ketdi.

— Biroq uchinchi tashkilotni o‘zingiz ko‘ndirasiz.

— Bo‘lmasa, bunday qilaylik, — dedi Nodir papkali amakiga. — O‘sha Baytqo‘rg‘onda bo‘ladigan oshga uchinchi tashkilotdan bir-ikkita o‘zingizga o‘xshagan mutasaddilarni olib kelasiz. Nima deding, Sattor?

— Yaxshi bo‘ladi.

— Sizlar ham borasizlar-da, — dedi papkali amaki.

— Bo‘lmasa-chi, — kuldi Nodir. — Bunaqa oshlar bizsiz pishmaydi.

— Mayli, pishirishiga qatnashamiz, — dedi Sattor ham.

Papka ko‘targan amaki maslahatni bir joyga qo‘yib chiqib ketayotganda Sattorning ko‘zi eshik tepasiga o‘rnatilgan katta elektr soatga tushdi. Kechqurun Roziyani ko‘rish umidida anhor bo‘yiga bormoqchi ekani esiga tushdi-yu, yuragi bir taka-puka bo‘ldi. Roziyaning «Kutmang!» — degani qulog‘i tagida go‘yo qaytadan eshitildi. «Kelmaydi» degan shubha ko‘ngliga soya solib o‘tdi. Keyin Roziya uni o‘pgani esiga tushib, vujudiga iliq bir harorat tarqaganday bo‘ddi. Boya Nodir Sattorga g‘olibona qaraganday qaragani bejiz emasdek tuyuldi.

Roziya kelarmikan? Agar kelsa, Sattor chindan g‘alaba qilgan bo‘ladi. Undan narida ayriliq bo‘lmaydi. Sattor hamma chigalliklarni Roziya bilan birga yechadi, boshiga nima ish tushsa, hammasiga chidaydi.

Mana shu qaror bilan Sattor kechki payt anhor bo‘yiga keldi. Oftob bugun haddan ortiq ma’yus botayotganday ko‘rindi. Sattor Roziyaga salgina o‘xshaydigan qiz ko‘rinsa ham yuragi hapriqib, atrofdagi ko‘cha va maydonlarga intizor ko‘zlar bilan tikilib, ikki soat yolg‘iz aylanib yurdi.

Ammo Roziya kelmadi. Oqshom g‘ira-shirasida Sattor bo‘shashib orqaga qaytar ekan, kecha Roziyaning o‘ksinib yig‘lagani esiga tushdi. «Va’daga binoan yana olti kun bor» — deb Sattor o‘zi-o‘ziga tasalli bermoqchi bo‘ldi. Ammo Roziyaning biror og‘iz «Kelaman» demagani Sattorning bir hafta davomida har kuni kutishga chiqishini allanechuk ma’nosiz qilib ko‘rsatar edi. Sattor bu og‘ir va chigal tuyg‘ularni ishda sal hayolidan uzoqlashtirshpi mumkin edi. U yotoqxonaga bormay, yana

ishxonasiga qaytdi.

8

Fayzulla Beknazarovichning kabinetidan yorug‘ tushib turar edi. Sattor bu yerda yana metroning loyihasi muhokama qilinayotganini sezdi-yu, to‘g‘ri o‘sha yerga kirib bordi.

Uzun stolning ustida xaritaday katta loyiha qog‘ozi ochiq turipti. U yerga bo‘lajak metro stantsiyalarining ilk nomlari ham yozib qo‘yilgan: «Farhod», «Do‘stlik», «Yoshlik...» Chetdan qaraganda bular hammasi hali tug‘ilmagan farzand uchun yaxshi niyat, yorti mol, deb oldindan tanlab qo‘yilgan ismlarga o‘xshaydi. Biroq stol atrofida o‘tirgan o‘n chog‘li kishi xuddi ertagayoq quriladigan aniq bir narsa haqida gap borayotganday jiddiy munozara qilishadi. Fayzulla Beknazarovich Sattorga stolning bir chetidan joy ko‘rsatdi-yu, qizishib gapiroayotgan qo‘ng‘ir soch yigitning so‘zini bo‘ldi:

— Grisha, shoshma, sen bir narsani tushun. Bu hali dastlabki reja. Hozir biz loyiha topshiriqlarining bir variantini tuzyapmiz.

— Ammo ish mana shu bosqichda puxta o‘ylanmasa, keyin yaxshi bo‘lmaydi.

— To‘g‘ri, lekin biz — ma’lum bir g‘oyaning ijrochilarimiz, xolos. Bizga vazifa berilgan. Loyiha metro qurilishining eng tejamli usullarini hisobga olib tayyorlanishi kerak. Yopiq usul bilan tunnel qurish ochiq usulga nisbatan ikki barobar qimmatga tushadi. Ikki barobar! Shuning uchun moskvalik mutaxassislar trassaning ko‘proq qismi ochiq usul bilan kuriladigan bo‘lsin deyapti. Hozirgi ilk loyiada ochiq usul bilan kuriladigan joylarni ko‘proq ko‘rsataveramiz. Keyin masala umuman hal bo‘lganda hammasini boshqatdan tuzib chiqarmiz.

— Masala umuman yuqorida hal bo‘ladimi?

— Albatta!

— Unda metroning necha pulga tushishi oldindan ko‘rsatib beriladi, shunga yarasha mablag‘ ajratiladi. Agar ochiq usulda quriladitan uchastkalarni biz hozirdan ko‘p ko‘rsatsak, keyin buni kamaytirish juda ham qiyin bo‘ladi. Chunki buni kamaytirish — xarajatni necha yuz ming so‘mga, balki bir necha millionga oshirish degan so‘z. Hukumat bunga yo‘l qo‘ymaydi!

Sattor beixtiyor so‘nggi fikrga qo‘shilib, ichida «To‘g‘ri!» deb qo‘ydi. Metroning bahsi uning parishon hayollarini bir joyga yig‘ib, fikrini uyg‘ota boshladi. Anhor bo‘yidan kaytganda ko‘nglini xufton kilib turgan mavhum bir karaxtlik munozara shabadasidan asta-sekin tarqab ketdi-yu, bahsga sabab bo‘layotgan muammo uning ko‘zi oldida gavdalandi.

Shu o‘tirgan kishilarning to‘rttasi metro qurish tajribasi bilan tanishish uchun Moskva, Leningrad, Kiev, Boku, Tbilisi shaharlariga komandirovkaga borib kelgan edilar. Bularning biri Sattor edi. U har ikkala usuldagi metro qurilishini ko‘z oldiga keltirdi.

Yopiq usuldagagi kuriish xuddi shaxtalardagi kabi yer ostida olib boriladi. Yer yuzidagi binolarda, shahar ko‘chalarida odatiy hayot davom etaveradi. Odamlar yer ostidan metro trassasi o‘tayotganini sezmay ham qoladi. Ammo bu usul vaqtini ham, kuchni ham ko‘p oladi.

Ochiq usuldagagi qurilish xiyla arzonga tushishi va tezroq bitishi mumkin. Biroq, buning uchun shaharning yaqindagina sozlangan yashi ko‘chalari yana qurilish maydoniga aylanishi kerak. Ekskavatorlar eni o‘ttiz-qirq metr, chuqurligi o‘n-o‘n besh metr keladigan handaqlar qaziydi, behisob ko‘p tuproq uyumlari Toshkentning quruq va issiq iqlimida chang-to‘zonga aylanib havoni qoplaydi. Ochiq usuldagagi metro qurilishida kengligi salkam ellik metr keladigan «P» shaklidagi zo‘r kranlar rels ustida u yoqdan-bu yoqqa yurib turib ishlaydi. Bu kranlarning harakat doirasida bironta ham tikkaygan daraxt, bironta ham butun ko‘cha yoki bino qolmaydi.

Sattor hozir Fayzulla Beknazarovichga shuni aytib, stol ustidagi loyihaning bir joyini ko‘rsatdi:

— Menga mana shu nuqtadagi yer osti kommunikatsiyalarining o‘rnini o‘zgartirish loyihasi topshirilgan edi, — dedi. — Men bor sxemalarni qarab chikdim. Keyin o‘sha joyni borib ko‘rdim.

Menimcha, bu yer ochiq usulda metro qurishga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi.

— Nega to‘g‘ri kelmaydi? Bu yerda hech kanaka yirik inshoot yo‘q-ku!

— Lekin bu yerda yuz yillik chinorlar bor, ajoyib eman daraxtlari bor. Shaharning eng go‘zal, eng serdaraxt joylaridan biri shu. Men sanab chiqtsim. Agar mana shu joyda qurilish ochiq usudda olib boriladigan bo‘lsa, o‘ttizta yaxshi chinor, saksonta zo‘r eman tag-tomiri bilan ketadi!

Keksa bir loyihachi Sattorga o‘ychan ko‘z tikib dedi:

— Hakikatan, qurilishga zo‘r berayotganimiz yaxshi-yu, lekin ba’zi joylardagi daraxtlarni saqlab qololmayotganimiz chatoq-da. Yunusobod tomonda qanday ajoyib tokzorlar, olmazorlar bor edi! Oqtepa mavzeini eslang! Chilonzorning o‘zi ham, atroflari ham qulf urib turgan ko‘m-ko‘k bog‘-rog‘lar edi. Hammasingning o‘rnida hozir ko‘p qavatli binolar, devorlar-u, derazalar turibdi, xolos...

— Endi, agar har bitta daraxtni aylanib o‘taman desak, umuman qurilish qilib bo‘lmas edi, — dedi Fayzulla Beknazarovich. — Mana, markazda ehtiyoj qilib saqlab qolgan daraxtlarimiz ham oz emas. Noiloj nobud bo‘lgan daraxtlarning o‘rniga yangi nihollar o‘tqazyapmiz, hali kelajakda Toshkent yana ham ko‘kalamlashib ketadi.

Shu bilan Beknazarov Sattorning fikriga ham qo‘shilmaganini bildirdi.

— Biroq men siz buyurgan loyihani chizishga qo‘lim bormaydi, Fayzulla Beknazarovich, — dedi Sattor. — Men siz aytganday chiziq tortsam, qo‘lim qaltiraydi. Qalamim boltaga aylanib, shunday go‘zal daraxtlarni bekorga qiyratayotganday bo‘ladi!

— Siz bunaqa nozik hislarga ko‘p berilavermang, Sattor. Biz davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan loyiha ustida so‘z yuritayotirmiz. Biz ba’zi ko‘chalar orqali ham metro trassasini ochiq usulda qurib o‘tmochimiz. Bu ko‘chalarda ham daraxt bor, asfalt buziladi, beton olib tashlanadi...

— Asfalt buzilsa, yetti-sakkiz kunda qaytadan asfaltlash mumkin, — dedi Sattor, — lekin mana bu chinorlar bilan emanlarni qaytadan o‘stirish uchun yetmish-sakson yil kerak bo‘ladi! Axir bu daraxtlar o‘tgan asrda ekilgan, yaxshi qaralsa, yana bir necha asr turishi mumkin!

Fayzulla Beknazarovich betoqat bo‘lib soatiga qarab oldi:

— O‘rtoqlar, biz bunday masalalarni o‘zimiz hal qilolmaymiz. Yuqorida berilgan topshiriq bor.

— Bo‘lmasa, men yuqorilarga o‘sha daraxtlar masalasini yozib beraman! — dedi Sattor.

— Ammo topshirilgan loyihani bitirib, keyin yozasiz!

— Mayli.

Sattor o‘z xonasiga o‘gib chiroqni yokdi. So‘ng charchab, boshi og‘irlashib ketguncha ishladi.

Bugun Roziyaning anhor bo‘yiga kelmaganligi, erta-indin kelish-kelmasligi ham ma’lum emasligi, umuman, u Sattordan voz kechib ketishi mumkinligi hali ham uning ko‘ngliga tikanday qadalib turar edi. Ish va horg‘inlik mana shu tikanni allanechuk o‘tmaslashtirayotganday, uning zahrini olayotganday bo‘lar edi.

To‘rt kungacha Sattor butun alamini ishdan olib kechalari ham qolib ishladi, oqshomlari esa anhor bo‘yiga chiqishini qo‘ymadi. Kun o‘tgan sari uning Roziyadan umidi uzilib borar edi. O’shanda Roziyaning uchrashishi istagi borligini sezib, ajrashib ketish unga ham og‘ir ekanini ko‘ziga yosh oqqaqidan payqab: «Bir haftagacha har kuni kutaman!» deb yuborgan edi. Endi u o‘zining shunday deganidan hijolat bo‘ldi. Oilalik odam, Roziyaday qizga xomtama bo‘lib, uni yana uchrashishga bu qadar ko‘p da’vat etishi joizmidi? Sattorning bunga nima haqqi bor edi? Agar qiz uni unutolmasa, Sattorsiz yashay olmaydigan darajada yaxshi ko‘rsa, o‘zi qidirib topmasmidi? Ertalablari hayoli tiniqroq paytda Sattor o‘ziga-o‘zi: «Bugun oqshom chiqmayman, bas, baribir kelmaydi!» derdi. Ammo kun kech bo‘lgan sari Roziyaning unga sevgi izhor qilib aytgan gaplari esiga tushaverar edi. «Eng muhimi — orada shunday muhabbat bor! — derdi u o‘ziga -o‘zi. — Odamlar muhabbat yo‘lida nimalar kilmaydi! Balki Roziya bugun kelar, «Bir haftagacha» degan so‘zlar og‘zingdan chiqdimi, endi shu gapingda turasan!».

Sattor kechgacha ikkilana-ikkilana, oxiri soat oltidan o‘tgandan keyin yana anhorga qarab ketardi.

Uning yo‘lida qaytadan qurilayotgan kvartiralar bor edi. Buzilgan uylarning qoldiqdarini samosvallar olib chiqib ketgan, ilgarigi hovlilar va yo‘lkalarning o‘rni omon qolgan daraxtlar tartibidan bilinib turardi.

Ba’zi daraxtlarning tanasini buldozer g‘ajib o‘ggan, ba’zilarining shoxlarini ekskavator sindirib ketgan. Ba’zilari butun bo‘lsa ham, bu yerda omonat turibdi — loyihadagi qurilish boshlansa, noiloj olib tashlanadi.

Sattorning ko‘nglidagi umid ham mana shu daraxtlarga o‘xshab goh yarim-yorti, goh omonat ko‘rinar, goh hamma o‘zgarishlardan omon qoladiganday tuyulardi.

Beshinchı kun oqshom Sattor yana anhor bo‘yiga kelgan edi, uzun bo‘yli bir qiz unga yaqinlanshib salom berdi. Sattor uni qaerdadir ko‘rganini eslab yuziga tikilib qaradi. Bu barvasta qiz Roziyaning dugonasi edi, hu o‘shanda stadiondan chiqqan bezorilar Roziya bilan birga kinoga kirmoqchi bo‘lib o‘tirgan mana shu qizga ham osilgan edilar. Hozir bu qiz qo‘lidagi kitobning orasidan bitta konvert olib, Sattorga uzatdi:

— Roziya berib ketdi. Qechirasiz, — u Sattorga rahmi kelganday kilib qaradi: — Xayr!

Sattor «berib ketdi» degan so‘zdan yuragi «shig» etib konvertni ochdi. Unda kichkina bir xat bor edi:

«Sattor! Siz istagan yo‘ldan yurishga mening kuchim yetmas ekan. Bu xat yetib borganda men uzoq safarda bo‘laman. Alvido! R.»

Sattor birdan mag‘lubiyatga uchragan odamday butun vujudi madorsizlanib ketdi. Qirg‘oq bo‘yida keksa bir tol bor edi, shunga suyanib xatni yana bir o‘qimoqchi bo‘ldi. Ammo ko‘z oldi xiralashib, harflarni durust ilg‘ay olmadi.

Atrof ham allanechuk nursiz va begona bo‘lib qoldi. Sattor ko‘chalardan tusmol bilan o‘tib, yotoqxonaga qarab ketdi.

Ulkan shahar hamma chiroqlarini yondirgan. Ko‘cha va maydonlarni to‘ldirib yasan-tusan odamlar, rang-barang mashinalar yuribdi. Muzika sadolari eshitilyapti. Ammo bu shaharda endi Roziya yo‘q. Shuning uchun Toshkent ham Sattorga huvillab qolganday ko‘rinadi.

«Siz istagan yo‘ldan yurishga mening kuchim yetmas ekan...». Bu so‘zlar Sattorga haddan tashqari silliq va sovuq tuyuddi. «Bahona!» degan alamli so‘z hayolidan o‘tdi. — «Sen menga munosib emassan!» — deb ochiq aytolmay shuni o‘ylab topgan! Albatta, ko‘r-ko‘rona uylanib qo‘ygan menday qishloqi uchun Roziyaday kiz o‘zini fido qilarmidi? Toshkentdan ketibdi... Uzoq safarda, meni tezroq unutish uchun ketgandir. Xa, ha!».

Sattorning o‘zi ham Roziyani unutishga intila boshladi. Biroq Toshkentda hamma narsa, — hatto uyqusiz tunlarda chizgan metro loyihalari ham unga Roziyani eslatardi. Roziyaning oldida mag‘lubiyatga uchragani bir lahza ham xayolidan nari ketmasdi. Roziya har esiga tushganda qalbidagi ochiq yara bir yangilanar, Sattor kunu tun o‘zini ezayotgan ichki azobdan qutulish uchun biron yoqqa bosh olib chiqib ketgisi kelar edi.

Aksiga olib, uning eman va chinorlarni saklab qolish haqidagi taklifi ham ma’qul ko‘rilmadi. Hisoblab qaralsa, bu daraxtlar juda qimmatga tushar ekan. Or-tiqcha hisoblangan bu xarajatning mas’uliyatini hech kim bo‘yniga olishni istamas edi. Sattor shuni eshitgan kuni Fayzulla Beknazarovichning kabinetiga ariza ko‘tarib kirdi.

Beknazarov telefon trubkasini olib, nomer termoqchi bo‘layotganda arizadagi «ishdan bo‘shatishingizni so‘rayman» degan so‘zlarga ko‘zi tushdi-yu, Sattorga taajjublanib tikildi:

- Biron hodisa bo‘ldimi? Rangingiz sarg‘ayib ketibdi.
- Charchagan bo‘lsam kerak.
- Nega bo‘shamoqchisiz?
- Toshkentdan ketmoqchiman.
- Ie! Qayoqqa ketasiz?
- Qishlokqa.

Fayzulla Beknazarovich trubkani «shaq» etib joyiga qo‘ydi.

— Agronom, vrach yo o‘qituvchi bo‘lganingizda bu xohishingizni tabriklagan bo‘lar edim. Lekin siz Toshkentda, katta shaharning yer osti kommunikatsiyalarini loyihalayotgan injenersiz. Sizni davlat maxsus mana shu ishga o‘qitgan. Qishlokda nima qilmoqchisiz?

— Topilar biron ish.

— Buni durustroq o‘ylab ham ko‘rmabsiz chamasi? Tavba! Bir xil odamlar bor, shaharda ishi yurishmasa, darrov qishloqqa chopadi. «Qishloqda qiyinchilik ko‘proq, men qiyinchiliqdan ko‘rqlay ketyapman!» — demoqchi bo‘ladi. Qishloqqa jo‘nashi bilanoq go‘yo obro‘sisi oshadi. Nima, shaharda qiyin ishlar ozmi? Zilziladan keyin Toshkentni qayta qurish osonmidi? Bu ish hali bitmasdan, biz, mana, metro qurish orzusida yuribmiz. Shu masalada sizni komandirovkaga yubordik. Ko‘p narsani o‘rganib kelgan ekansiz, hozir yaxshi takliflar beryapsiz.

— O’tmaydigan takliflar... — deb Sattor ma’yus kulimsirab qo‘ydi.

— Ha, endi, biri o‘tmasa, biri o‘tyapti. Haligi uchta tashkilotning boshini qo‘shib, yagona kommunikatsiya qurish masalasi siz aytganday hal bo‘ldi. Tag‘in nima deysiz?

— Bunisi yaxshi bo‘pti.

— Sabr qilsangiz, o‘sha chinorlarni ham saqlab qolamiz. Bizning loyihalar Moskvada ko‘riladi. Iloji bo‘lsa, siz ham borasiz. Yopiq usulda quriladigan uchastkalarni bizga faqat Moskva ko‘paytirib bera oladi.

— Kim biladi hali... — deb Sattor yelkasini qisdi. Hozir uning ruhi tushib, dunyosi qorong‘i bo‘lib turgan paytda, «metro quriladi» degan gap ham unga ushalmaydigan bir orzu bo‘lib tuyulmoqda edi.

Fayzulla Beknazarovich uning bundan bir hafta oldin metro qurilishiga shubhasiz ishonib yurgan paytalarini esladi.

— Juda o‘zgarib ketibsiz-a! — dedi. — Yo haligi... biz kafeda ko‘rgan qiz...

Fayzulla Beknazarovich «o‘zgartiryaptimi» degan savolni berishga tili bormay, Sattorga hazilomuz kulib qaradi.

Sattor buning kulib gaplashadigan yengil gap emasligini aytgisi kelib, og‘ir tin oldi:

— Fayzulla aka, men ketishim kerak. Menga javob bering!

— Men sizga javob berish uchun sababini bilishim kerak.

— Sababini aytdim. Qishlog‘imga qaytmoqchiman.

— Yana «qishlog‘im» deysiz-a! Nima, bizning peshanamizga faqat qishloq bitilganmi? Mana, men ham qishloqdan chiqqanman. Shuning uchun men ham qaytib ketishim kerakmi?

— Men faqat o‘zimni aytyapman, Fayzulla aka!

— Xo‘p, siz o‘zingiz nega ketishingiz kerak? Men davlat topshiriqlarini sизsiz bajara olmayman! Nega endi javob berishim kerak?..

— Chunki men... Toshkentda yashashga loyiq emasman! Sattor shunday dedi-yu, birdan xo‘rligi kelib o‘pkasi to‘ldi. Fayzulla Beknazarovich kafeda Sattor bilan birga o‘tirgan chiroyli qizni yana bir esladi-da, yigitning boshiga qanday savdo tushganini sal-pal fahmlaganday bo‘ldi.

— Sattor, agar sizga birov shunday degan bo‘lsa, bekor aytipni!

— Gap birovning aytganida emas. Men o‘zim... ikki jahon ovorasi bo‘lib juda to‘yib ketdim! Bu yerda uyim bo‘lmasa, oilam bo‘lmasa!..

Fayzulla Beknazarovich Sattorning oilasi hali ham qishlokda yashashini, u ko‘p marta uy so‘rab murojaat qilganini esladi. «Bu ketishda biz ham yosh bir oilaning buzilishiga sabab bo‘lamiz!» degan o‘y ko‘ngliga tahlika solib o‘tdi.

— Mana bu talabingizga tushunaman, Sattor. Uy so‘rab bergen arizangizni ertagayoq yuqoriga ko‘tarib chiqaman. Kelgusi oyda bizga uchta kvartira ajratishmoqchi edi. Shundan birini sizga olib bermaguncha qo‘ymayman!

Beknazarov stolining ustida turgan qo‘ng‘ir charm muqovali kalendar-daftarini ochib, ertangi kunning varag‘iga Sattorni yozib qo‘ydi. Uning bu daftariga yozilgan ish bitmay qolmas edi. Ammo

Sattorni hozir uy ham uncha qiziqtirmas edi. Bu uyda kim bilan turadi?

Beknazarov unga arizasini uzatdi:

— Oling, yirtib tashlang!

Sattor arizasini qaytarib olgisi kelmas edi. U yomon bir muvaffaqiyatsizlikdan o‘zini yo‘qotib, nima qilishini bilmay esankirab o‘tirgan odamga o‘xshar edi. Beknazarov uning arizasini qo‘liga zo‘rlab tutqazdi-yu:

— Agar juda qishloqqa chiqqizing kelayotgan bo‘lsa, — dedi, — uch-to‘rt kunga javob beray. Borib bir o‘ynab keling. Bo‘ldimi endi?.. Boring, ertagacha haligi ishni bitiring-u, indin ketavering.

9

G’o‘za o‘tog‘iga chiqqan Oyshaxon kechki payt boshiga bir bog‘ o‘t qo‘yib uylariga qaytdi. Bostirmaga shoxidan bog‘lab qo‘yilgan targ‘il sigir arqonni uzgudek bo‘lib tortib, Oyshaxonga qarab intildi.

Hovliga kiraverishdagi eski uyda Oyshaxonning qay-nanasi Xosiyat xola qurt tutgan edi. Xosiyat xola qurtxonadan g‘ana olib chiqayotib keliniga ko‘zi tushdi:

— Hay, Oyshaxon, men sizni barg olib kelasiz deb o‘tiruvdim-a! Bu qurtlarga barg yetkazolmay o‘lib bo‘ldim...

— Ayajon, men brigadirga aytganman, aravada barg yuboradigan bo‘lgan. Sigir ham och turiptida, qarang.

Oyshaxon bostirmaga kirib, botsshagi o‘tning yarmini sigirning oldiga tashladi, qolganini bir chetga eltilib ko‘ymoqchi bo‘lib quchog‘iga oldi.

Shu payt darvozadan chamadon ko‘targan Sattor kirib keldi. Uni birinchi bo‘lib ko‘rgan Xosiyat xola:

— Voy, bolam keldi, Sattorjon keldi! — deb kuchog‘ini yozib o‘g‘liga tomon yurdi.

Oyshaxon eriga o‘girilib qaradi-da, quchog‘idagi o‘tni darrov yerga tashladi. yosh boladay chopib Sattorga peshvoz chikdi.

Xosiyat xola o‘g‘lini quchoqlab, yuzidan, peshanasidan o‘pmoqda edi.

Oyshaxon ularga yaqinroq borganda Sattorning oppoq neylon ko‘ylagiga, qoshikdek xushbichim tuflisiga, shaharcha qirgilgan chiroyli sochi va tiniq yuziga, boshdan-oyoq hamma yog‘i ozoda ekaniga ko‘zi tushdi. Shunda u o‘zining hozirgina daladan kelganini esladi. Kuni bilan o‘t yulib barmoqlari tormalgan, o‘tning yashili enib qolgan qo‘llari yuvilmagan edi... Oyshaxonga oyog‘idagi kirza etigi endi og‘irlik qilganday bo‘ldi. U Sattorga yo‘lay olmay, uch-to‘rt qadam berida to‘xtadi, qo‘lini orqasiga qilib, uyalib-tortinib so‘rashdi:

— Eson-omon keldingizmi, Sattorjon aka! Uch oydan beri yo‘lingizga qaraymiz! Ishlaringiz yaxshimi? Muxtor sizni juda sog‘indi... Xat ham yozmaysiz...

— Ish ko‘p. Qalay, durustmisizlar?

— Shukur, to‘rt ko‘z tugal. Muxtor, chop dadang keldi! Yuz-ko‘zi Sattorga juda o‘xshab ketadigan to‘rt yashar bolacha ariq bo‘yida oqizoq o‘ynab yurar edi. U ham oyi-siga o‘xshab avval yugurib keldi-yu, keyin dadasiga yaqinlasholmay Oyshaxonning pinjiga tiqildi.

— Dadang bilan ko‘rish, axir! — dedi buvisi kulib. Muxtor oyisining panasiga o‘tib, uning ko‘ltig‘i tagidan dadasiga mo‘ralab qarar edi.

— Bor, dadangni achom qil! — dedi Oyshaxon uning ustiga engashib.

Ammo oyisi qilolmagan ishni Muxtor uddalay olmadi. U ko‘pdan beri dadasini ko‘rmay undan juda uyaladigan bo‘lib qolgan. Bundan tashqari, Sattor bilan Oyshaxonning orasida qandaydir sovuqlik borligini bola ham sezadi. Bu sovuqlik ko‘proq dadasidan chiqayotganday bo‘ladi, shuning uchun Muxtor Sattordan begonasiraydi.

Oxiri Sattor o‘zi ona-bolaga yondashdi, Muxtorning boshini silab, yelkasiga sekin urib-urib qo‘ydi.

Shunda uning ochiq bilagi Oyshaxonning qo‘liga tegib ketdi. Shu birgina tegish Oyshaxonga erining quchib erkalashiday yoqimli tuyuldi. Sattor esa Oyshaxondan ter xidi kelayotganini sezdi. Xotinining bo‘ynida ter bilan birga qotgan kir chiziqlari ko‘ziga juda xunuk ko‘rindi.

— Oyshaxon shu topda daladan keluvdi! — dedi Xosiyat xola kelinini oklamoqchi bo‘lganday.

U kelini bilan o‘g‘lining hovli yuzida o‘zlarini vazmin tutib so‘rashganlarini, achenlashib ko‘rismaganlarini odobdan deb biladi, juda ma’qul ko‘radi. Biroq Sattor bilan Oyshaxonning orasidagi farq borgan sari ulkanlashib ketayotgani uni xavotirlantiradi. U Sattorning ko‘z qarashidagi noxush ma’noni payqab:

— Kelinimdan aylanay, kolxozning ishini ham o‘rinlatadi, uy ishini ham, — dedi. — Ertayu kech tinmaydi. Oyshaxonning hammadan rahmat olyapti, bolam! Mana 6u hovlidagi gullarga, rayhonlarga qara. Kim kelsa kelinimning gulchiligini maqtab ketadi.

Ayvondan berida, ariq bo‘yidaga so‘ri atrofida hafsala bilan o‘stirilgan turli-tuman gullar, sadarayhonlar chindan ham kishining ko‘zini quvontirar edi.

— Sattorjon aka, bultur mana bu oq atirgul sizga juda yokqan edi-ya, esingizdam? Bu yil qalamcha qilib ko‘paytirib, payvand qilgan edim, hammasi binoyiday oldi.

— Yaxshi, — dedi Satgor ovoziga kuvnoq ohang berishga tirishib. Lekin uning yuzi va ko‘zlaridagi ma’yuslikni Oyshaxon ko‘rib qoldi.

— Yo‘lda charchagandirsiz, ichkari salqin, kirib dam oling...

Oyshaxon uning jajji chamadonchasini yerdan olib, shifer bilan yopilgan o‘z uylariga tomon yurdi. Ammo Sattor hozir uyga u bilan yolg‘iz kirishni istamas edi. Ariq bo‘yida, sadaning soyasida turgan so‘rini ko‘rsatib:

— Ochiq havo durust, — dedi.

— Xo‘p, mana, hozir!

Oyshaxon birpasda so‘riga joy qilib, dasturxon yozdi. Xosiyat xola o‘choq boshida choy qaynatmoqda edi. Sattor hovlidagi anjir, shaftolidan uzib, uch-to‘rttasini yuvib yedi, choydan bir-ikki piyola ichdi. So‘ng Oyshaxon ovqatga unnaganda uyga kirib kiyimlarini almashtirdi, sochiqni yelkasiga tashlab, hovlidan chiqdi.

Ularning hovlilari daryo bo‘yida, qirg‘oqning balandroq joyida edi. Oftob endi botgan, sarg‘ish-qizil shafaq yorug‘ida daryoni to‘ldirib yoyilib oqayotgan ulkan suv juda ulug‘vor ko‘rinar edi. Sharqdagi qorli tog‘lar ortida ufq qoraya boshlagan. Tog‘ bilan daryo oralig‘idagi yam-yashil dalalar, serdaraxt qishloklar va qo‘ng‘ir adirlar oqshomgi soyalar og‘ushida benihoya keng ko‘rindi. Sattor o‘zini qiynayotgan qarama-qarshi hislarni shu kengliklarga yoyib yubora olsa ko‘nglining chigali yoziladiganday bo‘ladi. Bu ulkan kengliklar oldida uning hayolini band qilib turgan chigal o‘ylari kichik va ahamiyatsiz bo‘lib qolishini istaydi.

Biroq uning butun borlig‘i hali ham Roziya bilan, uning visoli-yu hijroni bilan band. Roziya uyg‘otgan hislar va undan qolgan xotiralar mana shu kengliklarga ham sig‘maydiganday tuyuladi. Sattor Roziyadan umidini uzishga intiladi. Uni unutishda oila yordam berar degan ilinj bilan kishloqqa kelgan. Hozir hayolan onasi tomonda turib, Oyshaxonni maqtashga tirishadi: «Shunday mehribon, mehnatkash juvon, shuncha yildan beri yo‘lingta qarab o‘tiribdi. Yana nima kerak? Sen qo‘lining kiriga-yu, ter hidiga bu qadar z’tibor berasan, o‘zing asilzodamisan? Mehnat nimaligini bilmaysanmi? Bir suv bilan yuvilib ketadigan narsalarga ichi qora odamlargina bunchalik ahamiyat beradi. Oyshaxonning qalbi toza, u senga jonini fido qiladi!».

Sattorning aqli aytib turgan bu gaplarga qalbi qulq solmaydi. Uning Oyshaxonga yuragi «jiz» etmaydi. Oyshaxon ham vaqtida ko‘pgina qishloq yigitlarini maftun qilgan xushbichim qiz bo‘lgani uning esiga tushadi. Yangi uylangan yili Sattorning Oyshaxonga ehtiros bilan intilgan paytlari ko‘p bo‘lar edi, «ishq» degani shudir-da!» deb o‘ylar edi. Ammo buning o‘tkinchi bir ehtiros ekanini, haqiqiy sevgi boshqacha bo‘lishini Sattor endi bilmoqda edi. Oyshaxon uni yaxshi ko‘rishi har bir harakatidan ko‘rinib turibdi. Ammo, Sattorning o‘zida muhabbat bo‘lmagani uchun Oyshaxonning

mehri unga malol keladi. Bu mehrdan u o‘zini beixtiyor olib qochadi. Bir chekkasi shuning uchun hozir hovlidan chiqib, daryoga cho‘milgani keldi.

Oyshaxon esa buning hammasini er kishiga xos vazminlik belgisi deb biladi. U Sattorning ko‘nglini olishga harakat qiladi. Xosiyat xola:

— Oshni men damlay, — dedi. — Siz uyingizni yig‘ishtiring, o‘zingizga ham qarang, bolam. Hali zamon yori do‘stlari Sattorjoni yo‘qlab keladi.

— Xo‘p, ayajon!

Oyshaxon shosha-pisha uyga kirdi, Sattor yechib ketgan oq ko‘ylak bilan kulrang shimni oynaband shkafga avaylab osib qo‘ydi. Sattorning o‘ziga qo‘l tegizishdan iymangan Oyshaxon endi uning kiyimlarini bag‘riga bosgisi kelar edi. Daxlizda Sattorning ikki poy tuflisi ikki joyda yotgan ekan. Oyshaxon ularni juftlab changini artib, tokchaga olib qo‘ydi.

Sigir sog‘adigan payt bo‘lgan edi. Buzoq daryoga yaqin o‘tloqqa arqonlab qo‘yilgan edi. Oyshaxon hovliga chiqqanda Xosiyat xola:

— Buzoqni men olib kelaymi, — dedi.

— Yo‘q, ayajon, siz oshni qilavering, men o‘zim olib kelaman.

Sattor daryoning qaerida cho‘milishini Oyshaxon biladi. Buzoq arqonlagan joydan daryoning o‘sha joyi yaxshi ko‘rinadi. Oyshaxon erini necha oydan beri kutib yurib, juda sog‘ingan, uni dam-badam ko‘rgisi keladi. U buzoqni yechib olar ekan, daryo chetida quloch otib suzayotgan Sattorga bolalarcha bir maroq bilan tikilib-tikilib qaradi. Shu topda u o‘zi ham maza qilib cho‘milayotganday zavqlanib kulimsirar edi.

O‘g‘ilchalari Muxtor ham daraxtlarning panasida turib, dadasingin suvda suzishini tomosha qilayottan ekan. Sattor suvdan chiqayotib uni va narirokda buzoqni arqonidan ushlab bu yokqa qarab turgan Oyshaxonni ko‘rib qoldi. Ona-bolaning tomoshabinligi Sattorga allanechuk noxush tuyuldi. U ensasi qotganday bo‘lib Muxtorga yuzlandi:

— Nega baqrayib turibsan? Cho‘milmoqchimisan? Qani, kel!

Bola uyalib oyisiga qarab qochdi. Oyshaxon o‘girilib, Sattorning badanini ko‘rdi, erining kelishgan qaddi-qomati va tanish jozibasini his qilib, yuragi «jig» etib ketdi. Tovushi allanechuk titrab:

— Ehtiyoj bo‘ling, bu yil daryoda suv ko‘p! — dedi. Shu bilan u o‘zining Sattorga mahram ekanini va erini tergashga ham haqi borligini aytganday bo‘ldi.

Agar Oyshaxonning o‘rnida Roziya bo‘lganda, Sattorga uning o‘girilib qaragani ham, tergagani ham benihoya yoqar edi. Biroq Oyshaxonning mahramligi Sattorning g‘ashini keltirdi. U xotiniga javob bermay qovog‘ini solib suvga qaytib tushdi.

Sattor o‘zida Oyshaxonga nisbatan sof muhabbat tuyg‘usi hech qachon bo‘lmanagini yana og‘rinib his qildi. Xali ko‘zi ochilmagan paytda oxirini o‘ylamay uylanganligi hozir unga umrbod tuzatib bo‘lmaydigan bir bukrilik bo‘lib tuyular zdi. Bukrilikni daryo yuvib ketishi mumkindek, Sattor oqin suvda holdan toyguncha suzdi. So‘ng a’zoyi badanida karaxtlikka o‘xhash bir osudalik his qilib, g‘irashira qorong‘ilikda uyga qaytdi.

Bu orada Oyshaxon ham yuvinib, taranib, kiyimlarini almashtirib olgan edi. Egnida gulobi rang krepdeshin ko‘ylak, ko‘k baxmal nimchasi ko‘kragini bo‘rttirib, belini xipcha qilib ko‘rsatadi. Ikki o‘rim uzun sochlari yurganda taqimiga urilib to‘lg‘anadi. Oyog‘ida yengil shippak. Qadam olishi, quvnoq chehrasi bugun Oyshaxon uchun bayram ekanini aytib turiyudi.

Sattorni ko‘rishga kelgan yoru birodarlari ham Oyshaxonni tabriklashadi:

— Qalay, xo‘jayin kelib xursand bo‘lib qoldingizmi?

— Rahmat, xush kelibsizlar!..

Ayvonga joy qilingan, dasturxon yozilgan edi. Xosiyat xola qo‘shnining o‘g‘ilchasiga pul berib, magazinga yuborgan ekan, uch-to‘rt shisha ichkilik ham keldi.

— E, bormisiz, Xosiyat xola! — deb mo‘ylov qo‘ygan yigit xursand bo‘lib shishalarni dasturxonning bir chetiga terdi. — Men sizga qoyilman. Tushungan onalardansiz-da!

— Ha, hozir shu o‘lgursiz mehmon kutib bo‘lmasligini tushunib qolganmiz! — kului Xosiyat xola.
— Osh bo‘lsin, xursandchilik qilinglar. Sattorjoni mast qilib qo‘ymasalaring bo‘ldi!

— E, bugun Sattor ichmasidan mast! — dedi mo‘ylovdor yigit. — To‘yan qo‘ziday bo‘lib o‘tirishini qarang!

Gur-gur kulgi Sattorni ham o‘z oqimiga bo‘ysundirib, kayfini ko‘tara boshladi. Mo‘ylovdor yigit hozir kolxozda aravakash edi. Sattor shunga ishora qilib:

— Quruq opqochasan-a, Yo‘ldosh, — deb qo‘ydi.

— Aravanimi? — so‘radi Yo‘ldosh. — Minadigan odam topilmayapti, topilsa shotisiga mindirib ham opqochar edim!

Askiya boshlanib ketdi. Sattor bundan besh yil burungi to‘y kechasini esladi. O’shanda Yo‘ldosh uning kuyov jo‘rasi edi. Sattor undan har xil askiyalar, latifalar eshitaverib, juda tashna-yu, betoqat bo‘lgan edi. Sattoring o‘shandagi tuyg‘ulari yana qaytib kela boshladi. Ikki-uch qo‘l ichilgandan keyin, unga boy a bukrilik bo‘lib tuyulgan narsa tekislanib ketganga o‘xshadi. U nozik hislardan batamom qutulishni istardi, aroq va askiya bunga yordam berishini payqab:

— Yo‘ldosh, kosaguli bo‘lsang durustroq quy, badan jimillaydigan bo‘lsin! — dedi.

— Men quyaman, sen shaharda eshitan haligidaqa... qiziq gaplardan olasanmi?

Sattor atrofiga qarab, gaplarini ayollar eshitolmasligiga qanoat hosil qildi-da:

— Bo‘pti! — dedi.

Oyshaxon ularning so‘zini eshitmasa ham, shirakayf kulgilaridan gap nima hakda borayotganini taxmin qilmoqda edi. U mexmonlarning tezroq tarqalishini va Sattoring bir o‘zi qolishini istardi.

Nihoyat, Sattor mehmonlarni kuzatib hovlidan chiqdi. Ular ko‘chada ham ancha vaqt chaqchaqlashib turishdi. Bu orada Oyshaxon ayvondagi dasturxonni apil-tapil yig‘ishtirdi. Muxtor so‘rida uxbab qolgan edi, uni uyga olib kirib yotqizdi. So‘ng bir vaqtlar eri xush ko‘rgan tungi ipak ko‘ylagini sandikdan oldi-da, chiroqni o‘chirib, ko‘ylagi tagidan uni kiydi. Oyshaxon chiroqni yana yoqib, to‘shak ustiga oppoq choyshab yozayotganda Sattor kirib keldi.

Oyshaxon yosh qizchaday uyalib, ko‘zlarini eridan olib qochdi. Kayfi ancha oshib qolgan Sattor xiyol gandiraklab unga yaqinlashar ekan:

— Oysha, bilaman, sen meni yaxshi ko‘rasan! — dedi. — Sen mening peshanamga bitilgan ekansan! Sen...

— Shoshmang, eshikni yopay!.. Sattorjon aka hozir... Oyshaxon eshikni yopib, chiroqni o‘chirdi.

* * *

... Katta bir maydonda osmonga otolib turgan fontanning suvi siyohday qoramtil ko‘rinadi. Fontan atrofida o‘n qavatlimi, o‘n besh qavatlimi, ishqilib, juda baland binolar bor. Shu binolardan birida eng yuqorigi qavatning ochiq derazasida Roziya ko‘rindi. Sattor yerda, ora uzoq. Shunday bo‘lsa ham, Roziya havo rang kimono ko‘ylak kiyganini Sattor aniq ko‘rdi. Sattor uning yelkasigacha ochiq turgan nafis bilagidan olmoqchi bo‘ddi. Ammo Roziya uzoqda edi, qo‘llarini pastga yordam so‘raganday qilib cho‘zdi. Bir qo‘lida allanarsa yiltiradi. Kalitmi?

Sattor tezroq unga yetib bormoqchi bo‘lib chopdi. Shu payt yer ostidan bir balo gumburlab, binolar ustma-ust silkinib, zilzila boshlanib ketdi. Sattor jon holatda qochmoqchi bo‘ldi. Ammo larzaga tushtan yer uni qadam bosgani qo‘ymay u yokdan-bu yoqqa otar edi. Sattor dahshat ichida Roziya turgan yuqorigi qavatga qaradi. Boya Roziya turgan derazada endi Oyshaxon paydo bo‘ldi. Baland bino qattiq lapanglab, yukorigi qavati chang-to‘zon ko‘tarib quladi. Oyshaxonmi, Roziyami buzilgan devor g‘ishtlariga, deraza taxtalariga aralashib pastga uchib ketdi. Boshqa bir ulkan devor to‘g‘ri Sattoring ustiga qulab tushmokda edi. Sattor:

— A-a-a! A-a-a! — deb ustma-ust baqirdi-yu, o‘z ovozidan o‘zi uyg‘onib ketdi. U vahima ichida o‘rnidan sapchib ko‘tarilgan, hozir to‘shakda sovuq terga botib, titrab-qaltirab o‘tirar edi.

Oyshaxon ham uyg‘onib ketdi.

— Voy, nima bo‘ldi, Sattorjon aka, nima bo‘ldi? — deb uyqu aralash uni yelkasidan quchoqladi.

— Tushimda... zilzila... — dedi Satgor zaif tovush bilan va Oyshaxonning quchog‘idan yelkasini bo‘shatib oldi.

— Qurib ketsin bu Toshkent zilzilasi, hech esingizdan chiqmaydi-ya. O’shanda yomon qo‘rqan ekansiz-da.

Oyshaxon to‘shakning bosh tomoniga sovuq choy qilib qo‘ygan edi. Ko‘lini cho‘zib choynakni topdi-yu, qorong‘ida piyolani topolmadi: Mang, jo‘mragidan icha qoling.

Hamma yoq tinch, osuda. Pastdan tungi daryoning bosinqi shovillashi eshitiladi. Hovlida hasharotlar bir qiyomda chirillarydi. Sattor yaxnani ichayotganda choynak qopqog‘ining shiqirlashi ham tun sukunatini ta’kidlaganday bo‘ldi.

Sattor yostiqqa qaytib bosh qo‘yar ekan, bo‘lib o‘tgan qo‘rqinchli voqeaning tush ekanligini o‘ylab, sal yengil tortdi, «Xayriyat!» degan so‘z ko‘ngliga iliq tegdi. Ammo uning og‘zi taxir, a’zoyi badani oqshomgi aroqdan tirishib, zirqirar edi. Ichib olib aytgan gaplari va qilgan qiliqlari esiga tusha boshladи. Uyqusi ochib, o‘ziga-o‘zi jirkanch ko‘rinib ketdi.

Oyshaxon birpasda yana uxbab qoldi. Sattor boshqa uxbab olmadi, o‘rnidan turib sekin kiyindi-da, hovliga chikdi. Ko‘rgan tushining dahshati ko‘z oldidan nari ketmas edi. Nazarida, Roziyaga bir gap bo‘lgan yoki bo‘ladi. Qulagan devorning derazasidan Oyshaxon ham ko‘ringan edi-ku?

Sattorni oldinda yomon bir falokat kutayotganday ko‘ngli bezovta. U o‘zini gunohkor sezadi. Vujudi bo‘shashgan, ta’bi kir. Hali Oyshaxon uyg‘onsa u bilan qanday yuz ko‘rishishini, qanday gaplashishini bilmaydi.

Tong bo‘zarganda Sattor ko‘chaga chiqib ketdi.

10

Qishloq yozda erta uyg‘onadi. Hali ufq sarg‘aymasdan mo‘rilarda tutun paydo bo‘ladi. Hovlilardan sigir sog‘ayotgan ayollarining tovushi keladi, dalalarda tuni bilan g‘o‘za sug‘organ dehqonlarning sharpasi ko‘rinadi, ko‘chalardan mashina va aravalar chang ko‘tarib o‘tadi.

Sattor tong sahardan beda tashishga chiqqan Yo‘ldoshning avtokachkasiga minib, bedazorga bordi. So‘ng avtokachkaga tom bo‘yi qilib ortilgan yumshoq yo‘ng‘ichqa ustida yonboshlab yotib qishloqqa qaytdi.

Tagidagi yo‘ng‘ichqanining yoqimli hidi Sattorga uylanmasdan oldingi beg‘am, betashvish o‘smirlig yillarini eslatar edi. Tepadan unga tanish ko‘chalar, tanish uylar, dalalar bir-bir ko‘rinib o‘tardi. Ho‘narigi katta yo‘l asfalt bo‘libdi, atrofiga bir kator yangi uylar tushibdi. Bolalikda Yo‘ldosh ikkovi mol boqib yurgan qo‘riqlarga ham paxta ekilibdi. Oldinda sarg‘ish rashta bo‘yalgan maktab binosi ko‘rindi. Sattor ma’sum o‘quvchilik yillarini eslab, buning endi hech qachon qaytmasligini o‘yladi-yu, yuragi ezildi. Ko‘nglida yana bugun yomon tush ko‘rib uyg‘ongandagi xiralik va g‘ashlik paydo bo‘ldi.

Bir payt Yo‘ldosh tizginni ikki qo‘llab tortib, avtokachkani to‘xtatdi-da, Sattorga o‘girildi:

— Rais turibdi. Tushib ko‘rishmaysanmi?

Sattor qaddini ko‘tarib pastga qaradi. Arik bo‘yida yer kovlaydigan va tuproq suradigan qizil traktor yonida yashil gazik ko‘rindi. Narirokda sariq shohi kitel va qo‘ng‘ir brezent etik kiygan rais bir-ikkita odamlar bilan gaplashib turibdi. O‘ttiz besh yoshlardagi bu miqti yigit Oyshaxonning tog‘asi. Sattor qishloqqa har kelganda uni maxsus borib ko‘rar edi. Bu gal uni shu yerda ko‘rib o‘tgisi keldi-yu, avtokachkadan tushib qoldi.

— E, Sattormisan? — deb rais u bilan iliq so‘rashdi: — Sen ham beda tashib yuribsanmi? Qachon kelding?

— Kecha. Hormangizlar endi!

— Ha, mana vodoprovodni ariqning tagidan qanday olib o‘tishning maslahatini qilyapmiz. Ishimiz

kimyolashib, dori ko‘payib ketdi. Qishloqchilik, ariqlar hammasi ochiq. Odamlar suvni vodoprovoddan ichmasa bo‘lmay qoldi.

— E, juda to‘g‘ri!

Sattor qishloqqa o‘tgan gal kelganida vodoprovod loyihasining u yoq-bu yoqlarini ko‘rib, ba’zi nozikroq joylariga aniqlik kiritib bergen edi. Quruvchilarning brigadiri unga shuni eslatdi:

— Quvurni mana bu ariqdan ham o‘sha siz chizib bergen sxema bilan olib o‘tmochimiz.

— To‘g‘ri kelyaptimi axir?

— Sxema yaxshi, lekin material yetishmayapti.

— Beri kel, — deb rais Sattorni bilagidan olib chetroqqa chiqardi: — bu brigadir bo‘shroq chiqib qoldi. Hali quvur topolmaydi. Hali jo‘mrak yo‘q, hali u, hali bu. Mayda-chuydalar jonga tegdi. Sal yordam bersang-chi!

— Men ham shu... topog‘onliqda yo‘qroqman.

— E, qo‘ysang-chi. Shunday katta dargohda ishlab yuribsan. Toshkentda tanishlaring ko‘p.

Sattor miyig‘ida kulib, yerga qaradi:

— Mayli, ta‘minot bo‘yicha ishlaydigan odamlarin-giz Toshkentga borganda kirishsin. Qo‘limdan kelsa jo-nim bilan...

Rais Sattorning oilasi to‘g‘risida ham gap ochmoqchi bo‘ldi-yu, ammo yo‘l ustida buni o‘ziga ep ko‘rmadi.

— Bir kelgin. Gaphaelamiz, — dedi-da, mashinasiga o‘tirib jo‘nab ketdi.

Sattor uyga qaytayotib yo‘l-yo‘lakay Roziyani va u bilan bo‘lgan so‘nti uchrashuvni eslab ketdi. O’shanda Roziya «ha» desa hozir shu kunlarda Sattor Oyshaxon bilan o‘ydi-chiqdi bo‘lib yurarmidi? Unda Oyshaxonning butun qarindoshlari, shu jumladan, mana bu miqtisi rais Sattorga qanchalik qahru g‘azab bilan qaragan bo‘lishardi... Onasi Xosiyat xolaning ahvoli nima bo‘lar edi? Burnog‘i yil Sattorning otasi o‘lgandan beri kampir hiyla cho‘kib, munkayib qolgan, Sattorning imoratsoz usta akasi rayonga ko‘chib ketgan, singlisi ko‘shni qishloqqa tushgan. Xosiyat xola hozir kichik kelini Oyshaxonga suyanib yuribdi.

«Harakat kilib, murosa yo‘lini tutish kerak, taqdirda bori shu bo‘lsa, ilojim qancha!» degan o‘y bilan Sattor hovliga kirdi.

Oyshaxon bugun brigadirdan javob olib, uyda qolgan, allaqachon nonushtani tayyor qilib, Sattorni kutib o‘tirgan edi.

— Voy, Sattorjon aka, qayoklarda yuribsiz? Siz yaxshi ko‘rasiz deb achchiq mastava qilgan edim... Keling tezroq!

Oyshaxon juda ochilib ketgan, ko‘rinishi quvnoq. Ertalabdan qoshlariga o‘sma qo‘yishga ham ulgurgan. «Men ezilgan sari bu yayraydi! — ichi muzlab o‘ylandi Sattor. — Nahotki hech narsani sezmasa?!»

— Ayam qani? — bug‘iq ovoz bilan so‘radi u.

— Ayam hali choy ichib oldilar, och yurishga chidamlari yo‘q. Hozir qurtxonadalar. Chiqing ayvonga, men mastavani quyaman.

Saggor Oyshaxon bilan yuzma-yuz o‘tirib, xoli suhbatlashishga toqati yetmasligini sezdi.

— Sen quyaver, men ayamni chaqkiraman, — deb qurt utilgan xonaga kirdi.

Bir vaqlar chol-kampir turganda devorlariga naqshlar solingan sertokcha uy hozir qavat-qavat so‘rilar bilan to‘lgan. Eshik-derazalar yopiq, ichkari dim. Ipak qurti issiqni yaxshi ko‘radi. Hamma yoqdan xuddi yomg‘ir shitir-shitiriga o‘xshaydigan shitirlash eshitiladi. Barg va novdalar orasida o‘rmalab yurgan behisob oq qurtlar tinmay yaproq yeydi. Xosiyat xola ularga ovqat yetkazib berolmay ovora.

— Hormang!

— Sattorjon, kel, bolam.

— Qani, yuring, o‘zingiz ham ovqat yeng.

—Aylanay sendan, menga ilindingmi? Hozir, yerga tushgan anu juvonmarglarni olib qo'yay. Bular kechki-da. Reja bajaramiz deb boqyapmiz. Bo'lmasa saraton kirdi-ya!

Xosiyat xola qo'liga kurak oldi. So'rining tagiga tushib ketib, yerda g'ivirlab yotgan uch-to'rtta qurtlarni supurgi bilan avaylab kurakka o'tkazdi-da, so'ridagi barglar ustiga chiqarib qo'ydi.

— Hozir bularning uyg'ongan payti, bolam, — deb tushuntirdi Xosiyat xola o'g'liga. — Ishtahalari karnay. Jaydari tutning bargidan qancha bersang yeydi. Bargi katta allambalo tut bor-ku?

— Yapon tutimi?

— Ha, uni ko'p suymaydi. Uni zo'rlab yedirsang, keyin pillani ham yaxshi o'ramaydi. Bular shunaqa nozikki, vay-vay-vay!..

«Tili yo'q qurtning shuncha nozik xislatlarini bilibsiz, — o'ylandi Sattor o'zicha. — Mening ko'nglim vayron bo'lib yurganini nega sezmaysiz, onajon!».

Bundan besh yil oldin Sattor «uylanmayman», deb ko'p sarkashlik qilgan, «avval o'qishimni bitiray, ishga kiray, keyin bir gap bo'lar», deb to'yga rozilik bermagan edi. Ammo kasalmand otasi: «Ko'zim ochig'ida seni uylantirmasam bo'lmaydi!» deb turib olgan, onasi ham: «Oyshaxon hozir bo'yi yetib turibdi, sen o'qishni bitirib kelguncha ota-onasi qarab o'tirmaydi, boshqa birovga berib yuboradi!» deb to'yni tezlatgan edi. «Oqibati nima bo'ldi? — dedi Sattor hayolan onasiga murojaat qilib.

— Hatto shu ipak qurtiga ham suymagan bargini zo'rlab yedirsangiz pilla o'ramas ekan. Axir men odamman-ku! Sizning o'g'lingizman-ku! Men qandoq qilay?».

Sersoya ayvonda Sattor Oyshaxonning yoniga o'tirib mastava ichar ekan, xotinining yuziga qaray olmas, biror joyi unga tegib ketishidan cho'chir, o'zini majbur qilib, odob yuzasidan uzuq-yuluq gaplashar edi. Shuning ustiga Oyshaxon o'zining kosasidan chiqqan bir parcha go'shti Sattorning kosasiga soldi:

— Men to'yib qoldim, oling, Sattorjon aka.

Sattor qoshig'ini ko'targanicha Oyshaxonga hayratlnib qaradi, so'ng kutilmaganda jahli chiqdi:

— Farosat bormi, o'zi?! Ol, endi buni ham o'zing ich!

Sattor mastavasini xotiniga tomon surib qo'ydi. Oyshaxon bilmasdan gunoh qilib qo'ygan boladay bir kizardi, bir bo'zardi, so'ng ko'zları yoshlanib, qaynanasiga qaradi.

— Shaharda yurib muncha nozik bo'lib ketibsan! — deb Xosiyat xola o'g'lini jerkidi. — Bir yostiqqa bosh qo'yaningdan keyin, bir kosadan ovqat yesang nima bo'libdi?

— Dunyoda odob degan gap bor, madaniyat degan gap bor! — Sattor hech kimga qaramay bo'g'ilib gapirar edi:

— Bu ham o'rtta maktabda o'qigan-ku, axir, sakkizinchini bitirgan, nahotki fahmi yetmasa?

— Xo'p, kechirasiz, — dedi Oyshaxon sekin va Sattorning ovqatini olib dasturxon chetiga qo'ydi. So'ng o'choq boshiga bordi, boshqa kosaga mastava suzib kelib, erining oldiga qydi. — Oling, osh bo'lsin!

Sattor arzimagan narsadan shunchalik achchiqlangani uchun endi izza bo'ldi.

— Gap ovqatda emas, umuman... — deb o'zini oqlashga urindi, ammo davomini aytolmadı.

— Besh-o'n kun turadigan bo'lib keldingmi? — dedi Xosiyat xola gapni yangilash uchun.

Sattorning hoziroq ketgisi kelar edi. Ammo to'rt kunga javob olganini eslab:

— Uch kundan keyin ketaman. — dedi.

— Yana «Ketaman!» deysan. «Kelaman!» degan gapingni otang rahmatlik kuta-kuta, axiri, o'lib ketdi. Mening ham necha kunlik umrim qolgan, Xudo biladi. Oyoq-qo'ling bog'log'lik bo'lsa tezroq kaytarsan deb, mana, Oyshaxonga uylantirib qo'ydik. Peshanamdan aylanay, kelinga yolchidim. Kelnim tilla chiqdi. Lekin sen meni kuydiryapsan, bolam! Kechalari o'ylasam uyqum qochib ketadi. Axir, askarliqda emassanki, javob ololmasang! Nega kelib, otangdan qolgan shu hovliga ega bo'lmysan?

— O'ttan gal tushuntirib beruvdim-ku, aya!

— E, qo‘y-e! Sen o‘sha Toshkentga yomon o‘rgangansan. Endi yerning tagidan yer qazib, g‘ordan allambalo poezd yurgizmoqchi emishsizlar. O‘zi zilziladan keyin yer hilvirab turgan bo‘lsa, seni ham bosib qolmasin tag‘in?

— Men g‘orda ishlarmishmanmi? Kim aytdi shuni sizga?

— Mana, Oyshang u kuni shunday deb tushuntirdi.

Sattorning «metro quramiz» deb yurganini Oyshaxon ham eshitgan edi. U metroni umrida ko‘rmagan, faqat maktabda bir oz ta’rifini eshitgan edi. Yer tagida yuradigan poezdlarni o‘ylasa, ko‘z oldiga kattakon g‘or kelar edi.

— Yerni kovlayversalar yer bo‘lmaydimi? — dedi u Sattorga uyalib ko‘z tashlarkan.

Sattor zaharxanda qilib:

— Durustsan, — dedi. — Haligacha mening nima ish qilishimni bilmaysanmi?

— Bilaman. Anaqa... reja chizasiz.

— G‘ordami?

— Yo‘q, anaqa... bultur borganimizda uch qavatli uyni ko‘rsatgan edingiz-ku. O‘sha yerda ishlaysiz-a? Rejani chizib bo‘lganingizdan keyin... anaqa... yerning ta-gida ishlaydiganlarga o‘zingiz olib borib... anaqa... tushuntirib berasiz. Shundaymi?

Oyshaxon darsda tutilib-tutilib javob berayottan talabaga o‘xshar edi. Xosiyat xola kelinidan zavqlanib kulib qo‘ydi. Sattor esa og‘ir «uh» tortdi.

«Umr yo‘ldoshim shu! — o‘ylandi u ichki bir dard bilan. — Mening butun hayotimga sherik, butun faoliyatimga hamkor bo‘ladigan sirdosh ayol, ko‘nglimni ipidan-ignasigacha tushunishi kerak bo‘lgan hamdard xotin shu!..»

Birdan Sattorning esiga Roziya tushdi. Moskvalik katta olimni Toshkent bo‘ylab olib yurgan, keyin anhor sohilida Sattorga shu qadar nafis, shu qadar teran gaplarni aytgan Roziya...

— Nima bo‘lganda ham, endi shahar bas, shu yerga kel, — dedi Xosiyat xola o‘g‘liga. Sattor indamas edi. — Yo bo‘lmasa boshqa bir yo‘lini top! Tokaygacha sargardon bo‘lib yurasan? Xotining bilan o‘g‘ling bu yoqda intizor, sen u yokda sarson! Bo‘ldi-da endi!

Xosiyat xola shu tarzda gapira-gapira qurtxonaga kirib ketdi. Oyshaxon choy damlab keldi. Qo‘l kovushtirib kelinchaklik odobi bilan Sattorga choy uzatdi.

— Siz ham... yolg‘iz yurib juda zerikkan ko‘rinasiz, Sattorjon aka. Issiqsovug‘ingizdan xabar oladigan odam yo‘q... Agar kelolmaydigan bo‘lsangiz... Mayli, biz Muxtor bilan boraylik...

— Ayam-chi?

— Ayam bu hovlini tashlab ketolmasalar kerak. Yolg‘iz qolmasinlar desangiz, xolamga aytamiz, kelib birga turadi. Men gaplashib qo‘yanman.

— Astoydil-ku!.. Rais tog‘ang bilan ham gaplashganmisan? Senga javob berarmikan?

— Bermay nima! Er qaerda bo‘lsa, xotin ham o‘sha yerda bo‘lishini biladilar. Bir marta o‘zлari shunday deganlarini eshitganman.

— Xo‘p, Toshkentda qaerda turmoqchisan?

— Yaqinda uy beradi, demadingizmi!..

— Qachon aytibman?

— Bugun kechasi... — Oyshaxon uyalib, ayni vaqtida bolaning shirin gapini eslaganday zavqlanib davom etdi: — Esingizdan chiqdimi? «Sen peshanamga bitilgansan» ham dedingiz.

Sattor kayf bilan aljib aytgan gaplarni Oyshaxon bunchalik yoqtirib va faxrlanib eslayotgani uning g‘ashini keltirdi. Piyoladagi choyiga makruh bir narsa tushganday, Sattor uni hovliga sepib tashladi. Ensasi qotib:

— Hali uy bergani yo‘q, — dedi. — Avval bersin, keyin ko‘rarmiz.

— Voy, ko‘rarmiz deganingiz nimasi? Uy bersa ham bir o‘zingiz turmoqchimisiz? Bizsiz-a?

Sattorning nazarida, Oyshaxon hali berilmagan uyga oldindan ega bo‘lmoqchiday, xotinlik haqini

da'vo qilib, erining kelajagini ham qo'liga olmoqchiday ko'rindi. Sattorning ko'nglidagi g'ashlik yana birdan jahlga aylandi:

— Hali uy bergani yo'q dedim-ku! Bersa keyin da'vo qilasan!

Oyshaxon esankirab, dovdirab qoldi:

— Ie... a... men nima da'vo qilibman? Nima bo'ldi sizga, Sattorjon aka? To'g'ri gapga ham achchig'ingiz keladi!

— Sen nimani tushunasan?! Peshonamga bitilgan emish... Qurib ketsin bunday peshona!

Sattor o'rnidan turib, hovlidan chiqib ketdi. Kechgacha daryoda baliq ovlab, qishloqda tanishbilishlar bilan aylanib yurdi.

Uyga qaytishi kerakligini o'ylasa, yuragi bezillar edi. Suymagan xotini bilan yashash yashirin bir bukrilikni badanida olib yurishday jirkanch tuyulardi. Bu bukrilik uni huda-behudaga jahli chiqaveradigan mijg'ov, jizzaki odam qilib qo'ymoqda edi. Kechasi baribir Oyshaxonning yoniga borishi kerakligini o'ylasa, choyxonada oshga qo'shilib jo'rabolik qilgisi, kechagiday aroq ichib, mastlikda hamma narsani unutib, ko'pol bir hirs bilan uyga qaytgisi kelar edi.

«Bu ketishda oxiri nima bo'ladi? — degan o'y yuragini kemirib o'tdi. — Men Roziyani unutaman deb kelib, olijanoblikni unutyapman shekilli?».

Roziya bilan birga o'tgan musaffo damlar... Qani Sattorning o'shandagi samimiyligi? Roziya unga: «Men hali umrimda sizchalik yaxshi yigitni uchratmagan edim!» deganida, uning yuzidan o'pib xayrashganida Sattor chindan ham shu so'zlarga, shu o'pichga o'zini munosib sezgan edi. Hozir-chi? Sattor o'ziga-o'zi xiyonat qilganday yomon ko'rindi. Bugun kechasi ko'rgan tushida mash'um bir ma'no yo'qmikan? Tushida zilzila bo'lib uni otib-otib tashlagan zamin — xiyonatga karshi isyon ko'targan muhabbat emasmikan? Qulagan devor... Roziyaning yordam so'raganday pastga qo'l cho'zib turgani... Buni qanday ta'bir qilish mumkin? Tush hamma vaqt ham to'g'ri kelavermay-di! Ammo Roziyaga biron gap bo'ldimikan? U o'zi qayoqqa ketgan, hozir qaerlarda yuribdi? Sattor o'shanda buni surishtirib bilmaganiga endi pushaymon bo'ldi. Besh kungacha anhor bo'yiga borib, bekorga intizor bo'lib yurguncha ish joyiga borib xabar olsa bo'lmasmidi? O'sha oqshom Roziya yig'lab aytgan gaplaridan uning ham mushkul ahvolga tushib qolgani bilingan edi-ku!

Sattor Roziyani kidirib topmassa va uning ahvolidan tezroq xabar olmasa, keyin bir umr armon qilib yuradiganday bezovtalana boshladi.

11

Yurib ketayotgan zinapoyalar g'uj-g'uj odamlarga to'lib, yetti qavat yer tagiga tushib boradi. Yer ostidagi marmar qasrning silliq devorlarida bir ko'payib, bir kamayib o'tayotgan xaloyiq to'lqini akslanadi. Ikki tomondan ikki yoqqa qarab o'tadigan havo rang poezdlar xar gal odam tushirganda yo'lovchilar hamma yoqni to'ldirib eskalatorga karab oqadi. Yurib turgan eskalator ham xuddi oqayotgan suvgaga o'xshaydi — har zinasi go'yo bu suvning bir tirik to'lqini.

Hali metroda ko'p yurib o'rganmagan Sattor bu «tirik» zinaga ehtiyyot bilan qadam qo'ydi. Zinapoya bilan yonma-yon qora rezinka tutqich ham yurib bormoqda edi. Sattor bir qo'li bilan shunga suyanib muvozanat saqladi-da, yuqoriga qaradi.

Ish soatlari tugagan, yuqoridan bir emas, ikkita eskalatorni to'ldirib, tumonat odam tushib kelmoqda edi.

Qarama-qarshi turib yuqoriga ko'tarilayotgan va pastga tushayotgan kishilar bir-birlariga juda aniq ko'rindi. Sattor ro'paradan o'tayotgan odamlar oqimiga qarab-qarab boradi. Birovlar hayolchan, birovlar gaplashib ketyapti, birovlar shu yerda ham kitob o'qiydi. Dunyoning turli tomonlaridan kelgan xilma-xil kiyimlar, g'alati-g'alati yuzlar, yulduzlarday behisob ko'zlar... Shular orasida Sattor uzokdan sariq atlas ko'ylakni ko'rib yuragi «jig» etdi. Bu ko'ylak qirq yoshlardan oshgan to'la gavdali ayolning egnida edi. Ayolning yonida Sattorga yarim o'girilgan holda xipcha bir qiz guribdi. Yaponcha

kofta kiygan. Baland prichyoska qilingan qop-qora sochiga guldor durra o'ragan... Qaddi-qomati Sattorga juda tanish ko'rindi. Eskalatorlar ularni bir-birlariga yaqinroq olib kelganda qiz allakimning tikilganini sezib yuzini bu yokqa o'girdi. Ko'zi to'satdan Sattorga tushdi-yu qiyg'och qoshlari parvoz qilayotgan qushning qanotiday silkindi.

Sattor azbaroyi hayajonlanganidan ovozi ichiga tushib ketdi. Lablari ko'karib:

— Roziya... — deb pichirladi. O'zi yurar zinapoya Roziyani uning yonidan olib o'tib, pastga tushib keta boshladi. Sattorning oyog'i tagidagi zinapoyalar esa tinmay yuqoriga o'rmalayapti. Sattor bu zinapoyalarni darhol to'xtatgisi kelib, rezinka tutqichni ikki qo'llab changallaganicha Roziya tomon talpindi.

Roziya salom berganday kilib qo'lini ko'tardi. Sattor allakimga suykalib, kimnidir itarib, bir-ikki kadam orkaga chekindi. Ammo qudratli zinalar uni Roziyadan tobora uzoqqa olib ketmoqda edi. U hamma narsani unutib, baland ovoz bilan:

— Roziya! — deb qichqirdi. — Men sizni qidirib yurgan edim... Roziya!.. Men hozir tushib boraman!

Hamma unga o'girilib qarar, ammo Sattor Roziyadan boshqa hech kimni ko'rmas edi. U ko'llarini harakatlantirib yuqoridaan aylanib tushmoqchi ekaniga ishora qildi. Ko'zları javdirab uzoqlashib ketayotgan Roziya yana qo'lini ko'tarib, bir-ikki silkitdi. Bu uning: «Tushundim!» deganimi yoki xayrashganimi, Sattor bilolmay qoldi. Roziya kutmay ketib qolishi ham mumkin edi. Sattor uning shu tomonlarda yurganini hamkasblaridan so'roklab bilgan edi. Necha kundan beri qidirib yurib, Roziyani endi topgan paytida nahotki birpasgina qarab turmay ketib qolsa?

Zinaning yurishi Sattorga haddan ortiq sekin tuyuldi. U odamlar qatorini yorib o'tib, shosha-pisha zinadan zinaga ko'tarila boshladi. Yuqoriga chiqqan zahoti «lip» etib pastga tushiradigan eskalatorga chopib o'tdi. Yana zinadan zinaga sakrab, odamlarning ranjishlariga ham karamay pastga tomon otildi.

Bu orada Roziya yonidagi ayol bilan eskalatordan tushdi-yu, sal nariga borib to'xtadi. U Sattorni ko'rib allanechuk garangsib qolgan, oyoq-ko'llari bo'shashib, atlas ko'yakli xotinning bilagidan ushlaganicha unga suyanib turar edi. Roziyaning xolasi bulgan bu ayol hayratga tushib:

— Senga nima bo'ldi, Roziya? — dedi. — Muncha titraysan?

Roziyani kichikligidan suyb o'stirgan xolasi Soraxon uning hamma sirlaridan xabardor edi. Hozir eskalatorda uchragan yigitning kimligini payqab:

— O'shami? — dedi.

Roziya uning savollariga javob bermas, qulog'iga gap kirmayotganga o'xshardi. U yuqoridaan odam olib tushayotgan eskalatorga olazarak bo'lib qarab turardi. Roziya Sattor bilan yana uchrashishdan qo'rqardi, undan o'zini olib qochmoqchi bo'lar edi. Ammo o'ziga bo'ysunmaydigan ichki bir kuch uni Sattorga qarab tortar, bir lahzagina bo'lisa ham diyordi ko'rishishga undar edi.

Soraxon Roziyaning es-hushi o'zida emasligini sezib:

— Roziyajon, yur, ketaylik! — dedi. — Ana, poezd keldi. Yur tezroq!

Soraxon Roziyani perronga qarab tortdi. Roziya bir-ikki qadam yurdi-yu, yana to'xtadi. Sattor hozir uni deb yuqoridaan chopib tushib kelayotganini ko'z oldiga keltirdi. Buni sezib turib, ketib qolishga u o'zini majbur qila olmas edi. Agar ular Toshkentda duch kelib qolganlarida, ehtimol, Roziya Sattor bilan uzoqdan salomlashib o'tib keta olar edi. Ammo tug'ilgan yurtlaridan minglab chaqirim yirokda, O'zbekistondan kelgan har bir notanish odam ham allanechuk qadrondi ko'rindigan bu joyda Sattorday aziz kishisini bir nafasgina kutmay ketib qolish Roziyaga kechirib bo'lmaydigan toshmehrlik bo'lib ko'rindi.

— Xolajon... Birpas turing!..

— Turib nima qilasan? Gapni bir joyga qo'ygan edik. «Endi uchrashmayman» degan eding, Toshkentdan vidolashib chiqib kelgan eding!

— Izlab yurgan ekan...

— Izlasa izlar!

— Biron ishi bordir...

— Ishi bo‘lsa o‘zi eplayversin. Bizga nima? Soraxonning gaplarida Sattorga qarshi qaratilgan nafrat bor edi. Roziyaga bu juda o‘rinsiz tuyldi:

— Siz uni bilmaysiz!..

— Lekin men seni bilaman, Roziya! Keyin badtar bo‘ladi, yana o‘zing qiyinalasan! Undan ko‘ra, yur!

Roziya bir-ikki qadam qo‘ydi-yu, yana to‘xtadi. O’ziga-o‘zi gapirganday pichirlab:

— U ham odam-ku, — dedi.

— Bu bejiz emas...

— Nima-nima?

Roziyaning hayoli parishon, gaplari ham poyma-poy. U xolasining so‘zlarini yaxshi uqmas, hozir faqat bir narsani — Sattor bilan ko‘rishmasdan ketolmasligini aniq sezardi, xolos.

— Bu o‘zi yaxshi yigit bo‘lsa, seni endi tinch qo‘yishi kerak edi! — dedi Soraxon qahr bilan. — Hozir kelsin, men uni bir boplay!

Roziya xolasining bilagini mahkam qisib, ozorlangan tovush bilan:

— Yo‘q, yo‘q! — dedi. — Unda nima ayb? Siz aralashmang, itlimos qilaman!

Nihoyat, eskalator zinalari bilan birga oqib tushayotgan odamlar orasida Sattor ko‘rindi. U o‘smir boladay yugurib-elib kelmoqda edi. Yuzida, ko‘zlarida, qadam olishida shunday bir g‘ayrat va quvonch bor edi-ki, Roziya uni ko‘rgan zahoti zavqi keldi. Hozirgina Roziyani bo‘shashtirib turgan darmonsizlik qayoqqadir yo‘qoldi. Butun vujudiga iliq bir kuch quylganday bo‘ldi. U xolasining qo‘lini qo‘yib yuborib, Sattorga tomon uch-to‘rt qadam yurdi. O‘zini kutilmagan darajada bardam va quvnoq tutib, Sattor bilan ko‘rishdi, so‘rashdi.

— Tanishib qo‘ying, mening xolam Sora Akramxo‘jaeva, — deb Sattorga atlas ko‘ylakli ayolni ko‘rsatdi.

Bir chetda Sattorga zimdan tikilib turgan Soraxon bu yigitning istarasi haqiqatan ham issiq ekanini, unga yomon muomala qilolmasligini sezdi-da, sopolik bilan salomlashdi. Sattor iymanib uning yuziga mayin ko‘z tashladi:

— Kechirasiz, men sizlarni yo‘ldan qoldirdim.

— Zarari yo‘q...

— Moskvalarda yuribsiz? — jilmayib so‘radi Roziya Sattordan.

Go‘yo orada o‘sha mushkul gaplar va vidolashuvlar bo‘limgan, go‘yo hamma narsa asliga qaytgan-u, endi faqat uchrashuv shodligiga o‘rin bor! Sattor buning bir sababchisi mana shu atlas ko‘ylakli ayol ekanini payqadi. Roziya xolasining oldida o‘zini mumkin qadar bosiq va sipo tutayotganini, Sattorni ham shunga undayotganini sezdi. Shu bilan ikkovining orasiga alohida bir sirdoshlik, ittifoqdoshlik ipi tortilayotganday bo‘ldi. Sattor hozir gapni ish mavzuiga burishi kerakligini fahmlab:

— Komandirovkaga kelgan edim, — dedi.

Sattor bilan Roziya uchun nima hakda gaplashishning ahamiyati yo‘q. Ularning jo‘n, anchayin gaplari ham diydor ko‘rishi shodligiga chulg‘anib, xaroratga to‘lib chiqadi. Ko‘zlar ko‘zlardan ilhom oladi, birining ovozi ikkinchisiga zavq beradi, birining tabassumi ikkinchisining qalbiga nur sochadi. Biri birini yo‘qotgan, bir-biridan umidini uzgan, bir-birining diydoriga tashna bo‘lgan bu ikkovi hozir chetdan qaragan har qanday odamning havasi keltiradigan darajada baxtiyor edilar.

Soraxon ularga nima deyishini bilmay lol bo‘lib qarab turardi. U bir oydan beri Roziyani qutqarish harakatida yurgan edi. Roziyaning oilali yigitni sevib qolgani Soraxonning nazarida juda yomon bir falokat. Chunki Soraxonning o‘zi shunga o‘xhash bir hodisaning jabrini tortgan.

Sora Akramxo‘jaeva asli xo‘jalar avlodidan edi. Ota-oni «xo‘jalardan kuyov chiqsa uzatamiz» deb uni ancha yil erga bermadilar. Soraxon o‘qishi bitguncha bunga chandon e’tibor qilmadi-yu, ammo yoshi yigirma oltiga kirganda umrbod kari qiz bo‘lib qolishdan tahlikaga tusha boshladı. Shunda ota-

onalari uni xo‘ja avlodli bir yigitga uzatadigan bo‘ldilar. Yigit ham yigirma olti yoshda edi, ular birlarini yaxshi bilmas edilar, shunday bo‘lsa ham ikkovi ota-onalarining ixtiyorlariga qarab tur mush qurdilar. Ammo bir-birlariga ko‘ngil qo‘yolmadilar. Oradan uch yil o‘tgach, yigit Soraxonni ikki bolasi bilan tashlab ketdi, o‘zidan olti yosh kichik bir qizga oshiq bo‘lib uylandi. Soraxon esa ikkinchi er qilmadi, bolalariga fido bo‘lib, hamon beva yuribdi. Uning butun alami, dardi, yolg‘izlik azobi Roziyaga yoshligidan ma’lum. Roziyaning hamma yaqinlari ikki bolasini tashlab, boshqa qizga oshiq bo‘lib uylangan sobiq pochchani vijdonsiz, noinsof deb ayblab o‘rganganlar. Ular oilali odamga tekkan qizni ham doimo nafrat bilan tilga oladilar. «Birovning oilasini buzgan, bolalarini otasiz qoldirgan, Soraxonning erini tortib olgan» u qizni Roziya o‘zi ko‘rmagan bo‘lsa ham, bundaylarga jirkanib qarashga bolaliqdan odatlangan.

Biroq, endi hayot shu muammoni Roziyaning ham boshiga soldi-ku! Shunda u Sora xolasini esladi. Xolasiga hamisha rahmi kelib, qayishib yurgan Roziya bir kun Soraxonning uyiga borib, butun voqeani aytib berdi. Shundan keyin Soraxonning qistovlariga bo‘ysunib, Sattorga haligi xatchani yozdi. Sattor Soraxonning tasavvurida o‘zining sobiq eriga o‘xhash bemaza yigit edi. U Roziyani bu yigitning kasofatidan omon saqlash uchun darhol Toshkentdan olib ketdi. Ular Roziya ikkovi Moskva etagidagi o‘rmonlar orasida, Istra daryosi bo‘yida uch hafta dam olishdi. Bu kunlar davomida Soraxon Roziyani Moskvada aspiranturada o‘qiyotgan hamshahar yigitlar bilan tanishtirdi, «Zora shulardan biortasiga qiziqib, haligi dardini unutsa!» deb umid qiddi. Ammo Roziyaning chehrasi ochilmadi. Go‘zal tabiat bag‘rida, hamma dam olib, yayrab-yashnab yurgan ajoyib joyda Roziya diqqinamas bo‘lib, uch haftada besh-olti yosh ulg‘ayganday so‘lib qoldi.

Bundan yarim soatgina oddin eskalatorda mana bu yigit uchramasidan avval Roziyaning rangi ko‘kish, uch-to‘rt bola ko‘rib tashvishga botgan o‘ta yashar juvonday xomush kelmoqda edi. Mana hozir Sattor bilan ko‘rishi, gaplashayotganda esa yuzidagi o‘sha so‘lg‘inliqdan asar ham qolmadidi. Yonoqlariga qizillik yugurib, ko‘zlar yaltillab, lablarida tabassum o‘ynab, chehrasi butunlay o‘zgarib ketdi.

Soraxon shuncha kundan beri yetolmagan niyatga — Roziyani avvalgiday go‘zal, shod ko‘rish niyatiga — Sattor bir lahzada yetdi. Soraxon shuncha harakatlar bilan qurban g‘ov bir somon parchasiday uchib ketayottanini sezdi-yu chora axtarib soatiga qaradi. Qovog‘ini solib:

— Roziya, vaqt bo‘lyapti, — dedi.

U Sattorning Roziya bilan tezroq xayrlashib o‘z yo‘liga ketishini istardi. Boya Roziyaning o‘zi ham: « Sattor bilan bir lahzagina ko‘rishi salomlashsam bas!» deb o‘ylagan edi. Ammo, kishining butun tashnaligi bu loq bo‘yiga yetganda bilinganidek, Roziya bilan Sattor bir-birlarini qay darajada sog‘inganliklari hozir chinakam sezilmoqda edi. Obi hayotdan bir qultum ichgan odam keyin unga qonmaguncha o‘zini tutolmagani kabi, ular ham bir-birining diydoriga to‘ymaguncha ajrashgilari kelmas edi. Biroq qovog‘ini solib soatiga qarab turgan Soraxon Roziyaga: «Aqlingni yo‘qotma, oxirini o‘yla!» demoqchi bo‘lar edi. Xolasining bu gapi bejiz emasligini Roziya ham tushunib turibdi. Uning o‘zida ham «xushingni yig‘» deyayotgan bir o‘y bor edi. Ammo diydor ko‘rishishdan alangala-nib ketgan muhabbat hislari buning hammasini ahamiyatsiz qilib ko‘rsatar, «Sen yosh bola emassan, xolangning qorovulligi nimaga kerak!» deyayotganga o‘xshardi.

Soraxonning Roziyaga hokimona tikilib: «Vaqt bo‘lyapti», degani Sattorga boshqacha ta’sir ko‘rsatdi. Sattor bu ayolning hamma sirdan xabardor ekanini sezdi-yu, birdan aybi ochilgan odamday qattiq hijolat bo‘ldi. U Roziyadan hech narsa kutmasligini, hech narsa ta’mal qilmasligini, faqat uni sog‘-salomat ko‘rgani kifoya ekanini aytmoqchi bo‘ldi.

— Roziya, agar shoshilayotgan bo‘lsangiz, mayli...

Roziya Sattor bilan shu ahvolda xayrlashib keta olmas edi. U xolasining qorovulligiga muhtoj emasligini Sattorga sezdirmoqchi, shu bilan uni xijolatliqdan qutqarmoqchi bo‘ldi:

— Men shoshayottanim yo‘q! Xolam kengashga shoshilyapti. Men shunchaki tomosha qilib yuribman.

— Bo‘lmasa... — Sattor Roziyaga «nima qilay» degan ma’noda qaradi.

— Yuring, xolamni kuzatib qo‘yaylik. Vaqtingiz qalay?

— Bo‘shman, — dedi Sattor.

Soraxon labini qimtib perronga qarab yurdi. U Sattorga: «Yaxshi yigit, xotiningiz bor ekan, Roziyani tinch qo‘ying!» demoqchi bo‘lar, ammo bunga qulay fursat topolmas edi. Roziya Sattorni o‘z himoyasiga olib, sovuq gapga o‘rin qoldirmay borar edi. Sattor ham o‘z qadrini yerga urmaydigan xushmuomala, ziyrak yigit ekanligi Soraxonning tilini bog‘lab turar edi.

Yer ostidagi qasrini shovqinga to‘ldirib, metro poezdi keldi. O’nlab eshiklar bir vaqtida o‘z-o‘zidan ochildi. Vagonlar lahza o‘tmay bo‘shab qoldi-yu, yana birpasda odamga to‘ldi. Qizil shapka kiygan navbatchi qiz bir tomoni sariq, bir tomoni qizil kafgirchasini yuqori ko‘tardi. Uning ishorasi bilan havo rang ekspress yana yer qa’ridagi tunnelga otilib kirib ketdi.

— Ajoyib-a! — dedi Sattor ko‘ng‘ir charm o‘rindiqda xolasi bilan yonma-yon o‘tirgan Roziyaga.

— Biz hozir Toshkentning kelajagiga sayohat qilayotgandaymiz.

Poezd tez yurgan sari shovqini kuchayar, shuning uchun baland ovoz bilan gapirishga to‘g‘ri kelar edi.

— Kelajakda metro poezdlarining shovqinsiz yuradigani chiqadi, deyishadi, rostmi? — so‘radi Roziya.

— Men ham eshitdim. Shovqini bilinmaydigan tramvaylar chiqdi-ku. Toshkentda metro qurilguncha, ehtimol, shovqinsiz poezdlar ham paydo bo‘lar.

— Aytmoqchi, loyihalaringiz nima bo‘ldi?

— Olib keldik. Yuqorilarda ko‘rilyapti.

— E, shu ish bilan kelganmidilaringiz? Haligi, Maksimichni ko‘rmadingizmi?

— Shu odam bizga juda kerak edi. Otpuska olib uyidami, dachasidami ishlayotgan emish. Topolmayapmiz. Ishimizning nozik bir nuqtasi o‘sha Maksimichga bog‘liq bo‘lib turibdi.

— Anhor bo‘yida sizga adresini bergen edi-ku. Sattor bir lahza o‘shandagi beg‘ubor va shirin visol paytiga kelganday bo‘ldi.

«Nega menga ekan, ikkovimizga bergen edi-ku!» — deb hazil kilgisi keldi. Ammo keyinga ishkalliklar esiga tushib, o‘zini bosdi.

— Adresi cho‘ntagimda yuribdi, — dedi. — Lekin uni siz yaxshi tanisiz, Roziya. Shahar bo‘ylab siz birga yurgansiz... Men o‘zimcha borishga tortindim.

Roziya o‘shandagi tiqilinchlarni eslab kulib qo‘ydi. So‘ng Sattorning gap avzoyidan Maksimichnikiga birga borish mumkinligini fahmlab, bir lahza jim qoldi.

Poezd zo‘r shiddat bilan borar, derazalar oldidan tunnel’ chiroklari lip-lip qilib o‘tar, ularning aksi yaltiroq po‘lat tutqichlarda sirg‘anib, uchib-qo‘nib o‘ynar edi.

Sattor Roziyadan javob kutib turganini Soraxon ham payqagan ekan, dabdurustdan:

— Yaxshi yigit, Roziya hozir bunaqa ishlarga aralasholmaydi, — dedi.

Sattor hayron bo‘lib Roziyaga qaradi. Roziya xolasining tomdan tarasha tushganday bo‘lib chikqan gapidan ozorlanib so‘radi:

— Nega endi?

— Sen otpuskada yuribsan!

— Otpuskada yurgan odam tanishlarinikiga borishi mumkin emasmi?

— Sen o‘zingga-o‘zing qilyapsan, Roziya! Soraxonning butun vajohati: «Sen bu yigitni ko‘rgandan beri butunlay o‘zgarib ketding, uning sehriga berilib, oilasi borligini unutding!» deb turganga o‘xshardi. Ammo, hadeb Sattorning oilasi borligini eslatish, hamma odamlarga to‘g‘rilikcha odam deb qaramasdan, ha-mani uylanlangan yoki uylanmagan deb ajratish Roziyaga hozir xunuk bir bid’at bo‘lib ko‘rindi. Bir oydan beri xolasining gapiga kirib, Sattordan qochib yurgani esa mana shu bid’atga berilib, o‘z erkini bekordan-bekorga bo‘g‘ish bo‘lib tuyuldi.

— Ko‘rib turibsiz! — Roziya xolasiga «Sattor meni yeb ko‘yayotgani yo‘q, u meni og‘ir ahvoldan

xalos qilyapti, men uning yonida qafasdan ozod bo‘lgan qushday erkin yuribman» deganday qilib qaradi. Ammo og‘izda boshqa gaplarni aytdi: — Ko‘rib turibsiz, metro ajoyib narsa. Agar Toshkentda ham metro qurilishiga mening zarracha nafim tegishini bilsam, otpuskada yurganim ko‘zimga ko‘rinadimi? Siz kengashdan bo‘shaguncha biz ham Maksimichnikiga borib kelamiz.

«Biz» deb Roziya o‘zi bilan Sattorni qo‘shib aytgani Soraxonning shunchalik ensasini qotirdiki, u «bilganingni qil!» deganday qo‘l siltab, yuzini naryoqka o‘girib oldi. Sverdlov maydoniga borib metrodan tushganlarida ham, Pushkin ko‘chasi tomondan yer yuzasiga chiqqanlarida ham Soraxon Roziyaga qayrilib qaramadi.

Ular yer ostida yurganda Moskvaga yomg‘ir yog‘ib o‘tgan edi. Hozir osmondagи bulutlarning bir chetini yorib oftob nurlari yog‘ilib turar, ko‘chalarni to‘ddirgan behisob mashinalar ho‘l asfaltdan suv sachratib o‘tar edi.

Svetofor piyoda odamlarga yo‘l berdi. Soraxon Roziyaga ataylab gap qotmadi, unga qayrilib ham qaramadi. Sattor bilan til uchida xayrlashdida, ko‘chadan o‘tib, Kolonna zaliga qarab ketdi.

Roziya xolasiga achinganday bo‘lib, ketidan birpas tikilib turdi.

— Bu kishiga xafa bo‘ladigan gap qilmadik shekilli? — dedi Sattor.

— Xolamni hayot xafa qilgan. Iloj qancha?.. Bu kishining e’tiqodi shunaqa.

— Qanaqa?

Roziya xolasining tarixini va sirdoshlik sababini aytish uchun ogaz juftladi-yu ammo hozir bunday ishkak narsalar to‘g‘risida so‘zlashgisi kelmadi.

— Keyin aytib beraman... Sattor, siz menga so‘z bering. Biz hech kimga yomonlik qilmaymiz!

— Xo‘p. Lekin biz o‘zimizga ham yomonlik qilmasligimiz kerak, Roziya. Shu bir oy ichida men qanday kunlarga qolganimni bilsangiz edi... Dunyoga kelganimdan pushaymon bo‘ldim!

— Bilaman. Men o‘zim ham o‘limimga rozi edim.

— Qo‘ying, bunday demang... Mening tushimga bir kun o‘sha zilzilalar kirdi. Men pastda. Siz o‘ninchimi, o‘n beshinchimi qavatda. Uylar qulab, ustimga tushyapti. Yugursam, qadamim orqaga ketadi.

— Dahshat!

— Shundan beri sizni izlab yurgan edim. Xayriyat, eson-omon ekansiz.

— Men ham sizni... har zamonda bir ko‘rib tursam bas. Sattor, keling, biz hamisha xolis, beg‘araz do‘stlar bo‘lib qolaylik!

Sattor Roziyaning mayin va salqin qo‘lini kaftiga olib:

— Mayli, — dedi. — Buning nomi do‘stlikmi, tanishlikmi, ishqilib, diydor ko‘rishib tursak bo‘ldi.

Roziya Toshkentda Sattor bilan muhabbat izhor qilishgan paytlarini esladi. «Do‘stlik» deb o‘zini aldamoqchi bo‘layotganini sezdi-yu, shoshilib, gapni boshqa yoqqa burdi:

— Biz... Maksimichni topmoqchi edik-ku? Uy telefoni bormi?

— Ha, vizit kartochkasida yozilgan.

— Bo‘lmasa, avval bir qo‘ng‘iroq qilib ko‘raylik.

— Yuring, — deb Sattor Roziyaning bilagidan oldi. Avtomat-telefon kabinalari oddiga kelganlarida Roziya navbatda turgan yosh-yalanglar ikkovilariga qiziqib, havaslanib, ko‘z tashlayogganliklarini his qildi. Bu his uning qalbida yana bir vaqtlardagi iftixon tuyg‘usini uyg‘otdi.

12

Sattor bilan Roziya Moskvaning har joy-har joyidan ulkan cho‘qqilarga o‘xshab bo‘y cho‘zib turadigan uchi nayzador binolarni uzoqdan ko‘rgan edilar-u, ammo hali ichiga kirmagan edilar. Maksimich shu ko‘ko‘par binolardan birida, o‘n sakkizinch qavatda turar edi. Qasrni eslatuvchi keng vestibyul va zinalardan o‘tib, tez yurar lift bilan o‘n sakkizinch qavatta chiqqanlarida Sattorni binoning salobati bosa boshladi.

— Maksimich meni durust eslolmasa kerak. Noqulay bo‘ladimi deyman-da, Roziya?

— Nega eslolmas ekan? Telefonda o‘zi taklif qildi-ku!

Aytilgan eshikni qidirib topganlarida Sattor qo‘lida ko‘tarib kelayottan to‘rni ichidagi oltin rang qovuni bilan Roziyaga tutqazdi. Sattor tortingan sari Roziya dadillanar edi. U oldinga o‘tib, hashamatli eshik tep-sidagi ko‘ng‘iroq tugmasini bosdi.

Eshik ochilganda Sattor Roziyadan bir-ikki qadam ketinda turar edi. Sochini o‘smirlarnikiga o‘xshatib kalta qirqtirgan nozikkina juvon ularni ichkariga bo-lab kirdi.

Kwartira devorlariga qimmatbaho yog‘ochdan panellar qilingan. Rangsiz lak bilan bo‘yalgan parket pol oynaday yaltillaydi. Juvon to‘g‘ridagi oynadan eshikka qarab:

— Larya, chiq, kelishdi! — dedi.

Keyin o‘sha xonadan seryung qo‘ng‘ir sviter kiygan novcha Maksimich chiqib keldi:

— A-a-a? Roziya!.. Toshkentlik do‘stlar! Juda soz!

U mehmonlar bilan ko‘rishar ekan, Sattorning i-mini eslayolmay:

— Xush ko‘rdik, kollega! — dedi. — Tanishinglar, mening rafiqam Yelena Lvovna.

Ularga eshik ochgan xushbichim juvon Roziyaga qo‘l berayotib, o‘zini:

— Lena, — deb atadi. U endi o‘ttizga kirgan, eridan o‘n yetti yosh kichik edi.

Maksimich Sattorlarni ichkariga boshladи. Hamma yoq ozoda va sarishtalik. Yon tomondagi xonaning kiya ochiq eshididan polga to‘shalgan chiroyli gilamning bir cheti ko‘rindi. Mehmonlar tuflilarini yechmoqchi bo‘lishgan edi, uy egalari qo‘yishmadi. Shu payt yon tomondagi xonadan qizil tozi it chopib chiqdi: beli ingichka, oyoklari uzun, bo‘ynida tasmasi bor. Roziya cho‘chib o‘zini Sattorning panasiga oldi.

Sattor kulib shivirladi:

— Qo‘rqmang, tozi odamga tegmaydi.

— Elza, bor joyingda yot! — buyurdi Maksimich. Tozi ko‘zini mo‘ltiratib orqaga qaytdi va gilam to‘shalgan xonaga kirib ketdi.

Shunday kvartirada tozi it yurganidan mehmonlar taajjublanganini sezib, Maksimich miyig‘ida kului-yu:

— Hayron bo‘lmanglar, men ovni yaxshi ko‘raman, — dedi. — Asli o‘zim o‘rmonzorlar orasida o‘sganman. Bu tozini tabiatning tirik bir zarrachasi deb o‘n sakkizinch qavatda ham asrab yuribman. Tabiatni, umuman, tabiiy go‘zallikni men Xudo o‘rnida ko‘raman.

Maksimich Roziyaga tomon o‘girilib, uning yuziga zavqli bir nazar tashlab oldi. Boya Roziya telefon qilganda Maksimich bu qizning ajib bir tabiiy chiroyi borligini zslagan, uni yana ko‘rgisi va sevgan yigit bilan birga xotiniga ham ko‘rsatgisi kelgan edi. Bir chekkasi shuning uchun Maksimich ularni uyiga taklif qilgan edi.

— Xiyol ozibsiz, Roziya, — dedi Maksimich. Roziya Sattorga yuzlanib mayin jilmaydi:

— Men boyaga Sattorga «ozibsiz» degan edim. O‘zim ham ozibmanmi?

— Ammo ozg‘inlik ikkovlaringizga ham yarashar ekan. To‘g‘rimi, Lena?

Hijron azoblaridan keyingi uchrashuv bugun Roziyaning chiroyini shunday ochib yuborgan ediki, uning butun borlig‘idan qizlik jozibasi yog‘ilib turganga o‘xshardi. Sattorning yuzida ham sevimli yigitlarda bo‘ladigan mardona bir latofat barq urib turibdi. Ular bu uyga o‘zlari bilan birga faqat sevishganlardagina bo‘ladigan sehrli bir go‘zallik va nazokat olib kirganday bo‘lishdi. Maksimich g‘alati bir ochiqlik bilan:

— Lena, bularga bir qara! — dedi. — Tabiat ikkovini faqat bir-biri uchun yaratganga o‘xshaydi-ya! Bir-biroviga shu qadar munosib tushganlari ajoyib! Odamning havasi keladi-ya!

— Sen bularni uyaltiryapsan, Larya!

Sattor gapni

hazilga burdi:

— Hechqisi yo‘q. Maksimich bizga yoqadigan gaplarni aytyapti! To‘g‘rimi, Roziya?

— Albatta!

Hammalari bir kulib olishdi.

Uy bekasi Sattor bilan Roziyaga divanda joy ko'rsatdi. Maksimich ularning qarshisiga kreslo surib o'tirar ekan:

— Lenochka, endi bularning baxti uchun bir ryumkadan ichmaksak bo'lmas! — dedi.

— Albatta-da! Sizlar bu yerda ishga oid gaplaringni gaplashib olinglar. Ungacha biz narigi xonada stol tuzaymiz. Ksenya! — deb Yelena Lvovna eshikdan chiqayotib oshxonadagi uy xodimasini chaqirdi.

Roziya Sattorga ohista ko'z tashlab oldi-da, uning nomidan ham gapirayotganday bo'lib Maksimichga yuzlandi:

— Uyda ishslash uchun javob olgan ekansiz, Illarion Maksimilianovich. Biz sizni bezovta qildik.

— Men ham o'shanda sizni ovora ysiilgan edim-ku, Roziya! Avtobuslarda qanaqa yurganimizni boyaga Lenaga aytib berdim, ikkovimiz rosa kulishdik... Xo'sh, endi... Toshkentda metro qurish masalasiga kelsak, bu, albatta, juda murakkab, juda katta ish. Bunday ulkan masalalar osonlikcha hal bo'lmaydi.

— O'zi ham bir to'xtab qoladi, bir yurishib ketadi, — dedi Sattor.

— Hozir yurishayotgan payti shekilli?..

— Bilmadim, yuqorida nima deyisharkin?..

— Biz toshkentlik o'rtoqlarning takliflarini quvvatlab, maxsus bir xat yozgan edik. «Natija nima bo'ldiykin?» deb hozir yuqoridagi bir o'rtog'imga telefon qildim. Sizlarni quvontirishim mumkin. Toshkent metrosiga taalluqli loyiha topshiriqlari yaqin haftalarda yuqoridan o'tib, muhokamadan hukumatning tasdig'iga chiqarilsa kerak.

Roziya quvonib Sattorga yuzlandi, go'yo uni ko'zlar bilan tabriklab:

— Ajoyib yangilik-ku! — dedi.

Sattor ko'pdan kutayottan bu xushxabardan kuvonish bilan birga, bir oz tashvishga ham tushdi:

— Biz loyiha topshiriqlariga aniqliklar kiritmoqchi edik, avvalgi variantida chatoq joylari bor edi. Bu yog'i qandoq bo'ladi, Illarion Maksimilianovich?

— Hali loyiha topshirig'i tasdiqlangandan keyin ham to qurilish boshlaguncha ko'p vaqt o'tadi, — dedi Maksimich. — Ba'zan yillar davomida tadqiqot ishlari olib boriladi, tayyorgarlik ko'riladi. Ko'p narsa chizmalar tuzilganda aniqlanadi.

Sattor xiyol o'ylanib turdi-yu:

— Men bir oddiy loyihachiman, Illarion Maksimilianovich, — dedi. — Yuqorilarda bo'ladigan gaplarga ko'p ham aralasholmayman. Bir masalada o'zimning boshlig'im bilan bahslashib yurib, uni zo'rg'a ko'ndirgan edim, Moskvaga kelib gapim yana o'tmay qoldi.

— Qanaqa gap?

— Loyiha topshirig'iga binoan ochiq usulda kurilmoqchi bo'lgan bir uchastkani men yopiq usulda ko'rinshi taklif qilgan edim.

Sattor shunday deb, chinorlar va emanlarni olib qolish uchun qilayotgan harakatini gapirib berdi.

— Iqlimizni ko'rgansiz, bizda bunday daraxtlar oltinga topilmaydi.

— Moskvada kim bilan gaplashdilaring?

— Xamma ish Pyotr Samoylovichning qo'lidan o'tar ekan. Biz boshlig'im ikkalamiz hozirgi gaplarni unga yozib yuborgan edik. Kecha kirsak, hammasini cho'tga solib, hisob-kitob qilib qo'yibdi. Yopiq usul qimmatroq emasmi? Agar o'sha yuz o'nta daraxtni olib qolish uchun yopiq usulda qurilsa, har chinor bir necha ming so'mga tushar emish. Pyotr Samoylovich shuni aytib taklifimizni rad qildi.

— Ha, Pyotr Samoylovich har bir tiyinni o'n marta sanaydigan odam. Uning tejamkorligi yaxshiyu, lekin tabiatning qadrini pul bilan o'lchab bo'ladi?

Maksimich o'rnidan turib, qalam-daftar topdi-da, xotira uchun ba'zi narsalarni yozib qo'ydi.

— Men ikki-uch kunda ishga qaytaman. O'shanda Pyotr Samoylovich bilan o'zim gaplashaman. Tejamkorlik uchun boshqa imkoniyatlar bor. Ammo yuz yillik chinorlar... U odam Toshkentni ko'rgan

emas-da, daraxtlar o‘rmondagiday o‘zidan-o‘zi o‘sib yotadi, deb o‘ylaydi. Har bir daraxt uchun odamlar ariq kovlab, suv chiqarib, yer chopib, qancha mehnat sarflashini ko‘z oldiga keltirolmaydi... Bu-ku, odamlar ter to‘kib o‘stirgan daraxtlar ekan. O’sha bizning o‘rmonlarda o‘zi o‘sib yotgan qarag‘aylar behuda nobud qilinganini qo‘rsam, mening hayotimda ham aziz bir narsa nobud bo‘lganday ezilib ketaman. Axir biz ham tabiat farzandimiz. Agar tabiat yo‘qolsa, biz ham yo‘q bo‘lib ketamiz. Bilasizmi shuni?

— Sal-pal bilsam kerak. Men xam tabiat bag‘rida o‘sganman. Mening sezishimcha, tabiat vayron filingen joyda odamlarning buzilishi osonlashadi.

Maksiich bu so‘zlardan ta’sirlanib ketib:

— Ko‘lingizni bering! — dedi. — Biz siz bilan maslakdosh ekanmiz, juda yaxshi aytdingiz. Tabiat biz uchun faqat tashqi dunyo emas. Biz o‘z ichki dunyomizni ham faqat tabiat yordamida chinakam go‘zal qila olamiz!

Shu payt Yelena Lvovna ularni narigi xonadagi dasturxonga taklif qilib kirdi.

— Ax, Larik, yana tabiatdan gap ochdingmi? Mening erim bu mavzuda ikki-uch soatlab gapirsa ham, gapi tamom bo‘lmaydi! Qani, mana bu uyga marhamat.

Stol tuzalgan xonadan yoqimli qovun hidi keldi. Dasturxonga gardish kilib so‘yilgan ikki tarelka qovun ham qo‘yilgan edi.

— Mehmonlar juda g‘alati qovun olib kelishibdi! — dedi Yelena Lvovna eriga. — Ksenya tatib ko‘rib, «umrimda bunaqa shirinini yemagan edim» deydi.

Sattor bilan Roziya «xayriyat, yaxshi chiqibdi» deganday bir-birlariga mamnun qarab olishdi.

— Men tabiat to‘g‘risida gapirsam, senga yoqmaydi, Lena. Lekin mana shu qovun ham tabitatning bir mo‘jizasi emasmi? Bir donasi o‘n-o‘n besh kishini to‘ydiradi. Hidining ajoyibligini qara! Men bultur Toshkentga borganimda ikki dona yaxshi qovun olib berishdi. Mehmonxonaning nomeriga olib kirib qo‘ydim. Kuni bilan yurib, kechqurun kelsam, nomerim shunday bir muattar hidga to‘lib turibdiki, havoni simirib nafas oldim-u, yayrab ketdim.

— Haqiqatan, benzin hidiga to‘yingan shahar havosida tabiatning xushbo‘y narsalari kishiga juda boshqacha tuyuladi, — dedi Yelena Lvovna ham endi eriga yon berib. — Larya, qani, endi gapdan ishga o‘taylik...

Dasturxonda qovurilgan tovuq, osetra balig‘i, qora ikra, jajji qadahlar va bir shisha «Pliski» konyagi turar edi.

— Durustroq vinomiz qolmagan ekan, biz ham ozgina konyak icha qolamiz, to‘g‘rimi? — deb Yelena Lvovna Roziyaga jilmayib karadi: — Oling!

Roziya konyakdan ko‘rqr edi, zo‘rg‘a bir qultum ichdi. Shuning o‘zidan ham badani qizib, yuzlari lovillay boshlaganini sezdi. Mezbonlar yana qadah taklif qilishganda, ryumkani labiga tegizdi-yu sekin qaytib qo‘ydi.

— Ozgina oling, — dedi Sattor o‘zbekchalab.

— Mast bo‘lib qolaman, — shivirladi Roziya. Yelena Lvovna ularning gaplarini tushunmasa ham, shivirlashlariga va mayin muomalalariga qarab, ikkovini yaqinda oila qurban kuyov-kelinga o‘xhatdi.

— Kuyovingiz yoningizda-ku, nimadan qo‘rqasiz, oling! — dedi Yelena Lvovna Roziyaga tegishib.

«Kuyov» so‘zi Sattorga olovday tegdi. U mezbonlarni adashtirish yaxshi emasligini o‘ylab, Roziyaga «Rostini aytaymi?» deganday qilib qaradi. Roziya «Yo‘q!» deganday bosh silkib, konyakdan yana bir qultum ichdi. So‘ng ancha dadillashib, uy bekasidan so‘radi:

— Siz bizni er-xotin deb o‘yladingizmi? Yo‘q, biz...

— Ax, unday emasmi? Men negadir o‘ylabmanki, sizlar asal oyining gashtini surib yurgan yoshgina kuyov-kelin...

Bu gapdan mehmonlar o‘ng‘aysizlanayotganini ko‘rib, Maksimich xotinining so‘zini bo‘ldi:

— Lena, buning ahamiyati yo‘q. Asli o‘zi eng shirin asal oylari uylanishdan oldin bo‘ladi!

Kulishdi. Maksimich qadahlarni yana to‘ldirar ekan, so‘zida davom etdi:

— Eng muhimi nima? Gunafsha ko‘rindimi, demak bahor kelyapti, erta-indin atirgul ham, albatta, ochiladi. Chunki tabiatning yo‘lini hech kim to‘solmaydi.

Sattor o‘z dardini eslab og‘ir tin oldi-da:

— Aytganingiz kelsin! — deb qo‘ydi.

Maksimich Sattor bilan Roziyani qiyab yurgan qandaydir muammo borligini sezdi. Ammo ularning ichki sirlariga aralashgisi kelmadı.

— Men mana shu qadahni, — dedi, — ikkovlaringizning bahorlaringiz uchun ichaman.

— Men Larikning tostiga qo‘shilaman! Chindan ham sizlar bilan birga uyimizga bahor havosi kirib kelganday bo‘ldi.

Bu so‘zlar kelin-kuyovlik haqidagi boyagi taxminga qo‘shilib Roziyaning hayolini shunday band qilib oldiki, u o‘tirishning qolgan qismi qanday o‘tayotganini elas-elash payqar edi.

«Muhabbatni astoydil e‘zozlaydigan odamlar bunaqa bo‘lar ekan-u, — derdi u o‘zicha. — Bo‘lmasa biz kimmiz? Bularga nima yaxshilik qilibmiz? Bularning o‘z hayotlarida muhabatning qadri baland. Shuning uchun bizning muhabbatimizni ham... hurmat qilishadi. Qiziq: «Biz Sattor bilan bir-birimizni sevishimiz shu qadar sezilib turar ekanmi, uy bekasi haligi gaplarni aytdi. Kuyov-kelin...» Bu so‘zlar Roziyaning qalbiga tushgan bir cho‘g‘ bo‘ldi-yu, hamma tuyg‘ularini alangalantira boshladı.

Sattor Roziyaning ko‘nglidan o‘tgan narsalarni sezib turganday unga tikilib qaradi-da, sirli kulimsirab qo‘ydi. U mezbonlarga tan bergenini aytmoqchi edi. Boya kelganlarida Maksimichning xotini eridan o‘n besh-yigirma yosh kichik ko‘ringan, Sattor bundan bir oz taajjublangan edi. Hozir Yelena Lvovna bilan Maksimichning yoshlariagi farq bilinmay ketdi. Maksimich xotinining yonida allanechuk juda yosharib goldi.

«Mehr yoshartiradi-da, — o‘zicha o‘ylandi Sattor. — Muhabbatning yo‘li to‘silmasa shunday bo‘ladi. Maksimich muhabbatni tabiatday zo‘r kuch degani bejiz emas!...».

Sattor Roziya bilan ko‘z urishtirib, go‘yo uning xam roziliginu oldi-da, qadah ko‘tardi.

— Biz bu yerda go‘zal bir tabiat bag‘rida o‘tirganday yayrab o‘tiribmiz, — dedi. — Bizni shu qadar ochiq ko‘ngil bilan kutayotganlaringiz uchun to‘rt devor ichida o‘tirganimiz ham esimizdan chiqib ketyapti.

— Rost! — xitob qildi Roziya. Sattor uning ko‘nglidagini topib aytgani behad yoqimli edi.

— Endigi tilagimiz shuki, — Sattortng ovozi beixtiyor pasaya boshladi: — Biz Roziya ikkovimiz ham... sizlarni... o‘z uyimizda shunday yayratib mehmon qiladigan kunlarga yetaylik!

Sattor «o‘z uyimizda» degan so‘zni shunday aytdiki, buning tagidagi ma’noni faqat Roziya tushundi. Bu so‘z juda shirin edi-yu, ammo tagi kovlansa taxiri chiqadiganga o‘xshardi. Roziya hozir uni kovlashtirgisi kelmadı. Yelena Lvovna bilan qadahini urishtirib:

— Toshkentda mehmon bo‘lishlaringiz uchun! — dedi.

— Bitta olloverdisi bor! — dedi Maksimich. — Qo‘shimcha tilak shuki, Lena bilan birga uylaringizga borganda, yo‘lning bir qismini Toshkent metrosining poezdida bosib o‘taylik.

— Yashang! — zavqlanib dedi Roziya.

— Bo‘lmasa yana bitta olloverdi, — dedi Sattorning ilhomni kelib: — Bizning Toshkent issiq joy: Maksimich bilan Yelena Lvovna bo‘lajak metrodan chiqqanlaridan keyin to manzilga yetgunlaricha toliqib qolishlari mumkin, shuning uchun ikkovlari bugun biz aytgan chinorlar bilan emanlarning soyasida birpas salqinlanib o‘tsinlar! O’shangacha bu daraxtlar omon tursin!

Maksimich yana boyagiday ta‘sirlanib:

— Qo‘lni bering! — dedi. Sattor kaftini tutgan edi, Maksimich qo‘lining uchi bilan yengilgina urib qo‘ydi. — Biz bu tilaklarni ro‘yobga chiqarmaguncha qo‘ymay-miz!

Roziya bunaqa mehmondorchilikda Sattor bilan birinchi o‘tirishi edi. Sattor Maksimichga chindan ham yoqib qolayotgani Roziyaning ko‘nglini o‘stirar, qalbidagi mehrga mehr qo‘shar edi. «Qiziq! — deb Roziya o‘zicha o‘yladi. — Agar Maksimich Sattorning oilasi borligini bilsa nima derkin?

Boyagiday pinagini buzmay, «buning ahamiyati yo‘q» deyishi ham mumkin».

Roziyaning o‘ziga hozir buning ahamiyati ilgarigiday katta ko‘rinmas edi. Ichimlik uni beg‘am va botir qilib qo‘ydimi yoki bu davrada ko‘ngli o‘sib, o‘ziga ishonchi oshdimi, har qalay, Sattor ikkovining oldida turgan ishkallik endi yechish mumkin bo‘lgan bir tugunga o‘xshab ko‘rina boshladi. Qachondir bir vaqt Sattor bilan Roziyaning taqdirlari qo‘shilishiga uning ishongisi kelardi. Bu yo‘lda uchraydigan hamma dovonlarni oshib o‘tishga yetadigan bir kuch hozir qalbida mavjlanib turganga o‘xshardi.

Bir vaqt ular mezbonlar bilan xo‘slashib chiqib, liftga kirdilar. Liftda boshkd hech kim yo‘q edi. Sattor eshikni yopayotib, zavqli tovush bilan:

— Qoyilmisiz? — dedi.

— Mezbonlargami? — so‘radi Roziya. — Qoyilman. Sizga ham!

Sattor liftning pastga olib tushadigan tugmasini bosmoqchi edi. Tugmani bosmasdan Roziyaga o‘girildi:

— Menga qoyilsiz?

— Ha, bugun juda ilhomingiz keldi!

Roziya bo‘so‘zlarni Sattorga mehri tovlanib, ko‘zлari porlab aytdi. Sattor buni sezdi-yu, liftni ham unutib Roziyaga yaqinlashdi. Boshqa vaqtda unga aytolmaydigan, aytishga tili bormaydigan so‘zлari yuragiga quyilib keldi.

— Roziya, men siz bilan birga bo‘lsam, jahonda hech bir odamdan qolishmayman, deb o‘ylayman. O‘zimni shunday qudratli sezamanki, baxt degan narsaning bir nishonasi shu bo‘lsa kerak. Sizda meni yuksaklarga undaydigan bir kuch bor. Men faqat siz bilan birga chinakam oljanob odam bo‘la olishimni ayriliq kunlarda sezdim!

Roziya liftning to‘xtab turganini sezib, tugmasini bosdi. Lift mayin silkinib pastga tushayotganida Roziyaning tovushi olinib:

— Sattor, buni men ham sezaman, — dedi. — Lekin...

— Shoshmang! Bugun biz Moskva metrosida yurdik. To‘g‘rimi? Yigirmanchi asrning mo‘jizalaridan biri shu. Jahon saviyasida fikrlashni talab qiladigan ish. Biz shu ishga ishtirok qilayotganimizdan faxrlansak arziyi. Lekin siz haligiday «alvido» deb ketganiningizdan keyin men bu ishni ham tashlab ketmoqchi bo‘ldim. Endi eslasam hayron bo‘laman. Birdan o‘n yil orqaga ketib qolgan ekanmanmi deyman. Xayriyat, boshlig‘imiz javob bermadi. Bo‘lmasa bugun ko‘risharmidik, yo‘qmi...

Kutilmaganda Roziya qo‘llarini Sattorning ko‘kragiga qo‘ydi. Tabiat ularni bir-birlari uchun yaratganiga hozir Roziyaning ishongisi kelar edi.

— Mayli, endi ixtiyor sizda, — dedi u ehtirosdan bo‘shashgan tovush bilan. — Men sizga ishonaman, Sattor. Siz uchun hamma qiynoqlarga tayyorman!..

... Lift allaqachon pastga tushib to‘xtagan edi. Kimdir eshikni ochdi. Sattor Roziyani qo‘lidan olib tashqariga boshladi.

13

Avgustning oxirlari edi. Terimga tushishdan oldin uch-to‘rt kun bo‘sh vaqt berilgan. Oyshaxon ayvonning soya tomonida ish tikib o‘tirar, pastdagи gulzorda o‘g‘ilchasi Muxtor kapalak quvib yurar edi.

Shu payt darvozadan Sattor kirib keldi. U o‘tgan gal kelganida qovog‘ini ochmagani va oxirida xafalashib ketgani uchun Oyshaxon erini, yana uch-to‘rt oysiz kelmaydi, deb yurar edi. Endi Sattorning allanechuk muloyim bo‘lib hovliga kirib kelganini ko‘rdi-yu, quvonib ayvondan yalang oyoq chopib tushdi:

— Voy, Sattorjon aka, qanday shamol uchirdi! — deb erini yelkasidan olib ko‘rishdi, darrov

qo‘lidan chamadonini oldi. — Muxtor, chop, dadang bilan ko‘rish!

Lablarida yaqinda yegan qovunining shirasi qolgan lo‘ppi yuzli bolacha bir qo‘li bilan oyisining etagidan tutgan holda ikkinchi qo‘lchasini dadasiga ko‘rishish uchun uzatdi. Ko‘zлari yaltillab, eshitilar-eshitilmas tovush bilan:

— Assayom! — deb shivirladi. Sattor uning qo‘lchasini kaftiga olib sekin silkitar ekan, yuragi «jiz» etdi. Moskvadan ko‘ngliga tugib kelgan niyatini amalga oshirishi endi avvalgadan qiyinroq tuyuldi. U atrofga alanglab:

— Ayam ko‘rinmaydimi? — dedi.

— Ayam rayonga ketganlar. Topshirgan pillalariga **gazvor** berarmish. Kechqurun keladilar.

— Hamma sog‘mi axir?

— Ha, shukur, eson-omon yuribmiz.

Sattor onasi uyda yo‘qligidan o‘zicha mammun bo‘lib qo‘ydi. U avval Oyshaxon bilan yakkama-yakka gaplashmoqchi edi. Chamadonini oolib, Muxtorga olib kelgan o‘yinchoq mashinalarni olib berdi:

— Bor, ana u soyada o‘yna, — deb so‘rini ko‘rsatdi. Oyshaxonga qarab: — Ichkariga kiramiz, gap bor, — dedi.

Sattor bugun juda boshqacha. Uning muloyim gapireshi Oyshaxonga avval yoqdi, keyin esa mehmonga kelgan begona yigitning sipoligiday sovuq tuyuldi. Oyshaxon choy damlab kirmoqchi edi, Sattor:

— Choy kerak emas, — deb uyga kirib divanga o‘tirdi. — Qani, sen ham o‘tir.

Oyshaxon yomon bir ko‘ngilsizlikni oldindan sezayotganday yuragi uvushib, atlas ro‘yjo yopilgan sim karavotning bir chetiga omonatgina o‘tirdi.

— Oysha, men sen bilan bugun ochiqchasiga gaplashmoqchiman.

— Nimani?

— Ikkovimizning turmushimiz noto‘g‘ri qurilganini. Bilasanmi, devor qiyshiq urilsa, bir kun emas, bir kun qulaydi.

Oyshaxon karavotdan yiqilib ketayotganday bo‘lib, yalltiroq nikel dastani mahkam changalladi.

— Bu nima deganingiz?!

— Biz eskicha turmush qurbanmiz, to‘g‘rimi? Ota-onaning izmiga bo‘ysunganmiz. Bir-birimizning ko‘nglimiz bilan hisoblashmaganmiz. Mana endi buning jabrini tortib yuribmiz.

— Men sizdan jabr ko‘rganim yo‘q. Birda-yarimda qiynalgan bo‘lsam, hammasiga chidab yuribman. Yo meni birov sizga yomonlab bordimi? Birovlarning gapiga ishonmang, Sattorjon aka! Mana, tepamizda Xudo turipti! Men o‘lgunimcha sizga sodiqman!

Oyshaxon otashin bo‘lib ayttan bu so‘zlar uning Sattorni astoydil sevishini ko‘rsatib turar edi. Ammo o‘zi suymagan xotinining sevgisi bu gal ham Sattorga malol keldi.

— Gap birovlarining yomonlashida emas!

Sattor «men senga ko‘ngilsizman» degan fikrni yotiqroq qilib tushuntirish uchun so‘z qidirdi:

— Men o‘zim... juda qiynalib yuribman. Ko‘r-ko‘rona turmush qurishning jabrini men tortyapman!

Oyshaxon bu gaplarni yana boshqacha tushundi:

— Besh yildan beri shaharda bir o‘zingizga qiyin bo‘layotibdi, bilaman, o‘tgan gal aytdim-ku, bizni olib boring, ijara bo‘lsa ham mayli...

— Gap uyda emas, axir, Oysha, nahotki hech narsaga farosating yetmaydi! Gap mehrda! Gap ko‘ngilda! Menda mehr yo‘q, tushundingmi?!

Oyshaxon karavotni shiqirlatib, o‘tirgan joyida bir qimirlab oldi. U «erim menga sodiqmi, yo‘qmi» deb ko‘p ham bosh qotirmas edi. U Sattorni yaxshi ko‘rishi va unga sadoqat saqlashi go‘yo ikkovlari uchun ham yetarli edi. Sattorning o‘tgan galgiga o‘xhash sovuq muomalasini esa Oyshaxon kechirish mumkin, deb o‘ylar edi. «Odamlarning eri uradi, og‘izga olib bo‘lmaydigan so‘zlar bilan so‘kadi. Sattorjon akam meni hali chertgan ham emas!» deb o‘zicha faxrlanib yurar edi. Mana endi eri o‘zining

bemehrligini aytyapti.

- Mehr ko‘zda, deyishar edi, siz bizdan uzoklarda yurib mehringizni yo‘qotgandirsiz.
- Bor bo‘lsa yo‘qotar edim, yo‘qni yo‘qotib bo‘ladimi?
- Yo‘q?! — rangi bo‘zday oqarib so‘radi Oyshaxon.

U birga o‘tkazgan yillaridan himoya istar, yuzlab odamlar ularga ok fotiha bergan to‘ylaridan madad olmoqchi bo‘lar edi. Ammo Sattor u tayanmoqchi bo‘lgan hamma ustunlarni bir-bir qulatib borayotganga o‘xshardi:

— Men o‘shanda o‘qimoqchi edim, Oysha, to‘y bo‘lishiga qarshi edim. Men o‘zim ham aybdorman! Yomon xato qilganman! Qochib ketmaganimga keyin ming pushaymon bo‘ldim! Oriyat deb meni majbur qilishgan edi...

- Endi buni menga nega aytasiz?

— Axir sen ham haqiqatni bilishing kerakmi, yo‘qmi? Yoki umrbod bu sovuq turmushga ko‘nikib o‘tib ketmoqchimisan?

- Sovuq bo‘lsa siz uchun sovuqdir, men uchun emas!..

Sattor bu javobdan tang qolib, o‘rnidan turib ketdi. Oyshaxon ham beixtiyor o‘rnidan turib, karavotning yaltiroq dastasidan ushlagan hoddha Sattorga baqrayib qaradi. Uning rangi qonsiz, ko‘zları allanechuk to‘xtab qolgan. U Sattorning qarshisida xuddi muallimidan qattiq dashnom eshitayotgan talabaga o‘xshab turardi.

— Sen o‘zingni mening o‘rnimiga ham qo‘yib ko‘rgin, Oysha. Ko‘zingni kattaroq ochib ahvolimga bir qaragin! Agar mening senga astoydil ko‘nglim bo‘lganda besh yildan beri ko‘chirtirib olib ketmasmidim? Yoki o‘zim yoningga kelmasmidim! Odamlar sevgan xotinlari uchun nimalar qilmaydi. Men esa... bu yerga bo‘ynidan boylanganday majbur bo‘lib kelaman. Sal narsadan ensa qotgan, asab buzilgan... Bu hali uch-to‘rt oyda bir kelib ketganim uchun bo‘layotgan holvasi. Agar doim birga turadigan bo‘lsak, turmushimiz jahannamga aylanib ketadi. Har kuni urish-janjal qilib, sharmanda bo‘lib yurib, oxiri bir kun ajrashishga majbur bo‘lamiz. Undan ko‘ra hozir yaxshilikcha bir bitimga kelaylik!

Oyshaxon sim karavotning dastasiga suyanganicha indamay yerga qarab turar, faqat a’zoyi badani zir titrar edi. Uning titrog‘i suyanib turgan karavotiga ham o‘tib, temirlarni ham shiqirlatardi. Sattor uning yuzi o‘zgarib allaqanday jonsiz bo‘lib qolganini ko‘rdi-yu «Nima qilib qo‘ydim?» deb kalimaga kelib:

- Axir... ajrashmoqchimisz? — dedi.

— Boshqa chora yo‘q. Men sendan yomonlik ko‘rgan emasman, Oysha. Shuning uchun yaxshilikcha orani ochiq qilib ketmoqchiman. Menga hech narsa kerak emas. Uy, buyum, mol-hol hammasi senga qolsin. Bola bor. Uning uchun qonun talab qilgan nafaqani to‘lab turaman...

Oyshaxondan sado chiqmas edi. Sattor «Hamma gapni aytdim», deganday qilib hovliga chiqib ketdi.

Oyshaxonning ko‘zi qarshidagi devorga tushdi. To‘ylariga onasi bilan birga tikkan ko‘k baxmal so‘zana devorni enlab, ipaklari hali ham tovlanib turibdi. So‘zananing ustiga Sattor bilan Oyshaxonning guldor ramkaga solingan rasmlari yonma-yon osib qo‘yilgan. Buni ham Oyshaxon o‘zi qilgan edi. U Sattorni sog‘inganda devordagi rasmga uzoq-uzoq tikilardi. Sattorning yo‘liga ko‘zi to‘rt bo‘lib, kechalari yolg‘iz tunaganda, bu rasm go‘yo uning yolg‘izligini bildirmas edi. Mana endi uning kutadigan Sattori yo‘q. Endi bu odam uni umrbod tashlab ketadi!

Oyshaxonni devordagi so‘zana ham, rasm ham chaqib olganday bo‘ldi. U birdan bo‘g‘ilib, nafasi qaytib, uydan tashqariga intildi.

Ayvonda Muxtor mashina o‘ynab o‘tiribdi. Tomning bo‘g‘otida musicha kukulayapti. Qovog‘ari sekin g‘o‘ng‘illab uchib o‘tdi. Olam shunday tinch, osmon o‘z o‘rnida turibdi, suv o‘z arig‘ida osoyishta oqyapti. Faqat Oyshaxonning o‘y-hayollari to‘s-to‘polon bo‘lib ketgan, butun his-tuyg‘ulari joyidan qo‘zg‘algan. Ajrashish haqidagi gaplar uning vujudiga zahar bo‘lib tarqalyapti. Oyshaxon

najot istaganday atrofiga alangladi.

Uning ko‘zi tovuq katagining tomi ustiga yoyib qo‘yilgan qovun qoqiga tushdi. Oyshaxon bu qovun qoqini «Sattorjon akam yaxshi ko‘radilar, Toshkentga ko‘chib borsak kishda yeymiz» deb qilgan edi. U Sattorning bu yerga kelolmasligini bilgandan beri «bir kuni kelib bizni albatta, ko‘chirtirib ketadilar» deb ishonar edi. Oyshaxon Sattor olgan kvartirada ko‘p qavatli binoning beshinchimi, oltinchimi qavatida qanday yashashlarini o‘ylab, kuni kecha bir talay orzular qilgan, turlituman rejalar tuzgan edi. Mana endi buning hammasi puch yongoq bo‘lib chiqdi. Birpasda Oyshaxonning hamma orzu-umidlari chil-chil sindi.

Bostirmadagi ola sigir arqonini tarang tortib, Oyshaxonga tomon intildi-da, ovqat so‘raganday bosiq bir tovush bilan ma’radi. Unga o‘t o‘rib kelish kerak. Oyshaxon biror ishga unnasa sal yengil tortadiganga o‘xshadi. O‘roqni olmoqchi bo‘lib narigi uyga o‘tayotgan edi, so‘rida peshanasini kaftiga qo‘yib hayol surib o‘tirgan Sattorni ko‘rdi. Keyimlari, sochi, bo‘yni hammasi shunday ozoda, shunday chiroyli, o‘tirishi ham shunday shaharcha, nazokatl! Oyshaxon o‘zi bilan erining orasida farq naqadar katta ekanini endi chetdan ko‘rganday bo‘ldi. «O‘ziga munosib qizni shahardan topgan bo‘lsa kerak!» degan alamli o‘y yuragini o‘rtab yubordi. U to‘satdan Sattorning tepasiga keldi-yu:

— Men bilan ajrashib, shahardagi yaxshi ko‘rganingizni olmoqchimisiz? — dedi.

Oyshaxon Sattorning «yaxshi ko‘rgan hech kimim yo‘q» deyishini istardi. Sattor uning shubhasini rad etsa, Oyshaxonning ko‘ngli sal taskin topadiganga o‘xhardi.

Sattor unga achinganday bo‘lib karadi-yu:

— Nima qilay, hayot shunaqa ekan, — dedi. — Sening ham erking qo‘lingda bo‘ladi-ku, Oysha. Hali yoshsan, men bilan turmush qilib yolchigan emassan. Balki boshqa birov...

— Bas! Er sizdaka bo‘ladigan bo‘lsa, men dunyodan ersiz o‘taman!

— Ixtiyor o‘zingda. Faqat sendan iltimos... Bejanjal, yaxshilik bilan ajrashaylik.

Shunday yomon ishni Sattor yaxshilik bilan qilmoqchi bo‘layotganini Oyshaxonni tutaqtirib yubordi:

— Siz menga bunaqa muloyim xunuk gaplarni aytmang! Undan ko‘ra Azroil bo‘lib jonimni olganingiz yaxshiroq! Chala o‘lik kilib ketguncha, o‘ldirib keting meni!

Ayvonda o‘ynayoggan Muxtor o‘yinni ham unutib onasiga ko‘zining paxtasini chiqarib qarab qoldi. Sattor iloji boricha yotig‘i bilan yurakdan chiqarib aytgan so‘zлari Oyshaxonni bunchalik daxshatga soladi, deb hech o‘ylaagan edi, dovdirab qoldi.

— Oysha, o‘zingni bos, iltimos qilaman, Oysha!.. Sattorning so‘zini hech vaqt yerda qoldirmagan, hamisha yuvosh, qobil-mo‘min Oyshaxon hozir uning iltimosiga qulqoq ham solmas, hovlining o‘rtasida turib, titrab-qaqshab:

— Pichoqni olib chiqing! So‘yib keting meni! — derdi.

Muxtor yig‘lab oyisiga tomon intildi. Sattor sarosima bo‘lib Oyshaxonni tirsagidan oddi:

— Esingni yig‘, Oysha! Muxtorni qo‘rqityapsan! Bolangga qara! Oyshaxon Sattorning qo‘lidan hazar qilganga o‘xshab siltanib, tirsagini bo‘shatib oldi:

— Qo‘lingizni torting! Men «puf sassiqman!». Sattor uni sevmasligi, u bilan ajrashib, sevganini olmoqchi ekanligi Oyshaxonning qalbini shunday timdalayaptiki, og‘rig‘iga chidab bo‘lmaydi. Yig‘lasa, balki ko‘z yoshlari bu og‘riqni sal yumshatar edi. Ammo uning ko‘zлari namsiz. Lablari ichki qiyonoqdan tirishgan, yuzi yerday o‘ngib ketgan.

O‘g‘ilchasi yig‘lab kelib etagiga yopishgan edi, Oyshaxon:

— Tegma menga! — deb etagini bolaning qo‘lidan chiqarib oldi. Uning ko‘ziga hozir bola ham ko‘rinmas edi. U Sattorni chetlab o‘taman deb yoz bo‘yi o‘zi avaylab o‘stirgan nozik gul, bo‘tako‘zlarni bosib oldi. Ammo buni sezmadni. Boshi og‘rib narigi uyga kirdi. Nega kirganini eslayolmay, ichkarida nafasi bo‘g‘ilib, darrov qaytib chiqdi. So‘ng tomorqani oralab uzoqlashib ketdi.

Bola unga ergashgan edi, Sattor qaytardi:

— Oyingni birpas o‘z holiga qo‘y. Jahli sal bosilsin. Yur, mashinalaringni o‘ynaysan. Yur!

Sattor o‘g‘ilchasini qo‘lidan tortib, yetaklab, ayvonning oddiga olib keldi. Ammo bolaning mashina o‘ynagisi kelmas, u oyisi ketgan tomonga xavotirlanib qarab turar edi.

«Men senga azaldan bemehrman... To‘y bo‘lishiga qarshi edim. O‘sanda qochib ketmaganimga pushaymonman... Axir sen ham haqikatni bilishing kerakmi, yo‘qmi?».

Sattor aytgan bu so‘zlarning har biri Oyshaxonni go‘yo chayon bo‘lib chaqar edi. Oyshaxon bu so‘zlarni hayolidan uzoqlashtirmoqchi bo‘lib atrofiga qaradi. O‘t-o‘lanlar orasida daraxtdan to‘kilgan olmalar yumalab yotibdi. Uzoqda traktor tarilladi. Ufq qira, xavodan tuproq yog‘ib turibdi. Qaerdadir chang-to‘zon bo‘lgan. Oyshaxon hayolini shu narsalar bilan band qilishga tirishdi:

«Qurt yegan olmani sigirga terib bermoqchi edim... Traktor nima qilyapti ekan?». — Ammo to‘satdan yana Sattorning gaplari hayoliga bosib keldi-yu boshqa narsalar bilan aralash-quralash bo‘lib eshitila boshladi. «Agar mening senga ko‘nglim bo‘lganda, besh yildan beri ko‘chirib olib ketmasmidim?». Osmon g‘ubordan past bo‘lib qolganga o‘xshaydi. «Odamlar yaxshi ko‘rgan xotinlari uchun nimalar qilmaydi! Men esa bo‘ynidan boylaganday majbur bo‘lib kelaman...» Sigir qurt yegan olmani yaxshi yeydi... Oyshaxonga hozir o‘zi ham, Sattor bilan kechirgan umri ham ayanchli va jirkanch ko‘rina boshladi. Uy ham, hovli ham, tomorqa ham zaharli tuyg‘ularga to‘lib ketganga o‘xshardi. Oyshaxon bu tuyg‘ulardan qochib kutuladigan joy qidirib, tomorqadan nariga o‘tib ketdi.

U qayoqqa borayotganini o‘zi ham bilmas edi. Torgina so‘qmoq pastda to‘lqinlanib oqayotgan ulkan daryo bo‘yiga kelib tamom bo‘ldi...

Hovlida qolgan Muxtor dadasingin qo‘lidan yulqinib chiqdi-da, turtinib-qoqinib oyisining izidan ketdi.

Oyshaxon daryodan har kun suv oladigan joyiga kelib to‘xtadi.

Keng o‘zanda tarmoqlanib oqayoggan daryoning bir qismi bu yerda tosh aralash qumloq qirg‘oqqa «chilp-chilp» urilib o‘tar edi. Quyiroqda bu oqim daryoning asosiy oqimlari bilan qo‘shilib, vahimali girdobga aylanib ketar, nurab turgan pastki sohilni yil sayin yemirib, jar qilib borar edi.

Oyshaxon tuprog‘i suvga to‘kilib, nurab turgan o‘sha jarga qaradi-yu, Sattorning «devor qiyshiq bo‘lsa bir kun emas, bir kun qulaydi» degan so‘zlarini esladi. Sattor buni ikkovlarining ko‘ngilsiz turmushlari haqida aytan bo‘lsa ham, hozir Oyshaxonning o‘zi o‘ziga qiyshiq bir devor bo‘lib ko‘rindi. Sattor uni tashlab ketadigan bo‘lsa, birovlar «qiyshiq bo‘lgani uchun tashlab ketdi!» deb kulishini, boshqa birovlar: «Bundan uzoqroq yuraylik, yana ustimizga qulab tushmasin!» deb o‘zini tortishini Oyshaxon go‘yo oldindan his qiddi. U chidab turib bo‘lmaydigan bir alamdan to‘lg‘anib, o‘ziga o‘zi gapirdi:

— Tashlandiq xotin... qiyshiq devor... Qulaydi! Qulasa ham mana shu daryoga qulasin... Agar... Hech kim... Hammasini suv yashiradi...

Oyshaxon ko‘zlarini katta-katta ochib, daryoga tikilib qoldi. O‘zini chayonday chaqayotgan hamma zaharli tuyg‘ularni shu daryoga g‘arq qilib yuborishi mumkinday tuyuldi. Buning uchun Oyshaxon o‘zi ham g‘arq bo‘lishi kerakligini his qildi-yu, seskanib, qirg‘oqdan ikki-uch qadam orqaga chekindi. Shunda hamma alamli o‘ylar, hamma zaharli tuyg‘ular avvalgidan ham zo‘r bir kuch bilan vas-vas bo‘lib bosib keldi. Uning ko‘z oldi qorong‘ilashdi. Nima qilayotganini o‘zi ham bilmagani holda nimchasini yechib yerga tashladi. Hayolida intiqom aralash bir o‘y tutunday buruqsar edi: «Hali pushaymon bo‘ladi! Hali ko‘radi! Ha, ha...».

14

Hovlida yolg‘iz o‘zi qolgan Sattor Oyshaxonga aytgan gaplarini eslab, mulohaza qib ko‘rdi. Hammasi rost, hammasi uni ko‘pdan beri qiy nab yurgan haqiqat. Ammo, bu haqiqatni Oyshaxon ko‘tara oladimi yoki biron korhol yuz beradimi? Mana shu o‘y uning hayoliga endi keldi-yu, Sattor birdan iztirobga tushdi. Ehtimol, onasining avzoyi bezoligini Sattordan ko‘ra bola tezroq sezgandir? Shuning uchun dadasingin yonida qolgisi kelmay hovlidan yig‘lamsirab chiqib ketgandir?

Sattor o‘g‘li ketgan tomonga shoshilib jo‘nadi. So‘qmoqqa chiqqanda daraxtlar orasidan daryoning narigi cheti oynaday yaraqlab ko‘rindi. Shu payt qirg‘oq tomonda bolaning dod solib yig‘lagani eshitildi. Sattor ovoz kelgan tomonga qarab yugurdi.

Muxtor oyisining telbaqa o‘xshab bir narsalar deb gapisirishi, o‘zini daryoga tashlaganini anche beriroqdan ko‘rgan edi. U qo‘rqanidan oyisiga qarab emas, orqaga qarab chopib kelmoqda edi:

— Aya!.. Ayajon! Aya! — Bola Sattorni ko‘rdi-yu, unga karab qo‘l cho‘zdi: — Dadajon! Aya ketdi! Aya...

Vasvasga berilib bolasini ham unutgan Oyshaxon muzday to‘lkinlar ichida seskanib: «Nega bunday qildim?» dedi. U daryoning chuqur joyiga o‘zini tashlagan edi, cho‘kayotib Muxtorning «Aya!» deb chinqirganini eshitdi. Onalik tuyg‘usi endi o‘zini eslatdi. Oyshaxon jon-jahdi bilan yuqoriga intildi. Oyog‘i daryoning tagiga tegib qapchidimi yoki oqim yordam berdimi, Oyshaxon suzishni bilmasa ham, suv yuziga bir talpinib chiqdi. Shunda yorug‘ dunyo unga benihoya g‘animat va aziz tuyuldi. U hozir bolasining yoniga chiqishni, yashashni istardi, tirik qolishga butun borlig‘i bilan intilardi. Dunyoda o‘limdan berahm, o‘limdan mudhish narsa yo‘qligi unga endi bilinmoqda. Uning nazarida dunyo hozir suvga emas, o‘limga to‘lib oqmoqda edi. Qirg‘oqlarga urilib o‘tayotgan berahm kuch uni o‘z qa‘riga tortib ketdi. Oyshaxon, nafasi qaytib, suv yutib, yana ko‘rinmay qoldi. Chinqirib yig‘layotgan bolasiga so‘nggi marta qarab olishga ham ulgurmadi.

Uning yuzaga bir qalqib chiqqanini ko‘rgan Sattor chopib kelayotgan ko‘yicha ko‘ylagini yechdi, tuflisini oyog‘idan otdi-da, daryoga sakradi.

Qudratli oqim Oyshaxonning jar etagidagi girdoblarga tomon olib ketmoqda edi. Daryo bo‘yida o‘sib, bu atrofda ko‘p suzgan Sattor o‘sha girdoblardan hamisha qo‘rqrar edi. Bu yerda yaxshi suzadigan odamni ham pastga tortib ketadigan bir o‘pqon bor edi. Bunday besh yil oldin shu yerda bir suvchi yigit cho‘kib o‘lgani uning esiga tushdi.

Oyshaxon suv ichida talvasa qilib, qo‘l-oyoqlarini sermab tipirchilar, ammo ushlaydigan yo tayanadigan hech narsa topolmas, nafasi qaytib, suv yutib, hushidan ketib borar edi. Shu payt Sattor yetib keldi. Uning qo‘liga Oyshaxonning yoqasi ilindi. Sattor yoqadan tortib, endi yuzaga chiqqan paytda Oyshaxon jon achchig‘i bilan unga yopishdi-yu, bo‘ynidan mahkam kuchoqlab oldi. O‘zini yo‘qotib qo‘ygan Oyshaxon nima qilyotganini bilmas, Sattorni quchog‘idan qo‘ysa so‘ngi umididan ajraladiganga o‘xshar edi. Biroq, bu holatda suzib bo‘lmas edi. Endi ikkovi birga cho‘ka boshladi. Sattorni vahima bosdi. Oyshaxon zilday og‘ir. Suv ichida tayanadigan joy bo‘lmagani uchun durustroq sultanib ham bo‘lmasdi. Sattor tizzasi bilan Oyshaxonning qornigami, biqinigami bir urdi. Shunda Oyshaxon uni qo‘yib yubordi. Sattor bir intilib suv yuziga chiqar ekan, tusmol bilan Oyshaxonning boshini topib, sochidan ushlab yuqoriga tortdi.

Nihoyat, ikkovlarining ham boshlari suv yuzida ko‘rindi. Sattor entikib, suv purkab, nafasini rostladi. Oyshaxon hushidan ketgan edi. Sattor uni chalqancha qilib, bir qo‘li bilan ko‘ylagini yelkasidan ushlab oldi.

Bu orada ular mash‘um girdoblarga yaqin borib qolgan edilar. Zo‘r oqimning asosiy qismi shu girdoblarga borib pasayar, o‘pqonga tushib, yo‘q bo‘lib ketar edi. Ammo oqimning narigi chetida yirik soch o‘rimlariga o‘xshagan g‘ayir to‘lqinlar girdobini chetlab o‘tar edi. Sattor butun kuchini ishga solib, oqimning o‘sha chetiga qarab suza boshladi. Bu oqim daryoning o‘rtasiga — boshqa vahimali oqimlarga qarab ketsa ham, quyiroqqa borib qirgoqqa yondashishini u yaxshi bilardi. Joni ko‘ziga ko‘rinmagan bo‘ydoqlik davrida Sattor tengdosh yigitlar bilan bas boylashib, bir marta mana shu joydan suzib o‘tgan ham edi. Ammo hozir bir ko‘lidagi og‘ir yuk bilan kuchli oqimning narigi chetiga o‘tish behad mushkul tuyuldi. U xatarli girdobga yaqin borib qoldi. Oqim jimbib, girdobga singib ketayotgan joyda suv uni kuch bilan pastga tortdi. Sattor «kendi tamom» deb o‘yladi. Ammo tirik qolish istagi, yashash ishtiyobi unga shunday bir quvvat berdi, o‘lim xavfi uni shunday qamchiladi-ki, Sattorning oyoq-ko‘llarigina emas, butun vujudi, badanida bor har bitta muskuli suzgichga aylanib ketganday bo‘ldi. U jon-jaxdi bilan talpina-talpina soch o‘rimlariga o‘xshagan o‘sha chetki oqimga

quloch otib kirdi. Bu oqim yordamida nishabga qarab suzish osonroq edi. Sattor ancha nariga borib, toshloq qirgoqqa yondashdi.

Oyshaxon xushiga kelib ko‘zini ochsa, tepasida majnuntolning mayin egilgan shoxlari quyosh nurlarida nafis yiltirab turibdi. «Tirik qoldimmi?» degan o‘y hayoliga birinchi bo‘lib keldi. Badani karaxt, u boshini bir yonga burdi. Ko‘p yig‘lab ko‘zi qizargan Muxtor oyisining qimirlaganini ko‘rib, suyunib ketdi. Oyshaxon eshitilar-eshitilmas tovush bilan:

— Muxtorjon!.. — dedi. Bola toshloqda shaqir-shuqur yurib kelib, onasining yoniga cho‘kkaladi. Oyshaxon yotgan kuyicha qo‘rg‘oshinday og‘ir qo‘lini zo‘rg‘a ko‘tarib, o‘g‘lini bag‘riga bosdi. Shag‘alda og‘ir qadam tovushi eshitildi. Oyshaxon yuzini narigi tomonga o‘girdi. Sochlari xo‘l, maykachan Sattor unga horg‘in ko‘zlari bilan tikilib turibdi. Oyshaxon suv tagida kimgadir yopishganini g‘ira-shira esladi. Kim edi u? Oyshaxon bilmaydi. U Sattordan hayiqib, yuzini Muxtorning panasiga oldi. Zaif labi titrab, boladan shivirlab so‘radi:

— Meni kim... olib chikdi?

Muxtor boshini ko‘tarib, Sattorga bolalarcha bir iftixor bilan qaradi. So‘ng zavq bilan:

— Dadam! — dedi.

Bolacha otasini go‘yo endi tanigan va go‘yo endi astoydil yaxshi ko‘rib qolgan edi. Oyshaxon buni sezdi-yu, ko‘zlariga yosh quyilib keldi. U Sattorni pushaymon qildirmoqchi bo‘lib o‘zini daryoga tashlaganidan endi ming pushaymon edi. O‘zini o‘limdan olib qolgan Sattorga esa uyalib qaray olmas edi.

Sattor uning qilgan ishidan qanchalik norozi bo‘lmisin, hozir ko‘ziga yosh olayotganini ko‘rib, yengilroq gap qidirdi:

— Suvni ko‘p yutib rosa vodavoz bo‘lib ketgan ekansan. To‘kib-to‘kib zo‘rg‘a tamom qildim!

Sattor uni qo‘liga ko‘tarib, og‘zini pastga qilib, yutgan suvlarini qanday tushirgani Oyshaxonning ko‘z oldiga keldi. U izza bo‘lib o‘rnidan turishga intildi, ammo boshini ko‘tarib ololmadi. Ko‘ngli behuzur bo‘ldi.

— Yot, qimirlama, hademay yaxshi bo‘lasan, — dedi Sattor. — Ungacha ayam ham kelib qolar.

Sattor uning quruq nimchasini boshiga qo‘ydi.

Xosiyat xola rayondan qaytganda Oyshaxon uyga keltirilib, divanga yotqizib qo‘yilgan, Sattor feldsherni chaqirib, dori-darmon qildirgan edi. U Oyshaxonning o‘zini suvga tashlaganini onasiga ham, boshkalarga ham ataylab aytmadni. Gapni ko‘paytirgisi kelmay:

— Oyog‘i toyib tushib ketibdi, — deb ko‘ya qoldi. Oyshaxon ham buni tasdiqlar edi. Ajrashish haqida bo‘lib o‘tgan gap faqat ikkovi biladigan ichki sir bo‘lib qolishi Oyshaxonga dalda berar, keraksiz gap-so‘zlardan uni himoya qiladiganday bo‘lar edi. Kechki payt voqeadan xabar topib Oyshaxonning onasi ham keldi. Sattor ko‘chaga chiqib ketganda:

— Qudajon, bolam ko‘zikkan, bunga ins-jins tekkan, irimini qilaylik, — deb Oyshaxonga isiriq soldi. Keyin uni hovliga suyab olib chiqishdi.

Xosiyat xola bitta jo‘jaxo‘rozni kelinining oyog‘i tagiga keltirib so‘ydi-da, qonidan chakkasiga ozgina surtdi. Oyshaxonni yelkasiga urib-urib qoqdi:

— Suqbo‘lsang, chiq, hasad bo‘lsang, chiq! Arvoх bo‘lsang, go‘rga bor! Shayton bo‘lsang, g‘orga bor!

Oyshaxon bunaqa irimlarning foyda berishiga ishonar, shuning uchun o‘zini tobora yaxshi his qilar edi.

Oqshom unga jo‘jaxo‘rozning sho‘rvasidan ichirib yotqizishdi. Ertasi kuni Oyshaxon hiyla yaxshi bo‘lib turdi va kundalik yumushlarini qilib ketdi.

U oshxonada shirchoy pishirayotganda Xosiyat xola bilan Sattor ayvonda gaplashib o‘tirar edilar.

— Bir Xudo deganimiz bor ekan-da, — dedi Xosiyat xola. — Bo‘lmasa, bu daryo har yili qonsiraydi. Bitta-ikkita odamnimi, molnimi olib ketadi. Sening xabardor bo‘lib qolganiningni ayt-a, Sattorjon. Mana bu bolaginangning baxtimi, ishqilib, xotining bir o‘limdan qolibdi!

Muxtor bir g‘ildiragi chiqib ketgan mashinachasini Sattorning oldiga ko‘tarib keldi:

— Dada, tuzatib bering!

Sattor g‘ildirakni o‘rniga qo‘yib bergen edi, birpas o‘tmay Muxtor yana:

— Dada, bu sizga! — deb Sattorning oldiga qoshiq keltirib qo‘ydi.

U Sattorning atrofida girdikapalak bo‘lib yurardi. Go‘yo u dadasini endi topib olgan. Shu vaqtgacha Sattor qo‘l yetmas bir uzoqliqda yurar, Muxtor undan doim uyalar, tortinar, yaqiniga borishdan hayiqar edi. Kechadan beri dadasi unga behad yaqin, behad qadrdon bo‘lib qolgan, Muxtor unga bolalarcha bir ixlos bilan qaraydigan bo‘lgan. Bugun shirchoyni ham u Sattorning yonida o‘tirib ichdi.

Otalik hissi Sattorga ham juda iliq tuyulib, ko‘nglining bir chetini yumshatib turar edi. Ammo ko‘nglining tubida hali ham o‘sha toshday og‘ir tugun o‘rnidan jilmay yotibdi. U yoqda Sattorni deb ich-etini yeb yurgan Roziya. Bu yoqda bu ko‘ngilsiz turmush. Ikki o‘t orasida kuyib yurgan uning o‘zi...

Moskvada Roziya butun ixtiyorini Sattorga bergandan keyin bu chigal tugunni yechishning yo‘li topilganday bo‘lgan edi. Sattor Oyshaxonni janjal-to‘polonsiz ajrashishga ko‘ndiraman, deb o‘ylagan, kecha shu ishonch bilan bu yerga kelgan edi. Biroq, bu hammasi bir xom hayol ekanini u endi ko‘rib turibdi. Bir-biriga kirishib ketgan et bilan tirnoqni og‘riqsiz ajratib bo‘lmasligini Sattor unutgan ekan. So‘ngi bir kun unga xotini sevmasligidan ham muhimroq, murakkabroq narsalar borligini eslatdi.

Agar Oyshaxon ham Sattorning o‘zi darajasida mustaqil fikr yuritadigan, hamma narsani tahlil qila oladigan odam bo‘lganida edi, har qanday ichki og‘riqlarga chidab, insoniy g‘ururini qo‘ldan bermay, «muhabbatsiz turmushni men ham istamayman» degan bo‘lardi. Unda Sattor o‘ylaganday bejanjal ajrashishlari mumkin edi. Biroq, Oyshaxon avval ota-onaning, so‘ng er bilan qaynonaning izmiga bo‘ysunib o‘rgangan. Uning ichki dunyosi bolanikiday mo‘rt bo‘lib qolgan. U dala ishi-yu, ro‘zg‘or tashvishi bilan bo‘lib, o‘ziga yaxshi qarayolmagani uchunmi, hamisha kimgadir suyanadi, kimningdir ra‘yiga qaraydi. Turmushga chiqqandan beri uning suyangan tog‘i ham, eng katta tayanchi ham Sattor edi. Kecha Sattor haligi gaplarni aytgandan keyin bu tog‘ go‘yo joyidan qo‘zg‘alib ketdi, Oyshaxon tayanchidan ajralib, muvozanatini yo‘qotdi-yu bexosdan daryoga yiqilib tushganday bo‘ldi. Bugun shu tog‘ yana o‘z o‘rnida osoyishta turganga o‘xshaydi — Sattor Oyshaxonni daryodan olib chiqqani ham, odamlarga gap nimadaligini aytmagani ham, o‘g‘ilchasini yoniga olib o‘tirgani ham go‘yo shundan dalolat beradi.

Oyshaxon shirchoyni hamma qatori ishtaha bilan ichdi, Xosiyat xola er-xotinni yolg‘iz qoldirgisi kelib, kosa-tovoqlarni o‘zi yig‘ishtirib olib ketdi. Sattor Oyshaxonga yer tagidan qarab:

— Endi durustmisan? — dedi.

— Ha, shukur.

— Kecha... nega unday qilding?..

— O‘zim ham bilmayman.

— Mendan qasd olmoqchi bo‘ldingmi?..

— O‘zim ham bilmayman.

— Mendan qasd olmoqchi bo‘ldingmi?

— Qasd? Yo‘q, men... men... sharmandalikdan qutulmoqchi bo‘ldim.

— Agar sen cho‘kib ketsang, eng katta sharmandalik ana unda bo‘lar edi!

Oyshaxon ko‘zlar yoshlanib:

— Hech kim bilmas edi, — dedi. — «Oyog‘i toyib tushib ketibdi», dedingiz, hamma ishondi-ku.

— Hech kim bilmasa ham, men bilar edim!

— Siz ham kecha odamga og‘ir botadigan gaplarni aytdingiz-da.

— Gapim noto‘g‘ri bo‘lsa, isbot qilib bergen edi, darding bo‘lsa, ochiq aytgin edi. Shunchalik jaholatga berilasanmi? Bu yokda bola. O‘zingning yosh joning. Yana meni ham birovning o‘limiga sabab bo‘lgan bir qotilga aylantirib ketmoqchimiding?

Oyshaxon kecha aqlini yo‘qotib qilgan qilig‘ining bunchalik yomon ma’nolari borligini endi astoydil fahmladi-yu azbaroyi hijolat bo‘lganidan piq-piq yig‘lay boshladi.

— Men bir ahmoqlik qildim... Umrimdada bunday uyatli ish qilgan emas edim...

Hozir shu turishda Oyshaxon Sattorga faqat o‘zining xotini bo‘lib emas, yordamga muhtoj bechora bir odam bo‘lib ko‘rindi. Uni shu ahvolda tashlab ketish — suzishni bilmaydigan odamni daryoning o‘rtasiga olib borib tashlab ketishga o‘xshardi.

— E tavba! — dedi Sattor kuyunib. — Sen ham mana shu qishloqda daryoning bo‘yida o‘sgansan-ku. Nega aqallisi suzishni o‘rganmagansan?

Gap faqat suvda suzish haqidagina emasligini Oyshaxon ham sezdi. U ko‘z yoshini kafti bilan artib:

— Uyalganman, — dedi. — Kichkinligimda daryodan qo‘rqar edim. Keyin: «Qiz bolaga uyat bo‘ladi» deb ayam qo‘ymaganlar. O‘zim ham odamlar gap qiladi, deb tortinganman.

— Odamlarning gapi-yu, eskicha qarashlari kelib-kelib senga yopishgani qiziq. Axir xuddi shu qishloqdan chiqqan Rixsixon Toshkentda suzish musobaqalarida sovrin oldi-ku. Uni televizorga chiqarib maqtashganda hammalaring: «Bu qiz bizning qishloqdan!» deb faxrlangandirsanlar?

Sattor shu bilan: «Gap sening qiz bola bo‘lganingda ham emas, qishloqlik ekanligingda ham emas, hamma ayb o‘zingda!» deyayotganday bo‘ldi.

Bu Oyshaxonga erining kechagi og‘ir gapini eslatdi. Oyshaxonning ko‘ziga yana yosh kuyulib keldi:

— Nima qilay? Rixsixon institutda o‘kigan. Men ham o‘zimga yarasha biron joyda o‘qiy dedim. Olib bormadingiz.

— Institutda o‘qimasdanam unib-o‘sib ketayotganlar yo‘qmi?

— Nega bo‘lmas ekan? Bor. Rais tog‘am meni, tabelchilikka olaman, dedi. Dadam qo‘ymadilar. Mexanizatorlikni o‘rganay dedim, ayangiz ruxsat bermadilar. O‘zimning ayam ham: «Bolalik ayolga to‘g‘ri kelmaydi», deb turib oldilar.

— Xullas, sen birovning ruxsatiga qarab, birovning izmiga bo‘ysunib o‘rganib kolgansan. Lekin seni mustaqil yashashga o‘rgatib bo‘larmikan? Suvda suzish uncha qiyin emas. Hayot daryosida mustaqil suzishni senga o‘rgatib bo‘larmikan?

Oyshaxon bosh egib, «siz nima desangiz shu» deganga o‘xshab o‘tirardi. Uning yuzi ichki bir iztirobdan oqarib ketgan, lablari titrar edi.

Xosiyat xola oshxonadan qaytib kelayotib, er-xotinning orasida jiddiy gaplar bo‘layotganini sezdi. Kelinining ko‘zi nam ekanini ko‘rib:

— Sattorjon, sen Oyshaga qattiq botma, o‘zining sal mazasi bo‘lmay yuribdi, — dedi. — Saraton kunlarida ham Xudo buni bir falokatdan asrab qolgan. Sigirga o‘t o‘raman deb, samolyot endigina dori sochib o‘tgan joyga borib qolgan. Bir-ikki tutam o‘t o‘rgandan keyin bilgan.

— Hasharotga qarshi sepganmidi? — deb Sattor Oyshaxonga xavotirlik bilan tikildi.

— Ha.

— Hamma yokqa e’lon qilinar edi-ku. Ehtiyyot bo‘linglar, deyishmaganmidi?

— Aytishgan edi. Men bilmay borib qolibman.

— Ie, hididan ham bilsang bo‘lardi-ku!

— Hidi hamma yoqqa tarqab ketgan edi-da... Yo‘lning chetiga bayroqcha tiqib qo‘yilgan ekan, men go‘l ko‘rmay o‘tib ketibman.

— Keyin nima bo‘ldi?

— Sezgan zahotim o‘tni tashlab qochdim. Uch-to‘rt kungacha boshim aylanib, ko‘zim tinib yurdim. Doktorlar dori-darmon qildi.

— Sigirga o‘t o‘raman deb-a? Joning sabil qolganmi sening? Odam ham shunaqa bo‘ladimi?

Sattorning koyishlari Oyshaxonga og‘ir botmas, bir jihatdan hatto yoqimli tuyular edi. Bu koyishlarda kechagi sovuq sipolik yo‘k, balki jonkuyarlikka o‘xhash bir iliqlik bor. Sattorning boyagi

kuyunganlari ham, «Seni hayot daryosida mustaqil suzishga o‘rgatib bo‘larmikan?» degan so‘zlar ham Oyshaxonni umidlantiradi. «Sattorjon akamlar ajrashish to‘g‘risidagi gaplarini achchiq ustida aytgan bo‘lsalar, — deb o‘ylaydi u, — bora-bora hammasi eslaridan chiqib ketarmikin? Koshki shunday bo‘lsa!..»

Oyshaxonning ko‘nglidan o‘tgan bu gaplarni Sattor go‘yo sezdi-yu, qalbida qarama-qarshi hislar tug‘yon urib o‘rnidan turib ketdi.

«Nima qilish kerak? Muhabbatsiz turmushdan voz kechishga u hozir ham o‘zini hakli sezadi. Lekin Oyshaxon ham tirik bir odam. Kecha Sattor uning cho‘kayottanini ko‘rib, bir chetda jim qarab turolmadi-ku? Bugun uning yordamga muhtoj bir inson ekanligini ko‘rib turib, tashlab ketsa, keyin bir umr o‘zini gunohkor sezmasmikan? Axir ayb Oyshaxonning bir o‘zida zmas-ku. Naryoqda qoloq ota-on, bu yokda eski tushunchali qaynona. Sattor Oyshaxonni ularning ta’siridan qutqarib olish uchun besh yildan beri nima qildi? Hech narsa! Nuqlu xotinini suymasligini pesh qilib, o‘zini undan olib qochib yurdi. Odam odama do‘sit, g‘amxo‘r, degan tushuncha kayokda qoldi? «Men ilg‘orman, sen orqada qolgansan, nari tur!» deb itarib tashlash...»

Yo‘q, Sattor bunday qilolmaydi. Ammo, bu boshi berk ko‘chadan qanday chiqish mumkin? Oyshaxonni bu yerda qoldirib ketsa-yu, turmushlari avvalgiday davom etsa, yana shu ota-on bilan qaynonaning ta’siri o‘zini ko‘rsataveradi. Hech narsa o‘zgarmaydi. Agar uni Toshkentga olib borib, birga yashasa, Oyshaxon tezroq o‘zgarishi mumkin, Sattorning ko‘nglini tezroq tushunishi mumkin. Biroq bunga Sattor bardosh bera olarmikin? Kecha daryoda Oyshaxon uni bo‘ynidan quchoqlab, cho‘ktirib yuborayozgani Sattorning esiga tushdi-yu, eti junjikdi. Oyshaxon mana shunaqa qilib uning butun orzularini cho‘ktirib yubormasmikan? Sattor Roziyadan mahrum bo‘lib armon qilib yurmasmikan?

Biroq Roziyaning o‘zi: «Menga so‘z bering, biz hech kimga yomonlik qilmaylik!» demagan edimi? Endi Sattor boshkalarga yomonlik qilmaslik uchun butun og‘irlikni o‘ziga olsa nima derkin? O‘zini qanday tutarkin? Nahotki, shu holatda ham Roziya Sattordan yuz o‘girib keta olsa?

Nima qilish kerak? Sattor ne vaqtgacha yolg‘iz o‘zi hovli bilan bitta bo‘lib o‘y o‘ylaydi-yu, oxiri yana Oyshaxonga ro‘para bo‘ldi:

— Tavakkal! — deb go‘yo o‘ziga-o‘zi dalda berdi. — Men seni Toshkentga ko‘chirtirib ketsam... borasanmi?

Oyshaxon Sattorga «sinab ko‘ryapsizmi yo chini bilanmi» deganday, ko‘zlarini katta-katta ochib tikildi. Sattor unga iztirob bilan qarab turibdi. Oyshaxonning «ha» deyishi ko‘nglining allaqaeriga og‘ir zarba bo‘lib tushadigandek.

Oyshaxon uning kechagi gaplarini esladi-yu, ikkilandi:

- Borsak qaerda turamiz?
- Kuzda uy beradigan bo‘lgan.
- Bizga-ya?
- Ha, sen ham ro‘yxatda borsan.
- Borib yana... ortiqcha yuk bo‘lsak...
- Bu yog‘i o‘zinga bog‘liq. Ishga kirarsan.
- Unday bo‘lsa, mayli... Boraman!

Kech kuzda Sattor uyga order oldi-yu, Oyshaxonlarni ko‘chirtirib ketdi.

15

Qish juda qattiq keldi. Fevral oxirlab qolayotgan paytda ham Toshkentda qor belga urar edi. Qahraton sovukqa chidab bo‘lmaydi. Ko‘chalar toyg‘oq, mashinalarning g‘ildiraklarida zanjirlar shaqirlaydi. Shaharda bor buldozerlar, skreperlar ishga solingan bo‘lsa ham, ustma-ust yog‘ib turgan qordan ko‘chalarni tozalab ulgurisholmaydi. Bunday paytda trolleybus, tramvaylarning yurishi

qiynlashadi, bekatlarda odam haddan tashqari ko‘payib ketadi.

Sattor ishdan chiqib bog‘chaga borsa, Oyshaxon Muxtorni kiyintirib olib chiqayotgan ekan. Uchovlari tramvay bekatiga kelib uzoq turishdi. Ularning tramvaylari qaerdadir qorga tiqilib, to‘xtab qolgan edi. Kechki izg‘irinda bolaning yuzi ko‘karib ketdi. Sattor uning qalt-qalt titrayotganini ko‘rdi-yu, ko‘chadan o‘tayotgan mashinalarga qo‘l ko‘tara boshladи.

Hozir taksining bo‘shi anqoga shafe. Qo‘l ko‘taruvchilar behisob. Odamlar hatto, kabinasi bo‘shroq yuk mashinalariga ham qo‘l ko‘taradi.

Taksining orqa o‘rindig‘ida xomush kelayotgan Roziya yo‘lda qo‘l ko‘tarib turgan Sattorni ko‘rib qoldi. Hovurdan xira tortgan deraza orqali uning kim bilan turganini ko‘zi ilg‘aganicha bo‘lmay, taksichiga:

— To‘xtating! — dedi.

Mashina yo‘l chetiga chiqib to‘xtayotganini ko‘rgan Sattor bolani qo‘liga olib chopdi. Oyshaxon uning ketidan yugurdi. Haydovchi oldingi eshikni ochdi.

— Qayoqqa?

— Ilgarigi Qashqar mahallasi tomonga, yangi uylarga!

— Po‘stin kiygan semiz haydovchi orqaga burilib, Roziyaga:

— Aylanish bo‘ladi-ku! — dedi.

Sattor orqa o‘rindiqda o‘tirgan suvsar telpakli ayolga endi qaradi. Roziyani tanib, birdan nafasi ichiga tushib ketganday bo‘ldi.

— Siz! — deya oldi, xolos.

Bu orada Oyshaxon ham yetib kelib, orqa eshikni ochdi:

— Voy, joy bor ekan-a, ola qoling, amaki, aylanish bo‘lsa pulini to‘laymiz!

Oyshaxon qo‘ng‘ir tivit ro‘molini peshanasiga bostirib o‘ragan. Sovuqda yuzining tuklari tikkayib turgan bu ozg‘in juvon Sattorning xotini ekanini Roziya endi payqadi-yu, nima deyishini, o‘zini qanday tutishini bilmay, bir lahza qotib turdi.

Sattor uy olib xotinini ko‘chirtirib kelganidan Roziya xabardor edi. Sattor unga hamma voqeani aytib bergen, shundan boshqa iloj yo‘qligini Roziya ham tu-shungan, orzu-umidlari barbod bo‘lsa ham, tishini-tishiga qo‘yib, Sattor tutgan yo‘lni ma‘qullagan edi. Ammo, hozir Toshkentning allaqaerida Oyshaxon uning sevgan yigitni Sattor bilan birga yashayotganini ko‘z oldiga keltirsa, Roziya ichki azobdan o‘zini qo‘yadigan joy topolmay qolar, Oyshaxon ko‘chib kelgandan beri shunday katta shaxar goho Roziyaga torlik qilayotganday tuyular edi. Endi ular hammasi shunchalik murakkab hissuyg‘ulari bilan birga mana bu mashinaga qanday sig‘ishadi?

Sattor Roziyaning o‘zgarib ketganini sezdi, bu tasodifiy uchrashuvdan uning o‘zi xam qattiq o‘ng‘aysizlanib, darrov eshikni yopmoqchi bo‘ldi.

Shu payt Roziya Sattorning qo‘lida sovukdan diydirab turgan bolani ko‘rdi. Birdan hushini yig‘ib:

— Yo‘q, yo‘q, kiringlar, aylanish bo‘lsa mayli! — dedi.

Oyshaxon orqa eshikdan kirib o‘rindiqqa o‘zini tashladi. Mashinaning pechkasi «g‘ir-g‘ir» ishlab turar edi:

— Issiqlik ekan-ey! — dedi Oyshaxon suyunib, so‘ng bolani Satgorning qo‘lidan oldi.

Sattor xotinining gaplari va o‘tirishlaridan uyaldimi, shu ahvolda Roziyaga duch kelganidan izza bo‘ldimi, bo‘ynini qisib haydovchining yoniga o‘tirganicha su-kutga ketdi.

Roziya ham qimir etmay jim o‘tirardi. Ular anchadan beri ko‘rismagan, bir-birlarini sog‘ingan edilar. Ammo hozir uchrashib qolganlaridan xursand bo‘lolmasdilar. Boshqa murakkab tuyg‘ular ikkovini ham esankiratib qo‘yan, hatto salomlashishga ham tillari bormas edi. «Nega?» — dedi Roziya o‘zicha. — Nahotki Sattor o‘zini tanimaganga solib o‘tira olsa? Xotinidan shu darajada hayiqadimi?».

Roziya Sattor bilan oxirgi marta uchrashganda bo‘lib o‘tgan mushkul gaplarni esladi.

«Men shunday bir og‘ir ahvoldaman-ki, — degan edi Sattor, — sizga hatto «Kuting!» ham

deyolmayman. Birovning qo‘ydi-chiqdi bo‘lishini ko‘rishda nima olijanoblik bor? Men sizdan sadoqat talab qilishga ham haqqim yo‘q. Agar boshqa birov bilan baxtingiz ochilsa, hozir men bunga rozi bo‘lishdan boshqa chora topolmayman!» Roziya ko‘ziga yosh olib, bu gaplarga qattiq e’tiroz bildirgan bo‘lsa ham, chigal o‘y-hayollar jonidan to‘ydirib yuborganda boshqa biror yigitni Sattorga o‘xshatib sevib qolishni astoydil istar edi. «Bu bedavo dardning davosi shu bo‘lsa kerak!» deb o‘ylardi. Moskvadan Roziya bilan xafalashib qaytgan Sora xolasi voqeanning bir chetini Roziyaning ota-onasiga aytib bergen edi. Roziyani haligacha erga berolmaganlardan tashvish chekib yurgan ota-ona endi bu gaplarni eshitib qatgiq iztirobga tushgan, qizlari boshqa biror yigitga moyillik bildirishini zoriqib kutar edilar. Roziyaday ko‘hlik qizga sevgi izhor qilgan, jazman bo‘lib sovchi yuborayottan yigitlar yo‘q emas edi, ammo ularning birortasi Roziyaning qalbidagi muhabbatdan ustun kelolmas edi. Roziyaning ota-onasi esa, o‘zлari sevishib oila qurgan odamlar bo‘lganliklari uchun qizlarini xohlamagan odamiga majbur kilib uzatishni istamas edilar. Roziyaning o‘zi kecha-yu kunduz Sattorni o‘ylar, uni biror soat hayolidan uzoqlashtiroldi. Sattorning xotiniga nisbatan ham odamgarchilik qilayotgani, uning Roziyaga aytgan so‘nggi gaplarida ham alohida bir tantilik borligini unutolmas edi. Agar Roziya muhabbatsiz oila qurishning butun dahshatini Sattor orqali bunchalik yaqindan ko‘rmaganda edi, balki o‘ziga sal-pal yoqqan biror yaxshi yigitga tegib ham ketardi. Ammo ko‘ngilsiz turmush odamni qanday og‘ir ahvollarga solishini Roziya mana hozir ham Sattorga qarab ko‘rib o‘tiribdi.

Mashina ko‘zg‘alguncha o‘tgan bir lahzalik jimlikda Roziyaning ayoldidan chopqillab o‘tgan bu o‘ylar Sattorga go‘yo, endi borib yetdi. Sattor qirov ingan qulooqchinini peshanasidan nari surdi-yu, orqaga o‘girildi. Roziya haydovchining ketida o‘tirar edi. Sattorning sog‘inch to‘la ko‘zi Roziyaning ko‘zlariga tushganda, qizning chehrasi xuddi oftob tushgan oynaday to‘satdan jonlanib ketdi.

— Roziya, so‘rashmadik ham, yaxshi yuribsizmi? Sattorning Roziyaga qarayottan ko‘zlarida ajib bir mayinlik bor edi. Uning ovozi ham shu kadar iliq eshitilardiki, Oyshaxon yonida o‘tirgan qizga «yalt» etib qaradi.

Sun’iy qorako‘l paltosi o‘ziga juda yarashib tushgan bu xushro‘y qizning Sattorga qarashi ham benihoya nafis. U Sattor bilan so‘rashar ekan, ehtiros to‘la ko‘zlarini yigitning yuzidan ololmas edi.

— Ie, a... birga ishlaysizlarmi? — so‘radi Oyshaxon taajjub aralash norozilik ohangida.

Sattor Oyshaxonning bu ohangiga mutlaqo mos kelmaydigan bosiq tovush bilan:

— Ha, — dedi, — Roziya ham metroni loyihalashga qatnashgan. Tanishib qo‘yinglar!

Oyshaxon bilan Roziya til uchida so‘rashar ekanlar, «bir kun emas, bir kun uchrashar edi, — deb o‘ylandi Sattor. — Mayli, bir-birini ko‘rib, bilib qo‘ysin!».

Sattorning ovozidagi bosiq ohang Roziyaga ham o‘tdi:

— Aytmoqchi, Sattor, metro haqida hukumat qarori chiqibdi. Gazetalarda o‘qidik...

— Oxiri baxayr bo‘lsin, Roziya. Boshlanishi yaxshi! Sattor bilan Roziya ko‘pdan kutilgan bu qarordangina emas, hozir uchrapshb kolganlardan ham shodlanib ganirmoqda edilar. Diydor ko‘rishish kuvonchi endi o‘zini ko‘rsatmoqda edi. Oyshaxon esa ularning gapiga aralasholmay, bir chetga chiqib qolganday bezovtalaniq o‘tirar edi.

Sirg‘anchiq yo‘ldan ko‘zini olmay, mashinani extiyot bilan haydab borayotgan haydovchi birdan gapga aralashdi:

— Metroni aftyapsizlarmi? Men ham gazetada o‘qidim. Yaqin orada qurilarmikin?

— Hozircha loyiha topshiriqlari tasdiqlandi. Yana hali tadqiqot ishlari olib boriladi. Kurilish birikki yildan keyin boshlansa kerak.

— Gazetada qanaqa stantsiyalar bo‘lishini ham yoziishibdi, — dedi haydovchi. — Sxemasi ham bor ekan, men shu «Farhod» degan stantsiyaning qaerda bo‘lishini bi-lolmay qoldim.

Sattor buni tushuntirib bergen edi, haydovchi afsuslanib:

— Bizdan uzoqroq ekan-da, — dedi. — Mayli, uzoq bo‘lsa ham, ishqilib, qurilsin. Bu sovuqda ko‘l ko‘tarib turgan odamlarning ko‘pligini qarang!

Qor-sovuqlarda asfaltning o‘yilgan joylari juda ko‘payib ketgan, mashinalar silkinib-qoqinib uncha

tez yurolmas, shuning uchun haydovchilar qo'l ko'taruvchilar oldida huda-behuda to'xtab vaqt ketkizishni yoqtirishmas edi. Mashinalar to'xtamay o'taveraganidan asabiylashgan ikkita yosh yigit yo'lning o'rtasiga chiqib Sattorlar o'tirgan taksini majbur qilib to'xtatmoqchi bo'ldi. Haydovchi rulni keskin burib o'tib ketmoqchi edi. G'ildiraklar qorda sirg'anib ketib, mashina yo'lga ko'ndalang bo'lib qoldi. Xayriyat, qarshidan kelayottan avtobus uzoqda edi, haydovchi tezlikni o'zgartirib, mashinasini ustalik bilan o'nglab oldi. Yo'l to'sgan yigitchalar ura qochishdi.

— Xozir quvib borib qulqoq-chakkasiga tarsaki tushirsam bo'lar edi-yu, lekin odam har yog'ini o'ylab andisha qiladi-da, — dedi terlab ketgan haydovchi. — Bir chekkasi, yo'lovchilarga ham oson tutib bo'lmaydi. Havo munaqa. Transportning ahvoli ma'lum. Odam ko'p. Smenani topshirguncha iyig'im chiqib ketadi-e!.. Metro qurilsa biz ham sal yengil tortarmidik, deyman-de!

— Yengil tortishingiz aniq, — dedi Sagtor. — Metroning huzurini hamma ko'radi. Yer ostida qish-u yoz barobarligini aytmaysizmi!

Roziya Moskva metrosida Sattor bilan birga yurganlarini esladi-yu:

— Haqiqatan, metroning qor-yomg'ir bilan hisoblashmasligi ham yaxshi-da, — deb qo'ydi.

Mashinaning bir burchagida o'g'lini oldiga olib o'tirgan Oyshaxon Sattor bilan Roziyaning qandaydir sirli bir munosabatlari borligini tobora aniq payqamoqda edi. Bu ikkovining orasida katta bir ijodiy mexnat va jozibali maqsaddan tashqari, ulkan bir tuyg'u ham borligini, Sattor bilan Roziya bir-biriga juda munosib ko'rinishini Oyshaxon rashk olovida o'rtanib his qildi-yu, bunga qarshi isyon ko'targisi keldi.

— Qor-yomg'ir deysiz! Hozir bizning gulxonaga boring. Qahraton sovuqlarda ham gullar ochilib yotibdi!

Oyshaxon bu gaplarni Roziyaga qarab, «biz sizdan kam emasmiz» degan bir pisanda bilan aytdi. Kutilmagan bu pisandan Roziya esankirab qoldi. Sattor o'rindiqqa chap qo'ltig'ini tayab, Oyshaxonga o'girilib qaradi. Uning lablari alam bilan titrayotganini ko'rди-yu sababini sezib, ko'nglini ko'tarib qo'ygisi keldi.

— Oysha hozir shaharning eng katta gulxonasida ishlaydi, — dedi Sattor Roziyaga. — O'zi qishloqda ham gulchilikni yaxshi ko'rар edi. Bu yerda mashhur bir gulchiga shogird bo'lib oldi. Ustozing kim edi?

— Shafoat Roziqovna! — dedi Oyshaxon iftixor bilan. — Gazetalarda suratlari chiqqan. «Yangi Toshkentni gulbog' shaharga aylantiramiz!» deb so'z bergenlar!

— Ha, eshituvdim, — dedi Roziya Oyshaxondan ko'zini olib Sattorga qararkan.

U Oyshaxonning ishga qanday kirganini Sattordan eshitgan edi. Qo'ni-qo'shnilaridan biri Oyshaxonni tikuv fabrikasiga ishga taklif qilgan, boshqa biri uni zavodga olib borgan, uchinchisi kombinatga odam kerakligi haqidagi e'ltonni olib kelib ko'rsatgan edi. Hamma joyda: «O'z hisobimizdan o'qitib, istagan hunaringizni o'rgatamiz, keyin bizda ishlaysiz!» deyishar edi. Ishlaydigan odamga talab bu qadar kattaligi, mehnatkash kishi bu darajada aziz ekani Oyshaxonga juda yoqib tushgan edi. Biroq u hovliga o'rgangani uchunmi, to'rtinchchi qavatdagagi kvartiralarida o'tiraverib siqilib ketar, ko'kalamzor joylarni qo'msar edi. Buni sezgan Sattor yangi Toshkentni gulzor, ko'kamlamzor qilish uchun jonkuyar odamlar kerakligini o'yladi-yu, Oyshaxonni shahar gulxonasiga olib bordi. Oyshaxon ulkan oranjereyalarda O'zbekistonda bor eng ajoyib gullar va ko'rkam o'simliklarni o'stirish mumkinligini ko'rib, bu ishga astoydil qiziqib qoldi. Hozir u ham yangi Toshkentda gullar va bog'larni mumkin qadar ko'paytirish ishtiyoqi bilan ishlab yuribdi.

Roziya shuni sezdi-yu, Oyshaxonning sevgan ishi butun hayotiga yaxshi ta'sir ko'rsatishi mumkinligini o'yladi. Qachondir bir vaqt Oyshaxon ham oradagi murakkab muammoni o'zicha mustaqil tahlil qiladigan vaadolatli hukm chikaradigan bo'lishini istadi. Roziya shu istak ta'sirida Oyshaxonga muloyim bir nazar tashladi-da:

— Ishingizdan xursand bo'lsangiz... biz ham siz uchun xursandmiz, — dedi.

Roziya Oyshaxonning boyagi pisandasini ko'ngliga olmay, bu qadar muloyim javob qilgani g'alati

edi. Oyshaxon uning nega bunday deganini tushunolmay yuziga tikilib koldi. Shunda birdan ko‘zko‘zga tushdi. Roziyaning ko‘zlari hamma voqeadan xabardor ekanini aytib turardi. Oyshaxon buni payqab, yuragi orqasiga tortib ketdi. Sattor Oyshaxondan ajrashib, shu qizni olmoqchi bo‘lganmi? Nahotki, bu qiz Oyshaxonning o‘zini daryoga tashlaganini ham bilsa? Oyshaxon Roziyaning ko‘zlarida yonib turgan olovga tob berolmadi. Nigohini Roziyadan olib, tez Sattorga qaradi. Biroq Sattorning ko‘zlarida ham xuddi shunday olov yonmoqda edi. Oyshaxon erini hech vaqt hozirgiday o‘tli bir qiyofada ko‘rgan emas. Sattor Roziyani ko‘rgandan beri butunlay o‘zgarib qolganini Oyshaxon o‘z ko‘zi bilan ko‘rib turibdi!

Shu payt Sattor yana Roziyaga yuzlandi. Sirdosh kishilar orasidagina bo‘ladigan nozik bir tuyg‘u bilan:

— Ertaga Moskvadan Maksimich keladigan, — dedi.

— Maksimich? Metroning ishi bilan-a?

— Ha, me’morchilar metro stantsiyalarining eskizlarini chizishyapti. Qurilish boshlanishidan oldin tayyorgarlik ishlari juda ko‘p bo‘ladi-ku. Shuning hammasiga Maksimich Moskvadan mutasaddi qilib tayinlanibdi.

Moskvada o‘n sakkizinchı qavatda bo‘lgan o‘tirish, o‘shandagi mas’ud damlar, yaxshi tilaklar, Sattor qadah ko‘tarib aytgan orzular hammasi birdan Roziyaning yodiga tushdi. Qani bu orzularning amalga oshgani? Maksimich xotinini olib kelsa Sattor bilan Roziya ularni qaysi uylariga taklif qilishadi? Hayot bilan orzuning orasiga tushgan tog‘lar Sattor bilan Roziyani umrbod bir-biridan ayirib qo‘yadiganday tuyuldi.

...Roziyaning ko‘zlarida yosh halqalandi. Sattor buning sababini sezib, yuragi ezildi:

— Agar... u odam sizni so‘rasa... nima deyman, Roziya?

Bu savolda «Nahotki o‘sha orzulardan butunlay voz kechsak?» degan ma’no bor edi. Yo‘q, Roziya umidini uzmoqchi emas. Hamma narsadan qat’i nazar, diydor ko‘ri-shib turish ham unga g‘animat tuyuldi.

— Meni so‘rasa, o‘zimga xabar bering, — dedi Roziya. — Telefon bor-ku.

Sattor bilan Roziya yaqin orada yana uchrashishlari muqarrarligini sezgan Oyshaxon alamidan dod deb yuborgisi keddi. Ammo Sattor unga butun haqiqatni aytgan o‘sha dahshatli kun esiga tushdi. Sattor undan hech narsani yashirgan emasdi-ku. Hozirgi ahvolga Oyshaxon ham sababchi ekani uning o‘ziga endi sezildi. Sattor bilan Roziya astoydil istasalar, hozir ham Oyshaxonni zor qaqqhatib, bir-biri bilan topishib ketishlari mumkin emasmi?

— To‘xtating! — dedi Oyshaxon to‘satdan haydovchiga. — Biz keldik!

Mashina ilgarigi Qashqar mahallasining o‘rniga tushgan baland uylar qarshisida to‘xtadi. Roziya ular bilan xayrlashayotib, Sattorga ko‘zlari mo‘ltirab qaraganini Oyshaxon ko‘rib qoldi. Sattor boshqa ayol bilan yashashi Roziyani qanchalik o‘rtashini sezib, Oyshaxonning qalbidagi alam sal pasaydi.

Sattor xomush. U Oyshaxon bilan uyiga borayotgan bo‘lsa ham, butun hayoli, fikri Roziyaga ergashib ketgan edi. Oyshaxon buni sezib, avval xo‘rligi keldi. So‘ng Sattor butun og‘irlikni o‘ziga olib, uni yangi uyga ko‘chirtirib kelganini, suygan ishiga kiritib qo‘yganini o‘yladi-yu yana hovuridan tushdi. Kechqurun gaz yonib turgan bejirim oshxonada choy ichib o‘tirganlarida u Sattorga qo‘rqa-pisa ko‘z tashladi-da:

— Sattorjon aka, muncha jimb qoldingiz? — dedi. — Nimani o‘ylayapsiz?

— Bilging keldimi?

— Ha.

— Erk degan narsani o‘ylayapman.

— Erk?

— Ha. Onalar bolasini, «erkam» deb suyadi. Keksalar «yurtingta erka bo‘l» deb duo qiladi. Shunga qaraganda, erk azaldan juda tansiq ekan-da.

— Lekin o‘ziga juda erk berib yomon yo‘lga kirib ketgan tantiqlar ham bor...

— Hamma narsaning ortiqchasi odamni buzadi. Lekin men buni aytayotganim yo‘q... Oftob hammaga barobar nur sochadi. Lekin har bir tirik jon bu nurdan o‘z kuchiga yarasha bahra oladi. Mana, sen gulchisan... Ayt-chi, oftob nur sochib turgani bilan gulning ichida bor kuchlar uyg‘onmasa yoki uyg‘ongan kuchlarga erk berilmasa, shu gul ochiladimi?

— Yo‘q.

— Qars ikki ko‘ldan chiqadi, degan gap bu yerda muhim. «Baxting ochilsin» degan tilak bor. Menimcha, odamning baxti ochilishi uchun yuragida avval mana shunaqa bir gul ochilishi kerak.

Sattor dildan chiqarib aytgan bu gaplar ikki oradagi g‘uborni tarqatganday bo‘ldi. Ammo g‘ubor tarqagandan keyin yanada aniq ko‘rina boshlagan bir narsa Oyshaxonni battar iztirobga soldi.

Sattor Oyshaxon bilan yashayotganidan baxtiyormi? Boyagi qiz... ko‘zları mo‘ltirab ketdi... Oyshaxonning o‘zi-chi? Unga osonmi bunday yashash?

Sattor choyni ichib bo‘lib, o‘z bo‘lmasiga kirib ketdi.

Ikki xonali kvartiraning kichikroq xonasini Sattor kabinet qilib olgan. U kechalari allamahalgacha loyiha chizadi. Gohi-gohida Sattor charchabmi, siqilibmi, og‘ir «uh» tortadi.

Bugun Oyshaxon yupqa devor orqali shu «uh»ni yana eshitdi-yu, yuragi qon bo‘lib ketdi. O‘g‘ilchasini bag‘riga bosib:

«Endi nima qilamiz? — deb shivirladi. — Qandoq qilsak to‘g‘ri bo‘ladi?».

Kichkina bola hali bu savollarga tushunmaydi. Ota-onasi esa hamon bir qarorga kelolmaydi.

1969